ISSN: 2181-3035



TALQIN VA TADQIQOTLAR

№ 11

Respublika ilmiy-uslubiy jurnali

15.10.2022.

@TALQINVATADQIQOTLAR

- *Aniq fanlar
- *Tabiiy fanlar
- *Tibbiyot fanlari
- *Texnika fanlari
- *Iqtisod fanlari
- *Filologiya fanlari
- *Pedagogika fanlari
- *Arxitektura
- *Qishloq xo‘jaligi
- *Ijtimoiy-gumanitar fanlar
- *San’at va madaniyat fanlari
- *Jismoniy tarbiya va sport

(+99891-152-93-14) talqin@bk.ru www.talqinvatadqiqotlar.uz

TALQIN VA TADQIQOTLAR

RESPUBLIKA
ILMIY - USLUBIY JURNALI

BARCHA SOHALAR BO‘YICHA

11-son 1-qism
15.10.2022

Talqin va tadqiqotlar

ilmiy-uslubiy jurnal

scientific-methodical journal

научно-методический журнал

Bosh muharrir:
I.I.Abdumannonov

Mas'ul muharrir:
O.S.Isroilov

Jurnal bir oyda ikki marta chop etiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiya agentligida 2022- yil 12 - fevralda 1540 raqam bilan ro‘yxatga olingan.

ISSN 2181 - 3035

Jurnaldan maqola ko‘chirib bosilganda, manba ko‘rsatilishi shart.

Tel: +99891-152-93-14
E pochta: talqin@bk.ru
Сайт: www.talqinvatadqiqotlar.uz

Tahrir kengashi:

Qo‘ldashev Sherali Temiraliyevich
O‘z FA Sharqshunoslik instituti, tarix fanlari nomzodi, dotsent
Abdukarimov Jamoliddin Ahmadaliyevich
Xo‘jand davlat universiteti dotsenti (Tojikiston)
Masharipova Gularam Kamilovna
Falsafa fanlari doktori, professor
Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti
Qozoqov Tohirjon Qodiraliyevich
Namangan davlat universiteti, tarix fanlari nomzodi, dotsent
Zokirov Sanjar Ikromjon o'g'li
Farg'ona politexnika institutining "Intellektual muhandiislik tizimlari" kafedrasi katta o‘qituvchisi,
fizika-matematika fanlari bo'yicha falsafa doktori
Jo‘rayeva Sobira Eshqurbonovna
O‘zMU jurnalistika fakulteti, o‘zbek adabiyotshunosligi kafedrasi katta o‘qituvchisi, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori
Abdullayev Ravshanjon Inomjon o‘g‘li
O‘z FA Tarix instituti
Ubaydullayev Farxod Baxtiyarullayevich
Toshkent davlat agrar universiteti "O‘rmonchilik va landshaft dizayn" kafedrasi dotsenti
Umarova Maxliyo Yunusovna
O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti lingvistika va ingliz adabiyoti kafedrasi dotsenti, filologiya fanlari doktori
Raximova Zuxraxon Maxmudovna
O‘zbekiston jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti
Baymenova Kamshat Saparbayevna
Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti
Bazarov Otabek Odilovich
Qo‘qon davlat pedagogika instituti, PhD
G‘ulomova Nargiza Sa'dullayevna
Navoiy VXTXQTMOHM Tillarni o‘qitish metodikasi katta o‘qituvchisi
Rahimova Maftuna Odilovna
Qo‘qon davlat pedagogika instituti, PhD
Mirzaahmedova Kamola Toxirovna
Toshkent pediatriya tibbiyot instituti farmakologiya, fiziologiya kafedrasi dotsenti
Djumaniyozova Enajon Kutimovna
Toshkent arxitektura qurilish instituti xorijiy tillar kafedrasi katta o‘qituvchisi
Urazmetova Shoira Azatbayevna
Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalar universiteti Urganch filiali o‘qituvchisi,
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori
Jo‘rayeva Dilnoza Shokirjonovna
Termiz davlat universiteti algebra va geometriya kafedrasi o‘qituvchisi,
pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori

BUXGALTERIYA BALANSI: TURLARI, TARKIBIY TUZILISHI VA UNGA QO‘YILADIGAN TALABLAR

Eshonqulov Azamat Abdiraximovich
TDIU Buxgalteriyasi hisobi kafedrasi assistenti
T.M.Zohidov
ToshDAU magistranti
https://doi.org/10.5281/zenodo.7299522

Buxgalteriya balansida korxonaning moliya-xo‘jalik faoliyati to‘g‘risida katta hajmdagi ma’lumotlar: korxonaning mulkiy holati, moliyaviy resurslarning mavjudligi, ularning taqsimlanishi va foydalanilishi, moliyaviy natijalar(foyda)ning kapitalizatsiyasi, o‘z va qarz mablag‘lari, pul mablag‘larining mavjudligi va holati, debitorlik va kreditorlik qarzlarining holati, asosiy vositalar, nomoddiy aktivlarning holati va o‘zgarishi va shu kabilar haqida ma’luomtlar taqdim qilinadi.

To‘liq bo‘lmagan va ishonchsiz ma’lumotlar, qoidaga ko‘ra korxonaning raqobatbardoshligi va moliyaviy-iqtisodiy holatida aks etuvchi noto‘g‘ri (xato) boshqaruv qarorlarini qabul qilishga olib keladi.

Ma’lumotlardan foydalana olmaslik, ya’ni uning asosida monitoring va tahlilni amalga oshira olmaslik to‘plangan ma’lumotlarning foydasizligiga, menejmentning sifati yomonlashishiga olib keladi.

Korxona rahbarlari buxgalteriya balansi va moliyaviy hisobotning boshqa shakllarida keltirilgan ma’lumotlardan foydalana olishi, ularni o‘qiy olishi, ulardagi ma’lumotlardan foydalangan holda har bir hisobot moddasi orqasidagi korxonaning haqiqiy holatini ko‘ra olishlari, mablag‘lar qaerdan kelib tushganligi va ular qaerda joylashganligini hamda ularning normal ish faoliyati uchun yetarliligi baholay olishlari kerak.

Xo‘jalik yurituvchi sub’ektning to‘laqonli faoliyat yuritishi va doimiy iqtisodiy o‘sishi uchun doimiy ravishda uning moliya-xo‘jalik holatini tahlil qilish va baholash zarur. Xo‘jalik yurituvchi sub’ektning moliya-xo‘jalik holati haqidagi hisobot ma’lumotlarini muntazam kuzatib borish korxonaga iqtisodiy siysatini o‘z vaqtida tuzatishlar kiritib borishiga imkon beradi.

Shunday tahlil qilinadigan va baholanadigan hujjatlardan birimoliyaviy hisobotda asosiy o‘rin egallaydigan asosiy shakllaridan biri hisoblangan buxgalteriya balansidir. Qonunchilikka ko‘ra xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar belgilangan muddat va hajmlarda moliyaviy hisobotlarni taqdim qilishlari, shuningdek bundan hisobotlarni taqdim qilish va ayrim moddalarini baholashda zarur talablarga rioya qilishga majburdirlar.

Buxgalteriya balansi asosiy hisobot shakli sifatida davlat organlari, korxona

rahbariyati, korxona mulkdorlari, banklar va investorlar, kreditorlar va debitorlar oldida hisobot taqdim qilish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi.

Korxona mablag‘lari va ularning manbalarini guruhlash va umumlashtirish vositasi sifatida va ularni qiymat ifodasida aks ettirganligi hamda moliyaviy hisobot tarkibida asosiy o‘rin tutganligi sababli buxgalteriya balansining turlari va shakllarini o‘rganishning dolzarbligi oshib boradi.

Buxgalteriya balansining turlari va shakllarini turkumlagan holda o‘rganish korxonaga buxgalterlik moliyaviy hisobotni yuritishning maqbul usulini tanlashga imkon beradi. Shu bois har xil vaziyatlar uchun buxgalteriya balansining turkumlanishini ko‘rib chiqamiz.

Buxgalteriya balansining turkumlanishiga nisbatan soha mutaxassislari tomnidan turli xil yondashuvlar mavjud. Jumladan, M.S.Ribyantseva va Ye.A.Oksanichlar buxgalteriya balansi tuzish maqsadlaridan kelib chiqqan holda turli xil belgilar bo‘yicha turkumlanishini keltirishgan. Buxgalteriya balansini turkumlash belgilari bo‘yicha quyidagilarni keltirishgan:

- buxgalteriya balansini tuzish vaqti bo‘yicha;
- buxgalteriya balansida aks etgan ma’lumotlar bo‘yicha;
- buxgalteriya balansini tuzish manbalari bo‘yicha;
- buxgalteriya balansi axborotlari hajmi bo‘yicha;
- buxgalteriya balansining tozaligi bo‘yicha;
- korxona faoliyati tavsifi bo‘yicha;
- mulkchilik shakllari bo‘yicha;
- buxgalteriya balansini tuzish maqsadlari bo‘yicha[1].

Rossiyalik mutaxassi M.A.Ryabova va N.A.Bogdanovalar tomonilan buxgalteriya balansini quyidagi belgilar bo‘yicha turkumlashga e’tibor qaratish lozimligi ko‘rsatilgan:

- tuzish vaqti bo‘yicha;
- tuzish manbasi bo‘yicha;
- tarkibi bo‘yicha;
- aks ettiriladigan ob’ektlari bo‘yicha;
- moddalarining tozaligi bo‘yicha;
- ma’lumotlarni taqdim etish shakli bo‘yicha[2].

Yuqorida keltirilgan mualliflar tomonidan bildirilgan fikrlarni tahlil qiladigan bo‘lsak, buxgalteriya balansini turkumlashda e’tiborga olish kerak bo‘lgan belgilar to‘liq keltirilmagan.

[1] Рыбянцева М.С., Оксанич Е.А. Актуальные вопросы формирования информации бухгалтерского баланса в современных условиях // Научный журнал КубГАУ, №71(07), 2011. http://ej.kubagro.ru/2011/07/pdf/12.pdf

[2] Рябова М.А., Богданова Н.А. Теория бухгалтерского учета: учебное пособие. – Ульяновск: УлГТУ, 2009. – 158 с. 41-бет


O‘zbekistonlik olimlardan professor R.D.Dusmuratov balansning turlarini turkumlash bo‘yicha quyidagi belgilarini ajratib ko‘rsatgan:

- tuzish manbasi;
- mulkchilik shakli;
- axborotlar hajmi;
- tuzish vaqti;
- huquqiy maqomi;
- taqdim etilish vaqti;
- qayta tashkil etish tartibi;
- tuzilish shakli;
- soflik darajasi;
- faoliyat turi;
- tarmoqlar bo‘yicha;
- tuzish usuli bo‘yicha[3].

R.D.Dusmuratov tomonidan keltirilgan turkumlash belgilari boshqa mualliflar tomonidan keltirilgan turkumlash belgilariga nisbatan to‘liqligi bilan ajralib turadi.

Rossiyalik mutaxassislar tomonidan buxgalteriya balansining tarkibi bo‘yicha bildirilgan fikrlarda buxgalteriya balansi aktiv va passiv qismlardan iboratligi hamda aktiv qismi aylanmadan tashqari aktivlar va aylanma aktivlardan, passiv qismi esa kapital va rezerv, uzoq muddatli majburiyatlar va qisqa muddatli majburiyatlardan iboratligi keltirilgan[4].

O‘zbekistonlik mutaxassislar, jumladan R.D.Dusmuratov[5]ning ishlarida buxgalteriya balansi ikkita bo‘limdan: aktiv va passivdan iborat bo‘lib, balans aktivi o‘z navbatida uzoq muddatli aktivlar va joriy aktivlar, passivi esa o‘z mablag‘lari manbalari va majburiyatlardan iborat.



[3] Dusmuratov R.D. Buxgalteriya hisobi nazariyasi. -T.: «Fan va texnologiya», 2013, 476 bet. 73-бет.

[4] Рябова М.А., Богданова Н.А. Теория бухгалтерского учета: учебное пособие. – Ульяновск: УлГТУ, 2009. – 158 с. 40-бет; Глущенко А.В. Теория бухгалтерского учета: учебное пособие. – Волгаград: Изд-во ВолГУ, 2003. – 134 с. 25-26 бетлар; Алексеева Г.Н. Теория бухгалтерского учета: Учебное пособие. Тамбов: Изд-во Тамб. гос. техн. ун-та, 2004. 164 с. 27-бет; Астахов В.П. Теория бухгалтерского учета: Учебное пособие. Изд. 9-е, перераб. – Москва: ИКЦ «МарТ»; Ростов н/Д: Издательский центр «МарТ», 2002. -576 с. 108-111 бетлар

[5] Dusmuratov R.D. Buxgalteriya hisobi nazariyasi. -T.: «Fan va texnologiya», 2013, 476 bet. 69-бет.

1-rasm. Balans aktivi va passividagi bo‘limlarning o‘zaro bog‘liqligi[6]

I.T.Abdukarimov va N.V.Tenlarning fikriga ko‘ra buxgalteriya balans quyidagi elementlarni o‘z ichiga oladi:

1. Korxonaga tegishli mablag‘larni aks ettiruvchi aktivlar;
2. Korxona ixtiyoridagi xususiy kapital (moliyaviy resurslar);
3. Aktivlarni xarid qilish natijasida vujudga kelgan, kelgusida tayinlanishi bo‘yicha qaytarilishi zarur bo‘lgan majburiyatlar[7].

I.T.Abdukarimov va N.V.Ten tomonidan bildirilgan ushbu fikrda buxgalteriya balansini tuzilishi ularni tahlil qilish muqtai nazardan bildirilgan bo‘lib, buxgalteriya balansining tuzilishni to‘liq ochib bermaydi.

Buxgalteriya balansi bo‘limlari va moddalarining joylanishining o‘ziga xos qat’iy qonuniyatlari mavjud. Buxgalteriya balansining tarkibiy tuzilishi O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining 2002 yil 27 dekabrdagi 140-son “Moliyaviy hisobot shakllari va ularni to‘ldirish qoidalarini tasdiqlash to‘g‘risida”gi buyrug‘i bilan tasdiqlangan. Ushbu buyruqning 1-ilovasida buxgalteriya balansining shakli tasdiqlangan bo‘lib, buxgalteriya balansi aktiv va passiv qismlardan iborat. O‘z navbatida aktiv qismi ikkita bo‘lim: uzoq muddatli aktivlar va joriy aktivlar, passiv qismi esa: o‘z mablag‘lari manbalari va majburiyatlar deb nomlangan bo‘limlardan iborat[8].

O‘zbekiston Respublikasida buxgalteriya balansi aktivi qismlari va moddalari aktivlarning likvidligi o‘sib borishi tartibida joylashtirilgan. Buxgalteriya balansining 1-bo‘limi “Uzoq muddatli aktivlar”da realizatsiya qilinishi nisbatan qiyin bo‘lgan aktivlar, “Joriy aktivlar” deb nomlangan 2-bo‘limida 1-bo‘limda joylashgan atkivlarga nisbatan likvid hisoblangan aktivlar joylashgan, ya’ni ular osonlik bilan pulga aylantirilishi hamda qarzdorlikni so‘ndirish uchun yo‘naltirilishi mumkin. O‘z navbatida “Joriy aktivlar” bo‘limining ichida ham aktivlar likvidlik darajasining oshib borishi tartibida joylashtirilgan[9].

Demak, buxgalteriya balansining tuzilishi bo‘yicha mutaxassislar fikr bildirishda o‘z davlatining buxgalteriya hisobini tartibga soluvchi normativ-huquqiy hujjatlar talablarini e’tiborga olishga harakat qilishgan.

Buxgalteriya balansining eng muhim jihatlaridan biri bu manfaatdor tomonlarga korxonaning mablag‘lari, mablag‘lar manbalari, o‘z aylanma mablag‘lari, majburiyatlari, umuman olganda moliyaviy holati haqida ma’lumot taqdim qilishidir.

---

[6] Dusmuratov R.D. Buxgalteriya hisobi nazariyasi. -T.: «Fan va texnologiya», 2013, 476 bet. 69-бет.

[7] Абдукаримов И.Т., Тен Н.В. Как распознать бухгалтерский баланс // Социально-экономические явления и процессы, № 1 (013), 2009. 5-17 с.

[8] Ўзбекистон Республикаси Молия вазирлигининг 2002 йил 27 декабрдаги 140-сон “Молиявий ҳисобот шакллари ва уларни тўлдириш қоидаларини тасдиқлаш тўғрисида”ги буйруғи. https://lex.uz/docs/821320

[9] Ўзбекистон Республикаси Молия вазирлигининг 2002 йил 27 декабрдаги 140-сон “Молиявий ҳисобот шакллари ва уларни тўлдириш қоидаларини тасдиқлаш тўғрисида”ги буйруғи. https://lex.uz/docs/821320

Buxgalteriya balansining muhimligi va ahamiyati korxonaning aktivlari va passivlari harakati ustidan to‘liq nazorat qilish, keyinchalik foyda olish maqsadida u yoki bu resurslarni ishlab chiqarishga jalb qilishning maqsadga muvofiqligini aniqlash, salbiy iqtisodiy hodisalarning oldini olish yoki oqibatlarini pasaytirish, moliyaviy barqarorlik va iqtisodiy o‘sishni ta’minlash imkoniyatini taqdim etishidan iborat. Ushbu maqsadlarga erishish uchun buxgalteriya balansi ma’lumotlaridan foydalanuvchilarni buxgalteriya balansi sub’ektlari deb nomlash mumkin.

Buxgalteriya balansi sub’ektlariga quyidagilarni kiritishimiz mumkin:

1. Qonunchilik va ijro hokimiyati organlari;
2. Investorlar va aktsionerlar;
3. mol yetkazib beruvchilar va xaridorlar;
4. turli xil kreditorlar.

Buxgalteriya balansi ma’lumotlaridan foydalanuvchilarining turli xil ma’lumotlardan foydalanadilar. Korxonaning joriy va kelgusidagi to‘lovga layoqatlilik kabi ma’lumotlar mol yetkazib beruvchilar va kreditorlarni, korxonaning foydalilik darajasi aktsionerlar va investorlarni, aylanma mablag‘larning harakati va holati ichki foydalanuvchilarni qiziqtiradi. Bundan ko‘rinadi-ki, buxgalteriya balansi ma’lumotlaridan foydalanuvchilarining ma’lumotlarga bo‘lgan ehtiyojlari turli xil. Shundan kelib chiqqan holda buxgalteriya balansi ma’lumotlarini shakllantirishga nisbatan ma’lum bir talablar ishlab chiqilgan.

O‘zbekiston Respublikasida buxgalteriya balansiga nisbatan qo‘yilgan talablar “Buxgalteriya balansi” nomli 15-sonli buxgalteriya hisobi milliy standarti bilan tartibga solinadi.

“Buxgalteriya balansi” nomli 5-sonli BHMS buxgalteriya balansini topshirish chog‘ida oshkor qilinadigan axborotga qo‘yiladigan talablarni belgilaydi[10]. Ushbu standartning 4-bandida “Buxgalteriya balansidagi barcha axborot to‘g‘ri oshkor qilinishi va foydalanuvchilarga tushunarli bo‘lishi kerak” [11]ligi ta’kidlangan.

Ushbu 15-son BHMs O‘zbekiston Respublikasida Buxgalteriya balansining mazmuniga hamda undagi axborotlarni shakllantirishga nisbatan talablarni tartibga soluvchi asosiy hujjat hisoblanganiga qaramasdan, buxgalteriya balansini tuzishda amal qilinadigan printsiplar keltirilmagan.


Mamlakatimizdagi soha mutaxassislari hisoblangan A.AKarimov, F.R.Islomov, A.Z.Avloqulov, R.D.Dusmuratov, D.Xolboev, I.K.Ochilov, D.X.Azlarov va

[10] Бухгалтерия баланси. 15-сон бухгалтерия ҳисобининг миллий стандарти. Ўзбекистон Республикаси Молия вазирининг 2003 йил 12 мартдаги 45-сон буйруғи билан тасдиқланган. Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги томонидан 2003 йил 20 мартда 1226-сон билан давлат рўйхатидан ўтказилган. https://lex.uz/acts/839065

[11] Бухгалтерия баланси. 15-сон бухгалтерия ҳисобининг миллий стандарти. Ўзбекистон Республикаси Молия вазирининг 2003 йил 12 мартдаги 45-сон буйруғи билан тасдиқланган. Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги томонидан 2003 йил 20 мартда 1226-сон билан давлат рўйхатидан ўтказилган. https://lex.uz/acts/839065

boshqalarning ishlarida buxgalteriya hisobini tuzishda rioya qilinishi kerak bo‘lgan printsiplar keltirilgan bo‘lib, umumiy tarzda moliyaviy hisobotni tuzishda amal qilinishi kerak bo‘lgan umumiy talablar bayon qilingan[12].

O.V.Mamoshina buxgalteriya balansining ahamiyati uni shakllantirishning asosiy printsiplarida o‘z aksini topadi deb ta’kidlagan hamda quyidagi asosiy printsiplarni keltirgan. O.V.Mamoshinaning fikriga ko‘ra ushbu printsiplarga amal qilishgina buxgalteriya balansining zarur funktsionalligini ta’minlaydi[13].



2-rasm. Buxgalteriya balansini shakllantirish printsiplari[14]

Buxgalteriya balansini shakllantirish printsiplarining mazmunini ko‘rib chiqamiz:

1. Balansning to‘g‘riligi. Balansni shakllantirishning ushbu printsipi ular asosida ko‘rsatkichlar shakllanadigan hisob va dastlabki hujjatlarning ishonchliligini ta’minlaydi. Agar qandaydir xo‘jalik faktlari tegishli tarzda tasdiqlanmagan yoki noto‘g‘ri rasmiylashtirilgan holatlar mavjud bo‘lsa, korxona balansida chalkash (buzib ko‘rsatilgan) ma’lumotlar aks ettiriladi.

2. Balansning haqqoniyligi. Ushbu printsip hisob ob’ektlari bahosi bilan balansning tegishli satrlarida aks ettirilgan ma’lumotlar bilan muvofiqligini anglatadi.

3. Balansning birligi. Ushbu printsip buxgalteriya balansi hisob va baholashning yagona printsiplari asosida shakllanishini bildiradi.

4. Balansning davomiyligi. Balans shakllanishining ushbu printsipi har bir keyingi balans o‘zidan oldingi balans ko‘rsatkichlaridan kelib chiqishini anglatadi. Misol uchun, o‘tgan yil yakunlari bo‘yicha yakuniy balans hisobot yili uchun

[12] Dusmuratov R.D. Buxgalteriya hisobi nazariyasi. -T.: «Fan va texnologiya», 2013, 476 bet. 336-337-betlar; Каримов А.А., Исломов Ф.Р., Авлоқулов А.З. Бухгалтерия ҳисоби. Дарслик. — Т.: «Шарқ», 2004. — 592 б.; Xolboyev D. Moliyaviy hisob. O‘quv qo‘llanma. — T.: Cho‘lpon nomidagi NM1U, 2016 - 236 bet; Очилов И.К., Азларов Д.Х., Авлоқулов А.З. Молиявий ҳисоб-т. Ўқув қўлланма. Т.: Тошкент молия институти. 2004. 328-б.

[13] Мамошина О.В. Бухгалтерский баланс как основная форма бухгалтерской отчетности (часть 1) // Социально-экономические явления и процессы. –2015.– № 2(048). – С. 67-73

[14] Мамошина О.В. Бухгалтерский баланс как основная форма бухгалтерской отчетности (часть 1) // Социально-экономические явления и процессы. –2015.– № 2(048). – С. 67-73

boshlang‘ich balans bo‘lishi kerak.

5. Balansning aniqligi. Ushbu printsip buxgalteriya balansini tuzgan hamda uni o‘qiydigan va tahlil qiladigan shaxslarning barchasi tushunishi uchun qulayligi bilan izohlanadi.

Bizning fikrimizcha, buxgalteriya balansini shakllantirishda yuqoridagi printsiplarga riyao qilish unda keltirilgan axborotlarning to‘g‘riligi, haqqoniyligi hamda taqqoslanuvchanligini ta’minlashga imkon beradi.

Xulosa.

O‘tkazilgan tadqiqot natijaslarini umumlashtirgan holda iqtisodiy adabiyotlarda buxgalteriya balansini turkumlashning belgilari bo‘yicha yagona yondashuv mavjud emasligi haqida xulosa qilish mumkin. Buxgalteriya balansini turkumlash belgilari va turlari bo‘yicha har bir muallifning o‘ziga xos qarashi mavjud. Har bir davrda buxgalteriya balansini turkumlash belgilari axborotlarni shakllantirish va umumlashtirish tlablari va printsiplariga javob bergan bo‘lsada, jamiyat rivojlanishini bilan birgalikda buxgalteriya hisobining kuzatuv ob’ektlari, xo‘jalik yurituvchi sub’ektlar ma’lumotlarini shakllantirishga yondashuvlar o‘zgardi va shundan kelib chiqqan holda buxgalteriya balanslarini turkumlash belgilari ham o‘zgarishlarga uchradi. Mualliflarning buxgalteriya balansini turkumlashga turli xil yondashuvlari bo‘lishidan qat’iy nazar, umumiy jihatni– tuzig vaqtini ko‘rsatish mumkin. Buxgalteriya balansini turkumlashg nisbatan farashlarning umumiyligi balansning ma’lum bir sanaga tuzilganligi va tuzish maqsadiga bog‘liqligidir.

Shunday qilib, umumlashgan ko‘rsatkichlarni shakllantirish va balansni tuzish maqsadlariga bog‘liq holda istalgan xo‘jalik yurituvchi sub’ekt buxgalteriya balansining turkumlash belgilarini ajratib ko‘rsatish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Ўзбекистон Республикаси Молия вазирлигининг 2002 йил 27 декабрдаги 140-сон “Молиявий ҳисобот шакллари ва уларни тўлдириш қоидаларини тасдиқлаш тўғрисида”ги буйруғи. https://lex.uz/docs/821320

2. Бухгалтерия баланси. 15-сон бухгалтерия ҳисобининг миллий стандарти. Ўзбекистон Республикаси Молия вазирининг 2003 йил 12 мартдаги 45-сон буйруғи билан тасдиқланган. Ўзбекистон Республикаси Адлия вазирлиги томонидан 2003 йил 20 мартда 1226-сон билан давлат рўйхатидан ўтказилган. https://lex.uz/acts/839065

3. Dusmuratov R.D. Buxgalteriya hisobi nazariyasi. -T.: «Fan va texnologiya», 2013, 476 bet.

4. Xolboyev D. Moliyaviy hisob. O‘quv qo‘llanma. — T.: Cho‘lpon nomidagi NM1U, 2016 - 236 bet;

5. Абдукаримов И.Т., Тен Н.В. Как распознать бухгалтерский баланс //

Социально-экономические явления и процессы, № 1 (013), 2009. 5-17 с.

6. Алексеева Г.Н. Теория бухгалтерского учета: Учебное пособие. Тамбов: Изд-во Тамб. гос. техн. ун-та, 2004. 164 с. 27-бет;

7. Астахов В.П. Теория бухгалтерского учета: Учебное пособие. Изд. 9-е, перераб. – Москва: ИКЦ «МарТ»; Ростов н/Д: Издательский центр «МарТ», 2002. -576 с. 108-111 бетлар

8. Глущенко А.В. Теория бухгалтерского учета: учебное пособие. – Волгаград: Изд-во ВолГУ, 2003. – 134 с. 25-26 бетлар;

9. Каримов А.А., Исломов Ф.Р., Авлоқулов А.З. Бухгалтерия ҳисоби. Дарслик. — Т.: «Шарқ», 2004. — 592 б.;

10. Мамошина О.В. Бухгалтерский баланс как основная форма бухгалтерской отчетности (часть 1) // Социально-экономические явления и процессы. –2015.– № 2(048). – С. 67-73

11. Очилов И.К., Азларов Д.Х., Авлоқулов А.З. Молиявий ҳисоб-т. Ўқув қўлланма. Т.: Тошкент молия институти. 2004. 328-б.

12. Рыбянцева М.С., Оксанич Е.А. Актуальные вопросы формирования информации бухгалтерского баланса в современных условиях // Научный журнал КубГАУ, №71(07), 2011. http://ej.kubagro.ru/2011/07/pdf/12.pdf

13. Рябова М.А., Богданова Н.А. Теория бухгалтерского учета: учебное пособие. – Ульяновск: УлГТУ, 2009. – 158 с. 41-бет

GURUHLASHTIRILGAN SUV TA’MINOTI TIZIMLARIDA TAQSIMLANGAN SUV XIZMATINI TARMOQ TUGUNLARIGA YETKAZISH SUV TAQSIMLASH TARMOG‘I VA TIZIMNI QAYTA QURISHNI OPTIMALLASHTIRISHNING MATEMATIK MODELI SUV TA'MINOTIDA HISOBLASH USULINI TAKOMILLASHTIRISH

Eshniyazova N
Toshkent irrigatsiya va qishloq xo‘jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti” Milliy tadqiqot unversteti**,** magistr
Jurayev F.R
Andijonsuvqurilishinvest Davlat muassasasi, birlamchi ruxsat beruvchi loyiha va tanlov xujjatlairini tayyorlash bo‘limi boshligi
https://doi.org/10.5281/zenodo.7299536

Anotatsiya: Ushbu maqolada eksperimental muammolar ko‘rib chiqilib, aholining suv ta'minoti tizimlarini boshqarish tobora qiyinlashib borayotgani; suvdan foydalanuvchilar soni keskin ortib borayotgani, aholini uzluksiz suv bilan ta’minlash uchun kelajak suv talabini inobatga olib, doimiy rezervuarlarni qayta qurish, hisobini qayta ishlab chiqish zarurligi keltirilgan. Hozirda mavjud suv ta’minoti sistemasidagi nosozliklarni bartaraf etish, mavjud suv talabdan kelib chiqqan holda dasturiy programmalarni ishlab chiqib aholi va qishloq xo‘jaligini suv bilan ta’minlash kerakligi aks ettirilgan. Aholiga sifatli ichimlik suv yetkazib berish tizimlarini boshqarish takomillashtirilgan usullari ko‘rib chiqilib, qishloq xo‘jaligi suv ta'minoti majmualarida suv taqsimoti dizayn va rekonstruktsiya qilishda foydalanish uchun tavsiya qilingan suv ta'minoti tizimlari loyihalari to‘grisida va ularni hisob kitob ishlaridagi aniqliklar keltirilgan

KIRISH.

Respublikada sanoat va qishloq xo‘jaligining jadal rivojlanishi, kommunal sohadagi yuksalish, odamlar turmush sharoitining o‘sishi, shahar va qishloqlarning obodonlashib borishi suvga va uning sifat ko‘rsatgichlariga bo‘lgan talabalarni ham oshirib boradi. Demak, shunday sharoitlarda suv ta’minoti tizimining ishonchli va uzluksiz ishlashi uni jihozlari mukammallashuvini, ulardan foydalanishni zamonaviylashtirish, ya’ni maxsus dasturlar asosida amalga oshirish bilan chambarchas bog‘liqdir. Bu borada, jumladan AQSH, Germaniya, Rossiya, Isroil, Janubiy Koreya, Xitoy va boshqa iqtisodiy rivojlangan davlatlarda aholini toza ichimlik suvi bilan ta’minlaydigan suv ta’minoti tizimlari loyihalari sifatini oshirish, jumladan ularning tarkibidagi suv tashish va tarqatish tizimlarini loyihalash va ishonchliligini ta’minlashga alohida e’tibor qaratilmoqda. Hozirgi kunda

respublikamizda qishloq joylaridagi aholining toza ichimlik suvi bilan ta’minlashni yaxshilash bo‘yicha kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish, jumladan suv olish, kanalizatsiya inshootlari hamda vodoprovod tarmoqlarining yangilarini qurish va mavjudlarini qayta tiklash uchun ularning loyihalarini bajarishda zamonaviy kompyuter texnologiyalaridan foydalanish bo‘yicha keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Adabiyotlar sharhi. Suv ta’minoti majmualarida suv tashish va tarqatish tizimlari hisob uslublarini takomillashtirish masalalari bo‘yicha taniqli olimlar va tadqiqotchilardan N.N.Abramov, V.M.Alishev, V.S.Ovodov, M.A.Somov, M.M.Andriyashev, V.G.Ilin, N.A.Karambirov, L.Ye.Tajibayev, A.A.Kemelev, A.Ye.Belan, N.P.Belozorov, A.S.Verbiskiy, Ye.M.Galperin, B.C.Dikarevskiy va boshqalar tomonidan izlanishlar olib borilgan va ma’lum darajada ijobiy natijalarga erishilgan.

Tabiiy-xo‘jalik jarayonlarini noaniq va turg‘un bo‘lmagan sharoitlarida suv resurslarini boshqarish bo‘yicha yechimlar qabul qilishni asoslash masalalari hamda imitatsion va optimal modellarni yangi avlodini yaratish va ularni dasturiy ma’lumotlar bilan ta’minlash masalalariga G.V. Voropayev, G.X. Ismayilov, V.M. Fedorov, I.E.Maxmudov, S.Sh.Mirzayev, A.T.Saloxiddinov, I.M.Maxmudova, G.I.Nikoladze, M.A.Somov, S.V.Sumarokov, P.K.Swamee, A.K.Sharma, T.T.Tanyimboh, M.Tabesh, R. Burrows va boshqa olimlar tadqiq qilishgan. Bugungi kunda quvurlardagi suvning ko‘prejimli oqimi va noaniqliklar sharoitlarida qishloq suv ta’minoti majmualarida suv tashish va tarqatish tizimlari hisob usullarini takomillashtirish masalalari to‘liq darajada o‘rganilmagan. Shuningdek, aholi sonining muttasil ortib borishi, yangi turar joy massivlari barpo etilishi, shaharlar va aholi punktlarining tobora kengayishi kafolatlangan suv ta’minoti tizimini tubdan yaxshilash bo‘yicha amaliy choralar ko‘rishni inobatga olgan holda muhandislik amaliyotida ishlab chiqarishga tavsiyanomalar berish, suv tashish va tarqatish tizimlarini hisoblashining nazariy asoslarini rivojlantirish, ularning takomillashtirilgan hisoblash usullarini va matematik modellarini ishlab chiqish va amaliyotda qo‘llash masalalarini hal qilish kabi muammolari yetarli darajada o‘rganilmagan.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida tizimli tahlil, sonli eksperiment va kuzatuv usullari hamda suv ta’minotida umumiy qabul qilingan uslublari, grafiklar nazariyasi asosida matematik modellar tuzish va ularni soniy hisoblash usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi:

Respublika suv ta’minoti majmualarida suv tashish va tarqatish tizimlarini hisoblash usuli, quvurlardagi suvning ko‘prejimli oqimi va suv ta’minoti tizimlari

parametrlari, ishonchliligi va iste'molchilarni suvga bo‘lgan talablarini ta'minlashdagi funksional bog‘liqliklarni inobatga olgan holda takomillashtirilgan;

Respublika aholi punktlari suv ta'minoti tizimlaridagi suv tashish va tarqatish jarayonini ifodalovchi matematik modeli yaratilgan;

Suv ta'minoti majmualarida suv tashish va tarqatish tizimlarini hisoblash usuli yangi ish sharoitlari hamda modernizatsiyalash talablarini inobatga olgan holda, suv ta'minoti tizimlaridagi suv tashish va tarqatish jarayonini ifodalovchi matematik model asosida takomillashtirilgan;

Ishlab turgan suv ta'minoti majmualarida suv tashish va tarqatish tizimlarining ratsional rivojlantirish va qayta tiklashni hisoblash usuli suv ta'minoti tizimlari ish jarayonini o‘zgarishiga yangi ulangan tarmoqlarning ta'sirlarini inobatga olgan holda takomillashtirilgan.

Guruhlashtirilgan suv ta'minoti tizimlari Guruhlashtirilgan vodoprovodlar bu markazlashtirilgan vodoprovodlar tizimi bo‘lib, xo‘jalik, tuman, viloyat va undan ham yirikroq hududlar bo‘yicha tarqalgan aholi yashaydigan yoki boshqa ob'ektlarni suv bilan ta'minlaydi. Guruhlashtirilgan vodoprovodlar xo‘jalik, xo‘jaliklararo, viloyat va viloyatlararo, va respublika miqyosida bo‘lishi mumkin. Guruhlashtirilgan vodoprovodlarni qurish zaruriyati quyidagilardan iborat bo‘lishi mumkin.

1. Zaruriy sifatli va yetarli miqdorda suv bera oladigan mahalliy manbaaning yo‘qligi (suv sarfining kichikligi, burg‘u quduqlaridan chiqayotgan suvning sho‘rligi va h.k.). Masalan, O‘rta Osiyo va Qozog‘istonning kamsuv yoki suv manbaalari umuman bo‘lmagan tumanlarida.

2. Texnik-iqtisodiy hisoblar asosida (yagona suv olish, tozalash inshootlari hamda suv tashish va tarqatish tizimiga ega bo‘lgan markazlashtirilgan sistema mahalliy (lokal) vodoprovodlarga nisbatan arzondir).

3. Sanitar-gigienik sharoitlar bo‘yicha (masalan mahalliy suv manbaalaridagi suvning sanitar-gigienik ko‘rsatkichlari qoniqarsiz bo‘lganda).

Guruhlashtirilgan vodoprovodlar murakkab injenerlik tizimi bo‘lib uning tarkibiga vodoprovod sistemasining barcha inshootlari (suv olish inshootlari, nasos va suv tozalash stansiyalari, rezervuarlar, bosimli suv minoralari, magistral suv tashish quvurlari, aloqa va elektr ta'minoti bo‘yicha qo‘shimcha inshootlar, remont-ekspluatatsiya bo‘linmalari, dispecherlik punktlari va hokazo) kiradi. Ayrim guruhlashtirilgan vodoprovodlarning uzunligi 3000 km va undan ortiq bo‘lishi mumkin.

Guruhlashtirilgan vodoprovodlar ketma-ket usulda zonalashtiriladi. Har bir zona o‘zining rezervuari va nasos stansiyasiga ega bo‘lib, o‘zi oqar quvurlarda suv bosimini so‘ndirish uchun xizmat qiluvchi rezervuarlar ko‘zda tutiladi. Magistral suv tashish quvurlari ishonchliligi bo‘yicha maxsus talablarga javob bergani holda bir qator qilib quriladi. Aholi punktlarida kamida ikkita rezervuar ko‘zda tutilib, ular suv

sarfini moslashtirish hamda avariya va o‘t o‘chirish holati uchun maxsus suv hajmini saqlash maqsadlariga xizmat qiladi.

Toshkent shahrining “Qodiriya” suv o‘tkazish tuguni asosidagi guruhlashtirilgan qishloq suv ta’minoti tizimi.

Toshkent viloyatining g‘arbida joylashgan Toshkent, Zangiota, Yangiyo‘l va Chinoz tumanlarining qishloq aholisini suv bilan ta’minlash maqsadida O‘rta – Chirchiq tumanida joylashgan, VU – 1 yer osti qurilmasi va Toshkent shahrining Qodiriya tugunidan suv oluvchi PET guruhlashtirilgan qishloq suv ta’minoti tizimi barpo etilgan.

Tizimning quvvati – 80 ming m^3/sut bo‘lib, suv tashish quvurlarining uzunligi 100 km atrofidadir. 20 yil ishlatilishi davomida, po‘lat suv tashish quvurlarining, ayrim uchastkalari ishdan chiqqan va bu tizim deyarli ishlamay qo‘ydi. Hozirda uzunligi 45 km bo‘lgan yangi tranzit suv tashish quvurlarining qurilishi, Toshkent shaxrining “Qodiriya” tugunidan VK – 82 gacha qurilishi belgilanmoqda, u yerga suv nasos stansiyasi bilan beriladi. VK – 82 dan esa suv, o‘z oqimi bilan VU – 3 gacha va keyin esa Yangiyo‘l va Chinoz tumanlarining iste'molchilariga beriladi.

Taqsimlangan suv xizmatini tarmoq tugunlariga etkazish suv taqsimlash tarmog‘i

Suv taqsimlash tarmog‘ini boshqarishda va loyihalashda barcha kichik suv xizmatchilarini boshqarish, tarqatish tarmog‘ini boshqarish qo‘llab quvvatlanadi. Faqat umumiy soni suv taqsimlash tarmog‘idan qilingan yuboradigan suv. Formani qabul qilish juda maqbul nazorat suvni boshqarishchilarini davolash liniyalari bo‘ylab taqsimlash suv taqsimlash tarmog‘i. Keyin tarmoqning har bir bo‘limidan bo‘ladi suvni boshqarishga mo‘ljallangan formulaga qarab:

$$Q^{demand}{}_{Lj}(t) = Q_{j\in DL}{}^{demand}(t) \cdot L_{j\in DL} / \Sigma_{j\in DL} L_{j\in DL} \qquad (3.52)$$

Bu yerda,

Q talab - taqsimlangan suv nazoratida bo‘lgan talablarning umumiy holati,

DL j ∈ - tartib liniyasi uchastkasining raqami,

D - tartibga liniyasi qismi,

D L uchun suv olishning umumiy qismi .

$$Q_{j\in DL}{}^{demand}(t) = \sum_{Au\in DL(a_start,a_end)} Q_{j\in DL}{}^{demand}(t) \ / \ 2, \qquad (3.53)$$

(3.52) va (3.53) tenglamalar taqsimlangan uzunlik bo‘yicha taqsimlanadi suv ta'minoti tarmog‘ining tugunlariga suvga bo‘lgan talabni tashkillashtirish.

Tizimni qayta qurishni optimallashtirishning matematik modeli suv ta'minotida

Tenglamaga faqat ikkita yangi o‘zgaruvchini quvur liniyasidagi tugunning boshqaruvini amalga oshirish uchun o‘zgartirilgan model optimalni yaratishga imkon berdi.

$$Q_{(t)} = 3.14 \cdot ([d + B(dL) \cdot \Delta d]^2 / 4 \cdot V_{(t)}$$

$$Q^{pump}(t) + \Sigma_{in}^{Aj} Q(t)_{in} = Q^{intake}(t) - \Sigma_{out}^{Aj} Q(t)_{out} \; ; \qquad (3.54)$$

Tarmoqni rekonstruktsiya qilishni yakunlash-rekonstruksiya qilish nazarda tutadi boshqa diametrli etkazib berish uchun har qanday o‘tkazish liniyalari. Demak, qayta qurish paydo bo‘lishi mumkin bo‘lgan yagona joy Tarmoq qismidagi bosimni nazorat qilish jarayoni uchun tenglamani to‘xtatish. Avval aytib o‘tgan o‘tganimizdek, ikkita yangi o‘zgaruvchini kiritishga kerak bo‘ladi.

• Yangi o‘zgaruvchan $d\,\Delta$

• Yangi o‘zgartiruvchi “ (dLB) ”boshqaruvchisi butun sonli model

Ikki yaroqli narxga ega sozlashuvchi: 0 va 1. Bu shunday atalmish Mantiqiy sozlovchi. Tabiiyki, ob'ekt vazifalarini ham amalga oshirish kerak. Korxonada suv ta'minoti tizimining barcha to‘lovlari narxini oshirish funktsiyalari kerak faqat mulk ko‘rib taqlid qilinadigan qurilishlarning narxini boshqarish oling grafik - bu tartibga solish bo‘yicha diametri o‘zgaruvchanlikka oshirildi (dLB) dan farq qiladi chizish. Boshqacha qilib aytganda, ob'ekt funktsiyasi shunday ko‘rinishi kerak yo‘l.

$$Aj \in Ai \quad \text{hamda} \quad Aj \cup Ar = (\;)$$

$$H_r(t \mid t = Sec_step) = H_{n(t)}$$

$$Q_{(t)} = \{H_r(t \mid t = Sec_step) - H_r(t \mid t = 0)\} \cdot S_r / Sec_step$$

$$OBJ = C_u \cdot \{Q^{demand}(t) - \Sigma_{Au} Q^{intake}(t)\} +$$
$$+ C_p \cdot Sec_step \cdot 9.81 \cdot КПД \cdot \{\Sigma_{Ap} Q(t) \cdot H(t) / 3600\} +$$
$$+ \{\Sigma_{Ds} \mathrm{B(dL)} \cdot f([d + \Delta d]) \cdot Lt\} / n +$$
$$+ \{\Sigma_{Ar} C_{r1} \cdot S_r\} / n +$$
$$+ \{\Sigma_{Ar} C_{r2} \cdot H_{Sr}\} / n \qquad (3.55)$$

Bundan tashqari, barcha o‘zgaruvchan xarakterlovchi diametrlar d quvurlarini boshqarish va jarayondan olib tashlanishi kerak optimallashtirish. Suv ta'minoti tarmog‘ida mavjud

$$d -> Const_Dl \qquad (3.56)$$

(rejalar mavjud bo‘lgan va ishlaydi) va endi vazifalar optimallashtirish faqat optimal rekonstruksiyani topishdan iborat tarmoqlar.

Funktsiya]) ([$ddf\ \Delta$ + bitta daraja metr narxini tavsiflaydi qon diametri o‘zgargan tartibga solish $d\ d\ \Delta$ + va faqat amalga oshiriladi qayta qurish (1) (= dLB).

Xulosa:

Respublikamizda suv manbaasi sifatida yer osti hamda yer usti suvlaridan foydalaniladi, biroq, suv manbaasini tanlash juda murakkab jarayondir.

Guruhlashtirilgan vodoprovodlar bu markazlashtirilgan vodoprovodlar tizimi bo‘lib, xo‘jalik, tuman, viloyat va undan ham yirikroq hududlar bo‘yicha tarqalgan aholi yashaydigan yoki boshqa ob'ektlarni suv bilan ta’minlaydi. Guruhlashtirilgan vodoprovod tizimi texnik-iqtisodiy hisoblar asosida (yagona suv olish, tozalash inshootlari hamda suv tashish va tarqatish tizimiga ega bo‘lgan markazlashtirilgan sistema mahalliy (lokal) vodoprovodlarga nisbatan arzondir) hamda sanitar-gigienik sharoitlar bo‘yicha (masalan mahalliy suv manbaalaridagi suvning sanitar-gigienik ko‘rsatkichlari qoniqarsiz bo‘lganda) tashkil qilinadi.

Guruhlashtirilgan vodoprovod tizimlari hisobi suv notekis tarqalgan hududlarda aholi talabidan kelib chiqqan holda bajariladi. Ushbu hisob takomillashuvi uchun matematik model ishlab chiqildi. Ishlab chiqilgan matematik model asosida suv ta’minoti tarmoqlarini hisoblashni osonlashtirish imkoniga erishdim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1.Abramov HH. Suv ta'minoti. - M.: Stroyizdat, 1982. - 440 p.

2. Abramov NN Suv ta'minoti tizimlarining ishonchliligi. - M.: Stroyizdat, 1979.-231-lar.

3. Abramov NN Shaharlararo suv uzatish - M.: Gosstroyizdat, 1963. - 209 p.

4. Alyshev VM Haqiqatning boshqarilishi to‘xtatilishi qo‘llaniladigan tizimlari tizimlari. Diss. dokt. o‘sha. Fanlar, M.: 1987. 527l.

5. Andriyashev MM Suv ko‘rsatmalarining gidravlik hisob-kitoblari va suv ta'minoti tarmoqlari. - M.: Stroyizdat, 1964. - 107 p.

6. Ashirova OA Suv ta'minoti va taqsimlash tizimlarini ishlatish usuli suv ta'minoti tizimlari. // Arxitektura. Bino. Dizayn. - Toshkent, 2015. - № 2. - dan. 49-51.

7. Ashirova OA Tizimning suv ta'minoti elementlarini optimallashtirish suv ta'minoti. Akademik seminar. - Toshkent, 2015 - s. 21-28.

8. Maxambetov AM. Yaylovlarni suv ta'minoti tizimlari bilan sug‘urta qilish: Tezisning referati. ... muhandislik fanlari nomzodi - M., 1982 .-- 24 b.

9. Maxmanov MM O‘zbekistonning chol yaylovlarini sug‘urtalash. Sobiqmatbuot ma'lumotlari. -M., 1985.-Ser. 3.-4-o‘g‘il .- B.1-5.

10. Maxmudov IE Ishonchliligini davolashning gidravlik jihatlari va qolmoqda tizimlar ichish suv ta'minoti (ustida misol Qashqadaryo viloyati). Diss. dokt. texnika fanlari - Toshkent. 2009 yil .-- 198 p.

11. Mirzaev S. Sh. Va boshqasi. Qishloq xo‘jaligini ekologik asoslash va suv xo‘jaligi. - Toshkent: TIIIMSKh. - 2000. - 189 b.

12. Mirzaev S.Sh. O‘zbekistonning er osti suvlari zaxiralari.-Toshkent.: Fan, 1974.-270 p.

13. Mirzaev S.Sh., Saloxiddinov AT Ratsional masalada Markaziy Qizilqum yaylovlarining mahalliy suv resurslaridan foydalanish // Butunittifoq ilmiy konferentsiyalarining tezislari. Cho‘llarning tabiiy resurslari va ularni davolash. - Ashxobod, 1986. - S. 69-71.

14. Mirzaev S.Sh., Saloxiddinov AT Mahalliy sxemalar iqtisodiyoti Markaziy Qizilqumdagi yaylov suv o‘tkazmalari // Davlat va mamlakat suv resurslaridan kompleks foydalanish vazifalari: Ma'ruzalar tezislari. Butunittifoq ilmiy-texnik kengashi - Minsk: TsNIIKIVR, 1986 .-- S.9.

15. ONTP 1-77 texnologik dizaynining Butunittifoq normalari. M.: Kolos, 1979.- 81 b.

88 ONTP 5-80.- texnologik dizaynning Butunittifoq normalari. Moskva: Kolos, 1981, 50 p.

16. Miloddan avvalgi Gadflies Suvni oqilona ishlash loyihalash qishloq xo‘jaligi korxonalari. - Rostov-Don: YujNIIGiM,

1985. - 1-jild, - 241 b.

17. Miloddan avvalgi Gadflies Qishloq xo‘jaligi suv ta'minoti.-M.: Kolos, 1984.- 480 s.

18. OzDst 950: 2011 Ichimlik suvi. Gigienik talablari va sifatini nazorat qilish Qilish. Toshkent. 2011 yil.

19. Orlovskiy SA Aniq tashqari bosh harf bilan qaror qabul qilishda davom etadi ma `lumot. - M.: Nauka, 1981. - 208s.

20. Ostrovskiy AA, Fomin VM Oddiy er osti suvlari Markaziy Osiyo.-M.: Nedra, 1969.

21.Orol gidrogeologik ekspeditsiyalarining hisobot materiallari "O‘zbekgidrogeologiya" uyushmasi va Ekologiya va suv kafedrasi 1961-2002 yillar uchun TIIAMEning Orol muammosi bo‘yicha manbalari.

22. Piskunov NS Differentsial va integral qurilish. Uchun VTUZov, Ikkinchi jild, "Nauka" nashriyoti matematik adabiyot. Moskva 1972 yil 575-yil.

23. Pobereznichenko O.Yu., Xomutetskaya TP Hisoblash usuli va suv olish bilan suv ta'minoti va taqsimlash tizimlarining ishlashini optimallashtirish quduqlar. // Muhandislik va qurilish jurnali. № 2. 2014. p. 58-78.

24. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-2910-sonli qarori 20.04.2017 "Kompleksni rivojlantirish va modernizatsiya qilish dasturi asosida 2017 - 2021 yillarda boshqariladigan suv ta'minoti va kanalizatsiya tizimlari "

25. Qishloq xo‘jaligi suv ta'minoti tizimlarini texnik ekspluatatsiya qilish qoidalari. VSN 3-5-77.- M., 1977 .-- 270 p.

YOSHLAR HAYOTIDA VIRTUALLASHUV SABABLARI VA OMILLARI

Xamdamjonov Mirshoir Mirzohidjon o‘g‘li
FarPI ICHB fakulteti menejment yo‘nalishi
75-20 M guruh talabasi
https://doi.org/10.5281/zenodo.7299541

Annotatsiya: Maqolada internet, ya’ni virtual olamning yoshlar hayotidagi jadal sur’atlarda ommalashishi va ularning salbiy omillari haqida so‘z boradi. Shuningdek yoshlarning virtuallashuvi sabablari, kompyuter o‘yinlariga mukkasidan ketish hamda virtual suhbatlarning salbiy omillarini oldini olish haqida takliflar yoritilib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: internet, virtual olam, kompyuter o‘yinlari, terrorizm, kommunikatsiya, ota-onalar va yoshlar.

1. KIRISH

Bugungi dunyo, bugungi davr shu darajada rivojlanib, taraqqiy etib bormoqdaki, inson aqli, tafakkuriga tan bermasdan iloji yo‘q. Darhaqiqat XXI asrni ham ilm-fan va texnologiyalar rivojlangan asr desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Kommunikatsiya vositalari ham shu darajada mukammal rivojlandiki, uzoq masofadagi yaqinlar bilan aloqa qilish osonlashdi. Bundan tashqari ko‘pchilik insonlar uyidan chiqmagan holda ishlash imkoniyati, yoki turli xil ajoyib o‘yinlar o‘ynash, eng yangi va emg sara kinolarni ko‘rish, yangi xit musiqalardan bahramand bo‘lish esa oddiy hol bo‘lib qoldi. Bundan imkoniyatlarni texnologiya va kommunikatsiya vositalarining eng katta yutug‘I bo‘lmish “Internet” hadya etmoqda.

2. ASOSIY QISM.

Internet (lotincha: inter – aro va net – tarmoq) – standart internet protokoli (IP) orqali ma’lumot almashuvchi kompyuter tarmoqlarining butunjahon va omma uchun ochiq to‘plamidir. Internet — katta (global) va kichik (lokal) kompyuter tarmoqlarini o‘zaro bog‘lovchi butunjahon kompyuter tizimi. Unda geografik o‘rni, zamon va makondan qat’iy nazar, ayrim kompyuter va mayda tarmoqlar o‘zaro hamkorlikda global informatsiya infratuzilmasini tashkil etadi. Qaydnomalar tizimi bilan boshqariladigan barcha hosila tarmoqlar hamkorlikda iste’molchilarga ma'lumotni saqlash, e’lon qilish, jo‘natish, qabul qilish, izlash va ma’lum bo‘lgan barcha variantlar (matn, tovush, videotasvir, fotosurat, grafika, musiqa tarzida va b. ko‘rinishlar) da axborot almashinishga imkon yaratadi. Internet tizimi 20-asrning 60-yillarida paydo bo‘ldiInternetning beqiyos rivojlanish sur’ati davlat, ta’lim, akademik va ijtimoiy tuzilmalarning o‘ziga xos umumiy moliyaviy va intellektual ulushiga

bog‘liq bo‘ldi. Internetni hozirda biz boshqacha nom bilan, ya’ni real hayotdan butkul o‘zgacha olamni namoyon qila olganligi sababli virtual olam deb atay boshladik.

Virtual olam - bu inson tomonidan kompyuter texnologiyalaridan foydalangan holda yaratilgan dunyo. Virtual olam reallikning so‘ngi texnologiyalari sizga xayoliy dunyoga to‘liq sho‘ng'ish uchun ko‘zoynak va dubulg'a yaratishga imkon beradi. Ular sizga haqiqiy hayotdan butunlay uzoqlashishga imkon beradi. Yangi texnologiyalar haqida bilib, odamlar virtual olamga shoshilishmoqda, ammo ular virtual haqiqatning psixologik ta'siri xavfli bo‘lishi mumkinligini unutishadi. Bugungi kunda hayot muammolaridan qochib, boshqa dunyoga tushib ketishingizga imkon beradigan ko‘plab qurilmalar mavjud. Virtual haqiqat tizimining rivojlanishi shu darajaga yetdiki, odam tom ma'noda ikkinchi dunyoda yashaydi, o‘zini virtual olamga to‘liq singdiradi.

Yoshlar hayotida virtual olamga kirish yoki virtuallashuv sabablaridan asosiysi ota-onalarning farzandiga bo‘lgan etiborning yo‘qligi va bolaning o‘zini yolg‘iz his qilishidan kelib chiqadi. Ota-onalar farzandi jim o‘tirsin yoki meni bezovta qilmasin deb, unga uyali telefon yoki kompyuter olib berishadi va bolasi shu bilan band bo‘lib, bizni tez-tez bezovta qilavermasin deydigan ota-onalar juda ko‘payib ketgan. Bolalar esa yaqinlaridan ko‘rmagan etiborni o‘zgalardan qidira boshlaydi va internetga, ya’ni virtual olamga kiradi. U yerda esa turli hil notanish insonlar bilan tanishish, o‘yinlar, ajoyib kinolarni ko‘rish hamda tur xildagi musiqalar tinglash, online ishlash va ko‘plab imkoniyatlar mavjud.Virtual olamda yoshlar yangi do‘stlar topishi yoki turlixildagi ajoyib o‘yinlar o‘ynab o‘zini band qilishi mumkin. Lekin borgan sari internetga tobe bo‘lib, ya’ni virtual olamning asiriga aylanib qoladi. Tanganing ham ikki tomoni bo‘lganidek, virtual dunyoning ham ijobiy va salbiy omillari mavjud. Virtuallashuv yoshlar hayotida shu darajada jadal sur’atda ommalashyaptiki, virtual olamning asiriga aylangan inson huddi o‘rgimchak to‘riga tushgan hashorotga o‘xshab u yerdan qutulib chiqishi angrimahol bo‘lib qoldi. Xa xa to‘g‘ri internet butun dunyoni qamrab olgan o‘rgimchak to‘riga o‘xshaydi va buning domiga tushgan insonlarning ko‘pchiligini afsuski yoshlar tashkil qiladi.

Virtual olamda yoshlarga tahdid soladigan eng katta xatarlardan asosiylari yoshlarning kompyuter o‘yinlariga mukkasidan ketishi va virtual suhbatlar oqibatida yoshlar diniy ekstremistik guruhlar changaliga o‘zlari bilmagan holda tushib qolishlaridir. Ikkala muammoga ham alohida izoh bersak:

1. Kompyuter o‘yinlariga mukkasidan ketish va uning salbiy omillari.

Kompyuter o‘yinlari — yigirmanchi asr mo‘jizasi bo‘lib, ular kutilmagan holda dunyoga keldi, ularning paydo bo‘lishini hech kim bilmagan edi. Koinotga parvozlar ham oddiy inson xayoliga kelmagan, ammo ular to‘g‘risida fantast yozuvchilar orzu qilib, o‘z xayolot dunyosida yetilgan ijod namunalarini yaratganlar, biroq ularni yuz yillardan keyin paydo bo‘ladi deb hisoblagandilar. Kompyuter

o‘yinlari to‘g‘risida esa hatto xayolga ham kelmagandi. Bugungi kunda kompyuter o‘yinlari faqatgina o‘yin emas, balki madaniyat, bilim, ta’lim va tarbiya masalalari targ‘ibotchisiga aylandi. O‘yinlar sahnaga, kartinalar ko‘rgazmasiga yoki kitob sahifasiga o‘xshamaydi, ammo xuddi shular kabi zamonaviy ma’naviyatni, axloqiy xususiyatlar, xayollar, orzu va tasavvurlarni ifoda etadi.

Kompyuter o‘yinlari insonlarga xayollar va orzular olamiga kirish imkonini beradi. Ilgari hech qachon haqiqiy bo‘lmagan olamga bunday chuqur kirib borish va unda ishtirok etishning shunchalik katta erkinligiga ega bo‘lish mumkin bo‘lmagan. Kompyuter o‘yinlarining interfaolligi uning kino, teatr va kitoblardan ustunlik jihatini namoyon etadi: o‘yinlar hamkorlikdagi faoliyatga chorlaydi, o‘yinchi passiv kuzatuvchi bo‘lib qolishi mumkin emas, ya’ni u sodir bo‘layotgan hodisalarga faol ta’sir ko‘rsatadi.

Hech qachon o‘zi his qilmagan insonga virtual olam o‘yinlarida mavjudlik hissi nima ekanligini tushuntirish qiyin. Ko‘pchilik o‘yinchilar yarim soat o‘yindan so‘ng o‘yin qahramoni bilan bir insonga aylanishlarini aytadilar. O‘yinchi insonligicha qoladi, ammo atrofi xona emas, balki umuman boshqa olamga aylanadi. Shu olamni u o‘yindan tashqari hayot — haqiqiy hayot kabi aniq his etadi.

Kompyuterdan tashqari virtual olamda mavjudlik hissini yaratishning boshqa usullari ham mavjud. Ular juda ham ko‘p bo‘lib, ba’zi mamlakatlarda milliy muammoga aylangan. Bugungi kunda aynan kompyuterning ongga ta’sir etish xavfi yuzaga kelishining oldini oluvchi hamda undan o‘sib kelayotgan avlod tarbiyasiga ijobiy ta’sir etuvchi ta’limiy kompyuter o‘yinlari ham mavjuddir.

2 . Virtual suhbatlarning salbiy omillari.

Yaqindagina ota-onalar bolalarning kompyuter o‘yinlariga berilib, ularga bog'lanib qolishlari xavfidan cho‘chib, oldini olishga harakat qilgan bo‘lsalar, hozirgi vaqtda bu xavfga yana ijtimoiy tarmoqlar xavfi ham qo‘shildi. Bolalar va o‘smirlarning hovli va ko‘chalardagi muloqotlari hozirda haqiqiy hayotdan asosan, aynan, cheki-chegarasi yo‘q ijtimoiy tarmoqlarga ko‘chdi. Mazkur muloqotlar bolalarga shunisi bilan ham qiziqroqki, avvolo, tarmoqda o‘zlariga ko‘proq «do‘st» orttirish imkoni mavjud. Tarmoqda muloqot qilarkan, bolalar o‘zlarini omadli bola qilib ko‘rsata oladilar. O‘zgalar rolida o‘zlarini taqdim etib, turli yolg'on dunyolarga berilib ketadilar. Uyatchang va tortinchoq bolalar uchun ehtimol tarmoqdagi muloqotlarning foydali jihatlari bordir, vaqti kelib, haqiqiy hayotda bu muloqotlar o‘z samarasini berishi ham mumkin.

Virtual «do‘stlari» orasida yomon niyatli kimsalarga duch kelish xavfi va ular bilan haqiqiy hayotda uchrashishlari, ishonuvchan odatlariga ko‘ra begonalar bilan dildan suhbatlashishlari xavfini alohida ta'kidlashlari zarur. Bunday muloqotlar ko‘pincha kiberjinoyatchilar uchun juda qulay sharoit ekanligini har bir o‘smir bilmog'i lozim. Ommaviy tarqatiladigan spam, iltimos bilan murojaat etiladigan SMS

xabarlar, allaqanday shubhali «Tanlov»lar haqidagi e'lonlarga ishonmaslik — umuman, kompyuterga zanjirsiz bog'lanib, butun hayot yo‘lini qora dog' bilan bulg'ashiga olib kelishi mumkin bo‘lgan xavfli axborotlarga aldanmaslikni onglariga singdirish zarur.

Ayniqsa ushbu o‘smirlarni ishonuvchanligidan turli xildagi diniy ekstremistik jinomiy guruhlar bolani mafkurasiga o‘zlarining yod g‘oyalarini singdirib, ularni jinoiy ishlarni bajarishga undaydi. Ular terrorchilar deb atalib, virtual suhbatlarda bolaning psixologiyasiga ta’sir o‘tkazadi va o‘smirlar qanday qilib ularning changaliga tushib qolganini afsuski bilishmaydi.

Terrorizm – lotincha, ,,terror’’ – qo‘rquv, dahshat, ya’ni ma’lum yovuz maqsadlar yo‘lida, kuch ishlatib, odamlarni jismoniy yo‘q qilishdan iborat bo‘lgan g‘oyaga asoslangan zo‘ravonlik usuli. Qo‘rqitish va dahshatga solish orqali o‘z hukmini o‘tkazishga urinish terrorchilikka xosdir. U iqtisodiy, siyosiy, diniy, g‘oyaviy, irqiy, milliy, guruh, individual shakllarda namoyon bo‘ladi.

Shu tariqa aksariyat yoshlar o‘zlari bilmagan holda terrorchi bo‘lib qolishyapti va yolg‘on aldovlarga ishonib, o‘z uylarini, ota-onasi hamda vatanini tashlab terrorchilarning oldiga chiqib ketishyapti. Afsuski ular o‘zlari o‘ylamagan ishlarni bajarishib, tunch aholini o‘ldirishlarini bilmagan yoshlar qattiq nadomatda yurushadi. Lekin ba’zilariga bu ishlar ma’qul bo‘ladi. Chunki ular shu o‘xshash turli jangari o‘yinlar o‘ynab, qulog‘iga har xil baqir-chaqirlar singib bo‘lgandir. Bu esa bizning katta xatoyimiz hisoblanadi.

Endi ushbu yuqoridagi xatolarning oldini olish uchun nimalarga ahamiyat qaratish lozim.Avvalo ushbu savollarga javob topa bilishimiz zarur;

Birinchi navbatda, virtual olamda quyidagilarni tushunib olish muhim: bola kompyuter muhitida bo‘lib qolganida bu o‘yin uni qay tomonlarga olib ketishi mumkin?

U tajovuz maktabi bo‘ladimi yoki dunyoga insonparvarlik munosabati maktabi bo‘ladimi?

Ba’zan ota-onalar bolalariga qo‘shni xonada, deyarli virtual olam yaratilgan xonada o‘ynashni ta’qiqlaydilar. U yerdan, bolalar xonasidan har kuni ota-onalarga juda tanish bo‘lgan tovushlar, baqirishlar, jo‘shqin hayqiriqlar eshitiladi. Ularga bu miyalariga o‘tirib qolgan gallyutsinatsiya kabi tuyula boshlaydi. Lekin shu paytlarda ota-onalar takrorlashda davom etadilar: «O‘ynashni to‘xtat… Darsing bilan shug‘ullan… Boshqa ishni bajar, o‘ynama!..» — va bolalar olamini ketma-ket taqiqlaydilar. Virtual olam bu avlodlar — kattalar va bolalar o‘rtasidagi uzilish muhitidir, ular ortida avlodlar nizolari yotgan bo‘lishi mumkin. O‘sib kelayotgan avlod virtual olamlarga ketib qolmaydilarmi, ular qaytib keladilarmi yoki yo‘qmi, buni tushunish qiyin. Bolalarning xayolida yer yuzini virtual olamlar qamrab olgan. Bunday holatlarda ota-onlar farzandiga etiborni kuchaytirishi va oliadagi janjallarni

kamaytirishi yoki iloji boricha yuqotishi kerak. Chunki bolalar oiladagi har xil baqir-chaqirlardan asabiylashib, g‘azabini turli xil jangari yoki fantastik o‘yinlardan bostiradi. Bunday holatlarda bolani tajavvuzkor bo‘lib ketishini oldini olish uchun har doim aytiladigan gap bolaga e’tiborni kuchaytirish, bolani vaqtini to‘g‘ri taqsimlab berish, yangi do‘stlar topishiga sharoit yaratish yoki qiziqishiga qarab uni kasb yoki biron hunarga yo‘naltirish lozimdir.

4. XULOSA.

Xulosa o‘rnida aytish joizki, yoshlarni fan-texnika yutuqlari bilan tanishtirib borish zarur, ammo salbiy oqibatlarni ham hisobga olgan holda, doimiy nazorat va tushuntirish ishlarining ular ongiga singdirib borilishi maqsadga muvofiqdir. Viruallashuv yoshlar hayotida zamon sayin ommalashaveradi. Lekin uning salbiy hamda ijobiy omillaring yoshlarga ziyon qilmasligini oldini olish har birimizning burchimizdir. Ze’ro kelajak yoshlar qo‘lida va albatta bizning yoshlar kelajakda buyuk inson bo‘lib yetishishlari zarur.

Foydalanilgan adabiyotlat ro‘yxati:

1. O‘zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil.
2. Karimova G. “ Virtual olam va tarbiya masalalari “ 03.11.2009.
3. Milliy G‘oya: targ‘ibot texnologiyalari va atamalar lug‘ati – T:,,Akademiya’’. 2007.

KONSTITUTSIYAVIY HUQUQ – HUQUQNING YETAKCHI TARMOG‘I

Yusupov Rahimboy Bekbergan o‘g‘li
Xorazm viloyati yuridik texnikumi o‘qituvchisi
Jumanazarova Barno Husin qizi
Xorazm viloyati yuridik texnikumi 2-bosqich o‘quvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.7299560

Xalqimiz siyosiy-huquqiy tafakkurining yuksak namunasi bo‘lgan
Konstitutsiyamiz yurtimizda demokratik davlat va fuqarolik jamiyati barpo etish,
O‘zbekistonning xalqaro maydonda munosib o‘rin egallashida
mustahkam poydevor bo‘lib xizmat qilmoqda.
Sh.Mirziyoyev

Annotatsiya: Mazkur maqolada huquqiy fanlar ichida o‘ziga xos o‘ringa ega bo‘lgan konstitutsiyaviy huquq fani haqida so‘z yuritiladi. Shuningdek, konstitutsiyaviy huquqning huquq sohalari orasida yetakchilik xususiyati nimalarda namoyon bo‘lishi ochib beriladi.
Kalit so‘zlar: konstitutsiyaviy huquq, kodeks, huquq tarmog‘i, normativ hujjatlar, konstitutsiyaviy huquq normalari.

Konstitutsiyaviy huquq milliy huquq tizimida huquqning yetakchi tarmog‘idir, negaki eng oliy yuridik kuchga ega bo‘lgan konstitutsiya uning asosiy manbayi bo‘lib xizmat qiladi. Asosiy qonun sifatida konstitutsiya amalda o‘zida jamoat bitimini, ya’ni o‘ziga xavf-xatarsiz va erkin rivojlanish shartlarini ta’minlashi va kafolatlashi uchun xalq o‘z davlati bilan tuzadigan shartnomani mujassamlashtiradi. Shu boisdan uning g‘oyalari davlatda amal qiluvchi qolgan barcha qonunlardan ham o‘rin oladi.

Umumiy prinsplarni o‘zida mujassam etgan konstitutsiya qoidalari, shuningdek, davlatda mavjud barcha huquq tarmoqlarida ham rivojlanadi. Buning tasdig‘ini bilib olish maqsadida mamlakatimiz konstitutsiya boblaridan biriga, masalan, oilaga bag‘ishlangan tegishli bobiga murojaat qilamiz. Mazkur bob to‘rtta moddadan iborat. Go‘yo juda ozdek tuyuladi, ammo ularda mujassamlashtirilgan g‘oyalar oilaviy huquqning boshqa normalarida aniq ravishda rivojlantiriladi. “O‘zbekiston Respublikasi Oila kodeksi” 238 moddadan iborat. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining fuqarolikka bag‘ishlangan VI bobida uchta modda mavjud. Shu bilan birga, birgina “O‘zbekiston Respublikasi fuqaroligi to‘g‘risida”gi qonun 45 moddadan tarkib topgan. Aytib o‘tilgan misollar Konstitutsiya asoslari negizi bo‘lib xizmat qilishidan dalolat beradi, negaki huquq rivojlanishi aynan konstitutsiyadan boshlanadi, aynan uning o‘zi boshqa barcha qonunlar va yuridik normalarga hayot

baxsh etadi. Konstitutsiyaning oliy yuridik kuchi ham ana shunday namoyon bo‘ladi. Aytib o‘tganimizdek, qolgan barcha huquqiy qoidalar undan kelib chiqadi va konstitutsiyaga muvofiq bo‘lmog‘i lozim.

Agar, huquq tizimini cho‘qqisida konstitutsiya turgan bir piramida ko‘rinishida tasavvur qiladigan bo‘lsangiz yon bag‘irlari bo‘ylab supachalariga qadar qolgan barcha normativ hujjatlar - qonunlar, qarorlar, tarmoqqa oid normalar va hokazolar joy olganligini yaqqol ko‘rasiz.

Har bir mamlakatning, jumladan, O‘zbekistonning ham huquq tizimi mavjud. Huquq tizimi turli tarmoq huquqlari yig‘indisidan iborat bo‘lib, har bir huquq tarmoqlarining o‘z vazifasi va tartibga soluvchi predmeti mavjud. Boshqa huquq tarmoqlaridan farq qilib, konstitutsiyaviy huquq ikki xususiyatga ega: birinchisi, uning mustaqil huquq tarmog‘i ekanligi bo‘lsa, ikkinchisi, yetakchi huquq hisoblanishidir. Konstitutsiyaviy huquqning yetakchilik roli uning normalari bilan tartibga solinadigan ijtimoiy munosabatlarning ahamiyati, yetakchiligi, boshqa huquqlar bilan tartibga solinadigan munosabatlar uchun asos, tayanch bo‘lishi bilan belgilanadi. Konstitutsiyaviy huquq shaxs va davlat munosabatlarining asoslarini, shaxsning huquqiy holati asoslarini, davlat va hokimiyat tuzilishini, ularni tashkil etish tartibi va faoliyatining prinsiplarini, davlatning nodavlat tashkilotlar bilan munosabati asoslarini o‘rnatar ekan, ana shu masalalarni tartibga soluvchi barcha tarmoq huquqlari uchun yetakchilik rolini o‘ynaydi. Yana konstitutsiyaviy huquqning yetakchilik roli boshqa huquqlarning konstitutsiyaviy normalar orqali vujudga kelishida ham ko‘rinadi va nihoyat, konstitutsiyaviy huquqning asosiy manbai Konstitutsiya ekanligi ham uning yetakchiligini ko‘rsatadi. Konstitutsiyaning 36-moddasi har bir kishining mulkdor bo‘lishga haqliligi, meros huquqi qonun bilan kafolatlanishini, 53-modda xususiy mulk daxlsiz ekanligi va davlat himoyasida bo‘lishini belgilar ekan, bu bilan mulkiy masalalarni tartibga soluvchi «Fuqarolik huquqi»ga asos soladi. 53-modda tadbirkorlik faoliyatini belgilashi bilan, «Tadbirkorlik huquqi» uchun asos bo‘ladi. Xuddi shuningdek, konstitutsiyaviy huquqning boshqa normalari ham boshqa huquqlar uchun asos bo‘ladi, ya’ni, boshqa huquqlar o‘zining dastlabki nuqtasini, tayanchini konstitutsiyaviy huquq normalaridan oladi. Har qanday boshqa huquq tarmoqlari tartibga solayotgan ijtimoiy munosabatlarning asosi konstitutsiyaviy huquq normalari bilan mustahkamlangan. Boshqa huquq tarmoqlari konstitutsiyaviy huquq normalarida mustahkamlangan ijtimoiy munosabatlarni kengaytirib, aniqlashtirib, amalga oshirish mexanizmlarini belgilab, tartibga soladi. Konstitutsiyaviy huquq nafaqat moddiy huquq uchun asos bo‘ladi, balki protsessual huquqlar: jinoyat protsessual huquqi, fuqarolik protsessual huquqlari uchun ham asos hisoblanadi. Masalan, Konstitutsiyaning 26-moddasida sudda ayblanayotgan shaxsga o‘zini himoya qilish uchun sharoit yaratilishi, 116-moddasida ayblanuvchi himoya bilan ta’minlanish huquqiga ega bo‘lishi ko‘rsatilgan

ekan, bu qoidalar tegishli protsessual huquqlarda o‘z ifodasini topadi. Konstitutsiyaviy huquq, huquq tizimida alohida, ya’ni yetakchi o‘ringa ega ekanligini boshqa holatlar ham ko‘rsatadi. Jamiyatdagi siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy sohadagi o‘zgarishlar konstitutsiyaviy huquq normalarida aks etishi bilan birga, huquqning boshqa tarmoqlari rivojiga ham kuchli ta’sir ko‘rsatadi. Mamlakatimizda amal qilib turgan konstitutsiyaviy huquq normalari O‘zbekistonning davlat suvereniteti, shaxsning oliy qadriyat ekanligi, milliy davlatchilikning o‘ziga xos xususiyatlari, bozor iqtisodiyoti xususiyatlari va tamoyillarini o‘zida aniq aks ettirgan bo‘lib, ular boshqa huquq tarmoqlarida ham o‘z ifodasini topgan. Konstitutsiyaviy-huquqiy normalarning tahlili shuni ko‘rsatadiki, ular orqali: - O‘zbekistonning suverenligi, mustaqilligi to‘la ta’minlangan; - inson huquq va erkinliklari xalqaro andozalarga mos ravishda belgilangan; - shaxs va davlat munosabatlarida shaxs manfaatlarining ustuvorligi hisobga olingan; - demokratik asoslarda va tamoyillarda hokimiyat tizimi va hokimiyatni amalga oshiruvchi organlar tizimi mustahkamlangan; - eng asosiysi, konstitutsiyaviy huquq normalari har qanday mafkuradan ozod qilingan.

Xulosa o‘rnida shuni aytish lozimki, nafaqat huquqshunoslar, balki, har bir jismoniy shaxs, avvalambor, konstitutsiyani, qolaversa, huquqning yetakchi tarmog‘i hisoblangam konstitutsiyaviy huquq fanini chuqur o‘rganmog‘i lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O.T.Husanov. Konstitutsiyaviy huquq. Toshkent-2022.
2. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. T.: 2014-yil.
3. O‘zbekiston Respublikasining oila kodeksi. T.: 2022-yil.
4. www.lex.uz.

NOK CHIQITIDAN PEKTIN EKSTRAKTI OLISH TEXNOLOGIYASI

Parpiyeva Gulmira Muxammadjonovna
NamDU akademik litseyi o`qituvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.7299573

Annotatsiya: Ushbu maqolada nok chiqitidan pektin ekstrakti olish jarayonlari, pektinni ajratib olishning optimal sharoitlari va pektin ekstraktining ozuqaviylik qiymatiga oid tadqiqot ishlari natijalari keltirilgan.

Kalit so`zlar: nok, pektin moddalari, pektin ekstrakti, nok chiqiti.

Ichimliklar assortimentida pektinlar bilan boyitilgan ichimliklarga tobora ko‘proq ahamiyat beriladi, chunki ular gidratlangan shaklda inson tanasiga yanada samarali fiziologik ta'sir ko‘rsatadi [1, b. 120]. Nok chiqitini kompleks qayta ishlashni tashkil etish va tarkibida pektin bo‘lgan mahsulotlar turlarini kengaytirish maqsadida gidrolizlovchi vosita sifatida EFS (elektr faollashtirilgan suv) yordamida pektin ekstrakti olish texnologiyasi bizda katta qiziqish uyg‘otmoqda [1, b. 120; 2, b. 33-35; 3, b. 120; 4, b. 175; 5, b. 48].

Tadqiqot metodologiyasi quyidagicha: 50 g chiqit issiqqa chidamli stakanlarga solinadi va fazali sarf nisbati 1:4, pH=2,0 va harorat 80 ° C bo‘lgan holda EFS eritmasi quyiladi. Gidroliz davomiyligi - 2,5 soat [6, b. 245; 7, b. 104-105; 8, b. 626].

Gidroliz jarayonida sharbat ajratilgandan keyin chiqitda qolgan uglevodlar va boshqa moddalarning suyuq fazaga ekstraktsiyasi sodir bo‘ladi. Ekstraksiya jarayoni oxirida suyuqlik fraktsiyasi ajratiladi. Chiqitdan ajratilgan ekstraktda muallaq zarralar bo`ladi. Ular suzgich mato orqali filtrlab olib tashlanadi. Pektinni shlab chiqarilgandan so‘ng darhol keyingi texnologik operatsiyalarga jo‘natish tavsiya etiladi [9, b. 12; 10, b. 33-35; 11, b. 120; 12, b. 175; 13, b. 48]. Agar buning iloji bo‘lmasa, aseptik saqlashdan foydalanish mumkin [14, b. 10; 15, b. 88]. Shu bilan birga, ekstrakt 15-20 soniya davomida 120-135 °C haroratgacha qizdiriladi, tezda 30-40 °C ga sovutiladi va quyiladi. Pektin ekstrakti karbonat angidrid muhitida 0,68 MPa bosim ostida 15 °C dan yuqori bo‘lmagan haroratda saqlanadi. Pektin ekstrakti olishning texnologik sxemasi 1-sxemada keltirilgan.

Nok chiqitidan olingan pektin ekstraktini texnologik baholash quruq va pektin moddalarining tarkibi, pH va asosiy analitik ko‘rsatkichlari bo‘yicha amalga oshirildi (1-jadval).

Ekstrakt namunalarida pektin moddalarining maksimal miqdori Qishki nashvati navida 7,03%, taxminiy ko‘rsatkichlar mos ravishda Mramornaya Rassoshansk va Ra`no (6,10-6,70%) navlarida kuzatildi.


O‘tkazilgan tadqiqotlar natijalari olingan pektin ekstraktlari ushbu parametrlar

bilan belgilangan talablarga javob beradi va oziq-ovqat ishlab chiqarishda qo‘llanilishi mumkin degan xulosaga kelish imkonini beradi.

1-Jadval.

Ekstraktlarning o‘rganilgan namunalarida pektinning sifat ko‘rsatkichlari

Nok navi	Quruq modda, %	Pektin moddalari, %	pH	Pq, %	Efirlanish darajasi, %
Qishki nashvati	3,75	7,03	3,80	51,4	89,0
Levovasser	3,70	4,90	3,64	41,6	88,6
Mramornaya Rassoshansk	3,71	6,10	3,69	42,9	70,0
Ra`no	3,71	6,70	3,60	51,3	69,2



1-sxema. Nok chiqitidan pektin ekstrakti olishning asosiy texnologik sxemasi.

Nok pektini ekstraktining ozuqaviy qiymati. Olingan pektin ekstrakti funktsional mahsulotlarni tayyorlash uchun dastlabki yarim tayyor mahsulot bo‘lishi mumkin.

Pektin ekstraktining ozuqaviy qiymati asosiy fizik va kimyoviy ko‘rsatkichlar bo‘yicha baholandi (2-jadval).

2-Jadval.

Pektin ekstraktining fizik-kimyoviy ko‘rsatkichlari

Ko`rsatkichlar	Miqdori
Oqsillar miqdori, %	0,42
Uglevodlar miqdori, %	15,5
Umumiy kislotalilik, %	0,13
pH	3,64
Pektin moddalarining massa ulushi, %	0,91
Quruq moddalarning massa ulushi, %	3,80
Energetik qiymati, kkal	62,0

2-jadvalda ko‘rsatilgandek, energiya qiymati past bo`lgan bu ekstrakt yuqori ozuqaviy va biologik qiymatga ega. Nok pektini ekstrakti juda qimmatli mahsulot bo‘lib, unda ko‘plab ozuqaviy va stimullovchi moddalar - vitaminlar, fermentlar, minerallar va mikroelementlar mavjud.

Olingan ekstrakt og'ir va radioaktiv metallar bilan aloqada bo‘lgan odamlar uchun profilaktik vosita sifatida funktsional ichimliklar tarkibida ishlatilishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Голубев В.Н. Пектин: Химия, технология, применение /В.Н.Голубев, Н.П. Шелухина-М.: 1995. -155 с.

2. Влияние режимов сушки яблочных выжимок на выход и качество пектина / В.Н. Ежов, Е.Г. Сонина, М.В. Семакова *И* Вино и виноград России. -1999, №5.- С. 33-35.

3. Донченко Л.В. Производство пектина / Л.В. Донченко, Н.С. Карпович, Е.Г. Симхович. - Кишинев: Штиница, 1993.-182с.

4. Донченко Л.В. Свойства пектиновых веществ / Л.В. Донченко, Н.С. Карпович, Т.И. Костенко и др. - Киев: Знание, 1992. - 34с.

5. Гулий И.С. Пектин: его свойства и производство / Гулий И.С., Донченко Л.В., Карпович Н.С., Нелина В.В., Костенко Т.И. - 1992. -Вып.6. - С. 1-56.

6. Донченко Л.В. Технология пектина и пектинопродуктов / Л.В. Донченко. - Учебное пособие. - М.: ДеЛи, 2000. - 255с.

7. Г.М.Парпиева, М.Ш.Хакназарова, А.Ж.Чориев. Фракционный состав пектиновых веществ сортов груш, выращиваемых в Узбекистане // Универсум: технические науки: научный журнал. – № 12(93). Часть 4. М., Изд. «МЦНО», 2021. – 104 с. – Электрон. версия печ. публ. – http://7universum.com/ru/tech/archive/category/1293

8. M. Soliev, O. Abdilalimov. Reactions of Thymol, Menthol, and 3-Hydroxymethyl-Chamazulene in a Superbase Medium // Spanish Journal of Innovation and Integrity. Volume: 05, 2022. P. 625-628. http://sjii.indexedresearch.org

9. Микеладзе Г.Г. Разработка технологии получения пектиновых веществ из вторичного сырья при производстве консервированного мандаринового сока / Г.Г. Микеладзе // Автореферат канд. дис. - Одесса, 1990.

10. M.I.Soliev, A.K.Okhundadaev. Theoretical calculations of the electronic structure of the menthol and thymol molecules // Journal of Science and Education. No. 8 (20), 2018. Russia. Journal website: https://scientificpublication.ru.

11. Нелина В.В. Физико-химические свойства пектиновых веществ. Разработка и совершенствование технологий пектина и пектинопродуктов /В.В. Нелина Краснодар, 1996. - 102 с.

12. Nurmanov S.E., Soliev M.I., Mirkhamitova D.Kh. Electronic structure of aromatic acetylene alcohols and modeling of their vinylation // Modern scientific research and innovations. 2015. No. 3. Part 1 [Electronic resource]. URL: https://web.snauka.ru/issues/2015/03/43329 (date of access: 09/13/2022).

13. Мельденсон Л.Н. Очистка пектина / Л.Н. Мендельсон, Л.Н. Галкина, Л.И. Бекетаева и др. // Хлебопекарная и кондитерская промышленность. – 1968 №7.- С.20-22.

14. Soliev M.I., Abdilalimov O., Nurmonov S.E. The reaction for obtaining 3-vinyloxymethyl-chamazulene // Universum: chemistry and biology: electron. scientific magazine 2020.1(79). URL: https://7universum.com/en/nature/archive/item/11051 (date of access: 09/26/2022).

15. Soliev M.I., Abdilalimov O., Nurmonov S.E. Technology for the production of vinyl esters of menthol and thymol // Universum: technical sciences: electron. scientific magazine 2021.9(90). URL: https://7universum.com/ru/tech/archive/item/12254 (accessed 26.09.2022).

NOK MEVALARIDAGI PEKTIN MODDALARINING MIQDORI

Parpiyeva Gulmira Muxammadjonovna
Namangan muhandislik-texnologiya instituti magistranti
https://doi.org/10.5281/zenodo.7299586

Annotatsiya: Ushbu maqolada turli xil mevalarda pektin moddalarining uchrashi, pektinning xossalari, mevalarning hosil bo`lishidan pishib yetilishgacha bo`lgan davrlarda pektinning shakllanishi va to`planib borishiga oid ma`lumotlar berilgan. Shuningdek, nok mevasi tarkibidagi pektinning navlarga bo`g`liqligi haqida so`z yuritiladi.

Kalit so`zlar: nok, pektin moddalari, pektin ekstrakti, nok chiqiti.

Ma`lumki, pektin moddalari o`simlikning meva va sabzavotlaridan tashqari uning barcha qismlarida – ildizi, poyasi va barglarida ham uchraydi.

Hozirgi vaqtda foydalanilayotgan pektin saqlovchi xomashyolarni 3 ta asosiy guruhga bo`lish mumkin. Birinchi guruhga sabzavotlar (tugunakli, ildizmevali, bargli, poyali, qovoqli, dukkakli, donli), ikkinchi guruhga – mevalar (urug`li, danakli, reza meva, subtropik va tropik), uchinchi guruhga turli xil xomashyolar (choy va tamaki barglari, kungaboqar poyasi va savati, g`o`za ko`sagi pallalari, ninabargli daraxtlar po`stlog`i) kiradi.

Ikkinchi guruhga mansub urug`li mevalarda pektin moddalari miqdori ancha yuqori (3,3... 19,9 %) [1, b. 120].

Nok – ko`p miqdorda madaniy navlari bo`lgan mevali daraxt hisoblanadi. Bundan tashqari, nokning yovvoyi navlari ham bor. Nokning barcha navlari va turlari bir-biridan nafaqat organoleptik xossalari bilan, balki tarkibidagi moddalar, jumladan pektin miqdori bilan ham farq qiladi. Turli hududlarda o`tkazilgan tadqiqot natijalarining ko`rsatishicha, janubi-sharqiy hududlardagi noklarning tarkibida pektin miqdori biroz ko`proq. Masalan, Armaniston noklarining tarkibida pektin moddalarining miqdori 0,22 dan 1,24% gacha, Ozarbayjonda 0,19 dan 0,69% gacha, Hindiston noklarida esa o`rtacha 3,07% ni tashkil etadi. Rossiya janubida etishtirilgan nok mevalarida ham pektin moddalarining miqdori 3,3-8,0% gacha bo`lishi aniqlangan [1, b. 120; 2, b. 33-35; 3, b. 120; 4, b. 175; 5, b. 48]. Amerika va Yevropa hududlaridagi nok mevalari tarkibidagi pektin moddalarining miqdori ham yuqoridagi ko`rsatkichlardan unchalik farq qilmaydi [6, b. 245; 7, b. 104-105; 8, b. 626].

Ozarbayjon Bog`dorchilik, uzumchilik va subtropik ekinlar ilmiy tadqiqot institutining bergan ma`lumotlariga ko`ra, etilmagan nok mevalaridagi pektin

moddalarining miqdori 0,74-1,74 % gacha bo`ladi. Pishganda va ularni saqlash davomida eruvchan pektinning miqdori 0,18-0,69 % gacha kamayadi.

Ma'lum bo‘lishicha, bu masalada yagona fikr yo‘q. Ba'zi mualliflar [9, b. 12; 10, b. 33-35; 11, b. 120] nokning pishishi va saqlash vaqtida pektin moddalarining miqdori kamayadi, ko‘payishi faqat saqlashning dastlabki davrida kuzatiladi, deb hisoblasa, boshqalari [12, b. 175; 13, b. 48] ko‘plab nok navlarida pektin moddalarining miqdori saqlash vaqtida ortadi, deb hisoblashadi. Pektin moddalarining kamayishi faqat sifati past bo‘lgan navlarda namoyon bo‘ladi.

Meva rivojlanishining turli bosqichlarida pektin moddalarining alohida fraktsiyalarining o‘zgarishi pektin metilesteraza va poligalakturonaza kabi pektolitik fermentlarning ta'siriga bog'liq bo`lib, bu alohida nok navlarning o‘ziga xos biologik xususiyatidir [14, b. 10; 15, b. 88].

Yovvoyi mevalarning uglevod kompleksi pektin moddalari va polisaxaridlarni o‘z ichiga oladi. Pektin moddalari protopektin, pektin, pektin kislotasi va uning tuzlari shaklida mavjud. Yovvoyi mevalarda bu moddalar yetarli darajada o‘rganilmagan, bu esa tolalar va pektinlarning inson ovqatlanishidagi rolini etarlicha baholanmaganligini ko‘rsatadi. Yuqori molekulyar og'irlikka ega bo‘lgan pektin molekulasining kimyoviy tuzilishi uning fizik-kimyoviy xususiyatlarini liofil kolloid sifatida namoyon etib, bu uning dorivor xususiyatlarini belgilaydi.

Nokning yovvoyi vakillari pektin moddalarining tarkibi bo‘yicha olma daraxtidan kam emas. Masalan, Loxolistnaya nok mevalarida protopektin pektin miqdorining 2/3 qismini tashkil qiladi, nokning "Oddiy" navlarida eruvchan pektin va protopektin miqdori tengdir. Pishmagan nokda eriydigan pektinga qaraganda ko‘proq protopektin mavjud. Keyin ularning qayta tashkil etilishi sodir bo‘ladi: mevalarning yetilishidan oldin eruvchan pektin deyarli yo`qolib, protopektin maksimal miqdorga yetadi. Mevaning pishishida esa eruvchan pektinning keskin ko‘payishi ro`y beradi, protopektin darajasi deyarli o‘zgarmaydi va protopektin va eruvchan pektin miqdori tenglashadi.

Loholist nok navida dinamika boshqacha kechadi. Pishmagan mevalarda protopektin kam bo‘ladi, nokning pishishi bilan pektin moddalarining miqdori asta-sekin ko`payib 0,8% dan 1,13% ga yetadi. Bundan ko`rinadiki, ushbu nok navida eruvchan pektin miqdori avval pasayib, keyin ko‘payadi va pishib yetilish paytida biroz kamayadi.

1-jadval - Yovvoyi nok mevalaridagi pektin moddalarining (PM) tarkibi

Nok turi	Protopektin (PP), %	Eruvchan pektin (EP), %	Umumiy pektin moddalari, **%**	PP/PM,%
Oddiy	0.557	0.545	1.102	50.5
Loxolist	0.740	0.390	1.130	65.5

Shimoliy Kavkaz mintaqasining yovvoyi mevalarida pektin miqdori 5,11% ni tashkil etadi (0,64% - eruvchan pektin va 4,47% - protopektin. Bundan tashqari, nok bir oygacha saqlansa, pektin moddalarining miqdori (t-1 °C da - 8,15% gacha, t-18 °C da – 11,42% gacha) oshadi. Bu boshqa mualliflarning ma'lumotlariga mos keladi, bu meva pishishi davrida saqlashning dastlabki davrida pektin miqdori ortib borishini ko‘rsatadi. Keyin esa suvda eruvchan pektin va protopektin miqdori kamayadi. Saqlash vaqtida hujayra kolloidlari, shu jumladan pektin moddalari mevali o‘simliklarning metabolizmida ishtirok etadi. Pishib yetilish davrida mevalardagi biokimyoviy jarayonlar saqlash vaqtidan farq qiladi. Birinchi holda, asosan, organik birikmalar sintezi, ikkinchi holda, uglevodlarning nafas olish uchun shakarga gidrolizlanishi sodir bo‘ladi [1, b. 120; 2, b. 33-35; 3, b. 120; 4, b. 175; 5, b. 48].

Shunday qilib, ham madaniy, ham yovvoyi nok mevalari ko‘p miqdordagi qimmatli moddalar, shu jumladan pektin moddalarining manbai bo‘lib, ulardan funksional mahsulotlar ishlab chiqarishda foydalanish istiqbollarini belgilaydi.

Nok mevalarining kimyoviy tarkibi juda yaxshi o‘rganilganiga qaramay, undagi pektin moddalarining analitik xususiyatlari va fizik-kimyoviy xususiyatlari haqida ma'lumotlar yo‘q, bu esa maxsus tadqiqotlar o`tkazish zarurligini anglatadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Влияние режимов сушки яблочных выжимок на выход и качество пектина / В.Н. Ежов, Е.Г. Сонина, М.В. Семакова *И* Вино и виноград России. -1999, №5.- С. 33-35.

2. Голубев В.Н. Пектин: Химия, технология, применение /В.Н.Голубев, Н.П. Шелухина-М.: 1995. -155 с.

3. Гулий И.С. Пектин: его свойства и производство / Гулий И.С., Донченко Л.В., Карпович Н.С., Нелина В.В., Костенко Т.И. - 1992. -Вып.6. - С. 1-56.

4. Донченко Л.В. Свойства пектиновых веществ / Л.В. Донченко, Н.С. Карпович, Т.И. Костенко и др. - Киев: Знание, 1992. - 34с.

5. Донченко Л.В. Производство пектина / Л.В. Донченко, Н.С. Карпович, Е.Г. Симхович. - Кишинев: Штиница, 1993.-182с.

6. Донченко Л.В. Технология пектина и пектинопродуктов / Л.В. Донченко. - Учебное пособие. - М.: ДеЛи, 2000. - 255с.

7. Г.М.Парпиева, М.Ш.Хакназарова, А.Ж.Чориев. ФРАКЦИОННЫЙ СОСТАВ ПЕКТИНОВЫХ ВЕЩЕСТВ СОРТОВ ГРУШ, ВЫРАЩИВАЕМЫХ В УЗБЕКИСТАНЕ // Универсум: технические науки: научный журнал. – № 12(93). Часть 4. М., Изд. «МЦНО», 2021. – 104 с. – Электрон. версия печ. публ. – http://7universum.com/ru/tech/archive/category/1293

8. M. Soliev, O. Abdilalimov. Reactions of Thymol, Menthol, and 3-Hydroxymethyl-Chamazulene in a Superbase Medium // Spanish Journal of Innovation and Integrity. Volume: 05, 2022. P. 625-628. http://sjii.indexedresearch.org

9. Микеладзе Г.Г. Разработка технологии получения пектиновых веществ из вторичного сырья при производстве консервированного мандаринового сока / Г.Г. Микеладзе // Автореферат канд. дис. - Одесса, 1990.

10. M.I.Soliev, A.K.Okhundadaev. Theoretical calculations of the electronic structure of the menthol and thymol molecules // Journal of Science and Education. No. 8 (20), 2018. Russia. Journal website: https://scientificpublication.ru.

11. Нелина В.В. Физико-химические свойства пектиновых веществ. Разработка и совершенствование технологий пектина и пектинопродуктов /В.В. Нелина Краснодар, 1996. - 102 с.

12. Nurmanov S.E., Soliev M.I., Mirkhamitova D.Kh. Electronic structure of aromatic acetylene alcohols and modeling of their vinylation // Modern scientific research and innovations. 2015. No. 3. Part 1 [Electronic resource]. URL: https://web.snauka.ru/issues/2015/03/43329 (date of access: 09/13/2022).

13. Мельденсон Л.Н. Очистка пектина / Л.Н. Мендельсон, Л.Н. Галкина, Л.И. Бекетаева и др. // Хлебопекарная и кондитерская промышленность. – 1968 №7.- С.20-22.

14. Soliev M.I., Abdilalimov O., Nurmonov S.E. The reaction for obtaining 3-vinyloxymethyl-chamazulene // Universum: chemistry and biology: electron. scientific magazine 2020.1(79). URL: https://7universum.com/en/nature/archive/item/11051 (date of access: 09/26/2022).

15. Soliev M.I., Abdilalimov O., Nurmonov S.E. Technology for the production of vinyl esters of menthol and thymol // Universum: technical sciences: electron. scientific magazine 2021.9(90). URL: https://7universum.com/ru/tech/ archive/item/12254 (accessed 26.09.2022).

FIZIKANI O‘QITISHDA MASALALARNING AHAMYATI

Tursunboyev Olmos Vaxob o‘g‘li
Jizzax davlat pedagogika universiteti o‘qituvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.7299594

Annotatsiya: Ushbu maqolada fizikadan masalalar turlari, masalalarning klassifikatsiyasi, yechilish usullari haqida malumotlar berilgan.

Kalit so‘zlar: masala yechish, mantiqiy fikrlash, sodda masalalar, murakkab masalalar, savol masalalar, miqdoriy masalalar, matnli masalalar.

Fizika o‘qitishda nazariy va amaliy metodlar mavjud. Amaliy metodlar ichida fizikadan masalalar yechishning ahamiyati kattadir. Masala yechish jarayonida o‘quvchilarga bilim berish bilan birga o‘quvchilar qobiliyatlarini rivojlantirish, o‘quvchilarga tarbiya berish kabi muhim masalalar hal qilinadi. Fizikadan masalalar yechish jarayonida o‘quvchilarning mantiqiy fikrlashlari kengayadi, ijodiy qobiliyatlari rivojlanadi. Fizikaviy hodisalarning tub mohiyatini kengroq tushunadilar, fizikadagi qonunlarning amalda qo‘llanilishini chuqurroq anglaydilar. Ko‘pgina fizik o‘lchov asboblarining vazifasi, tuzilishi, ishlash prinsplari bilan tanishadilar va ular bilan ishlash ko‘nikma hamda malakalariga ega bo‘ladilar. Shuningdek masalalar o‘quvchilarda mexnatsevarlik, jur’atlilik, iroda va harakterni tarbiyalaydi.

Ko‘pgina metodik adabiyotlarning tahliliga ko‘ra, mantiqiy xulosalar, matematik amallar va fizikadagi qonunlar hamda metodlarga asoslangan holda yoki eksperiment yordamida yechiladigan muammo, odatda fizik masala deyiladi. Fizik masalada qo‘yilgan muammoni hal etish, masala yechishdan iboratdir.

Masalalarning klassifikatsiyasi. Fizikadan masalalar to‘plamlarida berilgan hamma masalalar turli asoslarga ko‘ra klassifikatsiyalanadi. Masalan masalalarning murakkablik darajasiga ko‘ra, sodda masalalar, qiyinroq masalalar, masala shartida, darslikda va darsda ko‘rib chiqilgan masalalarda tavsiflanganiga nisbatan kamroq tanish bo‘lgan holat tavsiflangan masalalar, o‘quvchilar ya’ni bilimlar olish uchun foydalanish mumkin bo‘lgan masalalar.

Masalalar mazmuniga qarab, mexanikaga, molekulyar fizikaga, elektr va boshqa bo‘limlarga doir va hakozo bo‘lishi mumkin. Bunday bo‘linish shartli ekanini bilamiz, chunki ko‘pincha bitta masalaning shartida fizikaning bir nechta bo‘limlaridagi ma’lumotlardan foydalanamiz.

Shuningdek politexnik mazmunga ega bo‘lgan, ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishga bag‘ishlangan, tarixiy harakterdagi ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan masalalarga klassifikatsiyalanadi.

Yechish usullariga ko‘ra: masalalarni sifat, eksperimental, grafik va ijodiy masalalarga bo‘linadi. Bunday bo‘linish ham shartlidir, chunki eksperimental masalalarni yechishda og‘zaki mulohazalardan ham, grafikdan ham, hisoblash ishlaridan ham foydalanamiz. Biroq bu masalalarning har bir mazmuni va murakkabliligi jihatidan xilma- xildir. Bu masalalarning yechimlari aniq bir maqsadga qaratilgan bo‘lib, aniq yechilish usullariga ega. Bu masalalarning har bir turlari uchun alohida adabiyotlar mavjud. Shunday bo‘lsada, bu masalalar ustida qisqacha to‘xtalib o‘tamiz [1, B. 37-38].

Fizik masalalar o‘z mazmuni va didaktik maqsadlari bo‘yicha xilma-xildir. Ularni turli xil jihatlari bo‘yicha klassifikatsiyalash mumkin. Fizik masalalar shartlarini ifodalashiga qarab asosan quyidagi to‘rtta turga ajratiladi: matnli; eksperimental; grafik; suratli.

O‘z navbatida bulardan har biri yana miqdoriy (hisoblash uchun) va sifatiy (savollar tarzida) masalalarga bo‘linadi. Shu bilan birga masalalarni yana murakkablik darajalari bo‘yicha ham ajratish mumkin: yengil, qiyin, ijodiy va h.k.

Fizikani o‘qitish jarayonida ko‘pincha matnli masalar keng qo‘llaniladi. Bunday masalalarda masala shartlari matn tarzida beriladi. Shuningdek bu usulda yechish masalani yechish uchun zarur bo‘lgan qo‘shimcha ma’lumotlar va fizik doimiylar keltiriladi. Bunday masalalar yechish usuliga qarab hisoblash uchun masalalar (miqdoriy) va savol-masalalarga ajralib ketadi.

Savol-masalalarda biror hisoblashlar (miqdoriy) bajarilmasdan u yoki bu fizik jarayonni tushuntirish, berilgan sharoitda ushbu jarayon qanday kechishini ochib berish talab qilinadi.

Ko‘pincha bunday masalalar shartida sonlar ko‘rinishidagi ma’lumotlar berilmaydi.

Savol-masalalarda son qiymatlarining berilmasligi o‘quvchilarning e’tiborini, jarayonning fizikaviy mohiyatini ochishga qaratish imkonini beradi. Savol-masalalar odatda og‘zaki bajariladi.

Bundan grafik material mavjud bo‘lgan savol-masalalar mustasno. Masala javoblari ham og‘zaki tarzda yoki rasm tarzda bo‘lishi mumkin.

Savol-masalalarga savol ko‘rinishidagi grafiklar ham juda yaqin turadi. Bunday masalalarda odatda og‘zaki javob beriladi yoki yangi chizma chizilib javob chizma-rasm tarzida ham beriladi.

Bunday masalalarni yechish o‘quvchilarda e’tiborlilikni kuzatuvchanlikni va grafikni tushunish bilimdonlikni tarbiyalaydi.

Miqdoriy masalalar bu masalalar shunday fizik masalalarki ularga javobni hisoblashlarsiz topib bo‘lmaydi. Bunday masalalarda sifatiy tahlil ham muhim, ammo bunda asosiy e’tibor hisoblashlar bilan, jarayonning miqdoriy xarakteristikalari bilan olib boriladi.

Miqdoriy masalalar murakkablik darajasi bo‘yicha qiyin va sodda masalalarga ajratiladi.

Sodda masalalarga qiyin tahlillar talab qilmaydigan, hisoblashlari ham sodda bo‘lgan masalalar kiradi. Bularda bitta yoki ikkita harakat amalga oshiriladi. Miqdoriy masalalarni yechishda turli xil usullar ishlatilishi mumkin: algebraik, geometrik, grafik [2, B. 47-48].

Masala. 15 dona qarag‘ay g‘o‘lasidan yasalgan sol chuchuk suvda eng ko‘pi bilan qancha yuk ko‘tara oladi? Har bir g‘o‘laning hajmi 0,4m^3.

Bu masala Arximed qonuniga tegishli ekanligini tushungach, yuqorida aytganimizdek masalani savollar yordamida yecha boshlaymiz.

1. Sol g‘o‘lalarining umumiy hajmi qancha?

V=0,4·15 = 6m^3 V_{sol}= 6 m^3.

2. Solning massasi qancha? Jadvaldan 1m^3 yog‘ochning massasi 500kg ekanini topamiz. $M_{sol} = 500\frac{kg}{m^3}\cdot 6m^3 = 3000kg$ M_{sol}=3000 kg

3. Solning og‘irligi qancha?

$P = 9{,}8\frac{N}{kg}\cdot 3000kg = 29400N$ P_{sol}= 29400 N

4. Sol suvga butunlay cho‘ktirilganda siqib chiqarilgan suvning massasi qancha? Jadvaldan 1 $м^3$ suvning massasi 1000kg ekanligini topamiz.

$M_{suv} = 1000\frac{kg}{m^3}\cdot 6m^3 = 6000kg$ M_{suv}= 6000 kg

5. Siqib chiqarilgan suvning og‘irligi qancha?

$P_{suvв} = 6000kg\cdot 9{,}8\frac{N}{kg} = 58800N$ P_{suv} = 58800 N

6. Yukning og‘irligi F_{yuk}=58800N-29400N=29400N

F_{yuk} = 29400 N

Demak, sol 29400 N yukni ko‘tara olar ekan [3, B. 93].

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Kamenskiy S.Ye., P.V.Orexov. Fizikadan masalalar yechish metodikasi.
2. Evenchik.Ye., Shamin S.Ya., Orexov V.A. O‘rta maktabda fizika o‘qitish metodikasi.
3. Т. Ризаев, Б.Нуриллаев. Физикадан масалалар ечиш методикаси. ТДПУ.
4. www.ziyouz.com

ЕР ОСТИ СУВЛАРИНИНГ ЎЗГАРИШИНИ БАШОРАТ ҚИЛИШ МАСАЛАЛАРИ ВА ВЕРТИКАЛЬ ДРЕНАЖНИ ХИСОБЛАШНИНГ СОНЛИ УСУЛЛАРИ

Алламуратов Шарапатдин Зиуатдинович
Тошкент ахборот технологиялари университети Нукус филиали
Физика математика фанлари номзоди, доцент
Шамуратова Маржан Жолдасбаевна
Тошкент ахборот технологиялари университети Нукус филиали
катта ўқитувчиси
https://doi.org/10.5281/zenodo.7299606

Аннотация: Ушбу мақолада ер ости сувларининг ўзгаришини башорат қилиш, атаб айтганда вертикаль дренажни хисоблашнинг А.А.Самарскийнинг бошланғич ва чегаравий шартларда локаль-бир ўлчамли сонли усули қўлланилган ва сув сатхларини хисоблаш формулалари келтириб чиқарилган.

Калит сўзлар: фильтрация, ер ости сув сатхи, туйинмаслик коэфициенти, дренаж.

Аввал $$\frac{\partial}{\partial x}\left[k(H-b)\frac{\partial H}{\partial x}\right]+\frac{\partial}{\partial y}\left[(H-b)\frac{\partial H}{\partial y}\right]=\frac{\mu}{\gamma}\frac{\partial H}{\partial t}-\frac{q}{\gamma} \qquad (1)$$

тенгламани D-бир боғламли соха учун ечиш масаласини қараймиз. Кейин (1) тенгламани скважинада берилган сарфланишда D-кўп боғламли соха учун ечиш масаласини қараймиз [1,3].

1. (1) тенгламада бошланғич ва чегаравий шартларда улчамсиз ўзгарувчиларга қуйдаги формулалар ёрдамида ўтамиз.

$$H^* = \frac{H}{H_{хар}},\quad k^* = \frac{k}{k_{хар}},\quad q^* = \frac{qL^2}{k_{хар}H_{хар}^2}$$

$$\xi = \frac{x}{L},\quad \eta = \frac{y}{L},\quad \tau = \frac{k_{хар}H_{хар}}{\mu_{хар}L_{хар}},\quad Q^* = \frac{Q}{k_{хар}H_{хар}^2} \qquad (2)$$

бу ерда $H_{хар}$, $k_{хар}$, $\mu_{хар}$ ва L- характерлик сатх, фильтрация коэффициенти, сув қайтариш ёки туйинмаслик коэффициенти, узунлик; τ-ўлчамсиз вақт, Q^*-ўлчамсиз дебит. (юлдузча билан ўлчамсиз чамалар белгиланган). Характерлик узунлик сифатида D-соханинг диаметрини олиш мумкин.

Ўлчамсиз миқдорда (1) тенглама қуйдагича ёзилади:

$$\frac{\partial}{\partial \xi}\left[k^*(H*-b*)\frac{\partial H^*}{\partial \xi}\right]+\frac{\partial}{\partial \eta}\left[k^*(H^*-b^*)\frac{\partial H^*}{\partial \eta}\right]=\mu^*\frac{\partial H^*}{\partial \tau}-q^*. \qquad (3)$$

Бошланғич ва чегаравий шартлар ҳам ўлчамсиз кўринишга турланади. Агар k ва μ- барча фильтрация сохаси буйлаб ўзгармас ва сув ўтқазмас туб қатлам горизонталь бўлса (3) тенглама оддийлашади:

$$\frac{\partial}{\partial\xi}\left(H*\frac{\partial H^*}{\partial\xi}\right)+\frac{\partial}{\partial\eta}\left(H^*\frac{\partial H^*}{\partial\eta}\right)=\frac{\partial H^*}{\partial\tau}-q^*. \qquad (4)$$


Кейинчалик фақат ўлчамсиз тенгламалар билан иш кўрганимиз учун (3) ва (4) да юлдузчаларни олиб ташлаймиз [2].

(4) тенгламани чекли айирмалар усули билан ечиш учун D-соха Г-чегараси билан (расм-1) координата ўқларига параллель 0ξ ва 0η чизиқлари ва h-одим билан ω_h - тўрли сохага ажралади.

Шундай қилиб Г-чегараси билан D-соха қуйдагича тўрли соха билан ажралади.

$$\omega_h=\omega_h^*+\omega_k^*+\gamma_k$$

бу ерда ω_h^*-регуляр нуқталар, у дегани қушни тўрт нўқта h-одимда D-соха ичида ёки чегарада ётади дегани; ω_k^*-регуляр эмас нуқталар тўплами бўлиб у дегани қушни тўрт нуқтанинг камида биттаси D-сохада ётмаса; γ_k-Г чегара билан 0ξ ва 0η тўғри чизиқларининг кесишмасида ётган нуқталар. (расм-1).



Расм-1

*-регуляр, •-чегаравий, °-регуляр эмас нуқталар

Оддийлик учун D-фильтрация сохасини ёпувчи ω_h-тўрли соха регуляр ва чегаравий нуқталардан иборат бўлсин. У ҳолда

$$\omega_h=\left\{(\xi_i=ih,\eta_j=jh);i=0,l_i;j=0,m_i\right\},$$

бу ерда l_i – лар ξ_i – чизиғидаги тугун нуқталар сони; m_i – лар η_j – чизиғидаги тугун нуқталар сони. У ҳолда $\xi_0, \xi_{l_i}, \eta_0, \eta_{m_j}$ – лар чегаравий, қолганлари эса регуляр нуқталар. (4) тенгламани ечиш учун А.А.Самарскийнинг локаль-бир ўлчамли усулини қуллаймиз. Унга кура Н-сатх $\tau = \tau_{k+1} = (k+1)\Delta\tau$ вақт ичида қуйдагича турланади.

$$\left.\begin{aligned} &\mu_\alpha \frac{\partial H_{(\alpha)}}{\partial \tau} = L_\alpha H_{(\alpha)} + q_{(\alpha)}, \\ &\tau_k \le \tau \le \tau_{k+1},\ \alpha = 1,2;\ q_1 + q_2 = q; \end{aligned}\right\} \qquad (5)$$

$$\left.\begin{aligned} L_1 H &= \frac{\partial}{\partial \xi}\left[k(H-b)\frac{\partial H}{\partial \xi}\right]; \\ L_2 H &= \frac{\partial}{\partial \eta}\left[k(H-b)\frac{\partial H}{\partial \eta}\right] \end{aligned}\right\} \qquad (6)$$

Унинг бошланғич ва чегаравий шартлари қуйдагича.

$$H_{(1)} = H(\xi,\eta,k\tau); \quad H_{(2)} = H_{(1)}(\xi,\eta,(k+1)\tau)$$

$$H(\xi,\eta,\tau)\big|_{\tilde{A}} = H_{\tilde{o}\grave{a}\eth},\quad \tau > 0,$$

$$\frac{\partial H}{\partial n}(\xi,\eta,\tau)\Big|_{\tilde{A}} = 0, \quad \tau > 0.$$

Шундай қилиб ҳар бир η_i –туғри чизиқ буйида (6) тенглама $\tau=\tau_k$ ($\alpha=1$), бошланғич шартта ечилади, кейин эса ҳар бир ξ_i –туғри чизиқ буйида (6) тенглама қайта ечилади. Бошланғич шарт учун $\tau=\tau_{k+1}$ ($\alpha=2$) га мос келувчи ҳозиргина топилган қийматлар олинади. Охирги қиймат (4) тенгламанинг $\tau=\tau_{k+1}$ даги ечими булади, бу ерда бошланғич шарт $\tau=\tau_k$ да олинади чегаравий масала одаттагидек бўлиб қолади.

(6) нинг ҳар бир тенгламасини σ_α- салмоққа эга икки қатламли олти нуқтали чекли айирмали схема билан аппроксимациялаймиз.

$$\mu_\alpha \frac{H_{(\alpha)k+1} - H_{(\alpha)k}}{\Delta\tau} = \Lambda_\alpha[\sigma_\alpha H_{(\alpha)k+1} + (1-\sigma_\alpha H_{(\alpha)k}] + \tilde{q}_\alpha, \qquad (7)$$

бу ерда

$$L_\alpha \square \Lambda_\alpha, \quad q_\alpha \square \tilde{q}_\alpha, \quad \frac{\partial H_{(\alpha)}}{\partial \tau} \approx \frac{H_{(\alpha)k+1} - H_{(\alpha)k}}{\Delta \tau},$$

$$\Lambda_1(H_k) = \frac{B_{i+\frac{1}{2};j,k} H_{i+1,j,k} - \left(B_{i+\frac{1}{2};j,k} + B_{i-\frac{1}{2};j,k} \right) H_{i,j,k} + B_{i-\frac{1}{2};j,k} H_{i-1;j,k}}{h^2}; \tag{8}$$

$$\Lambda_2(H_k) = \frac{B_{i,j+\frac{1}{2},k} H_{i,j+1,k} - \left(B_{i,j+\frac{1}{2},k} + B_{i,j-\frac{1}{2},k} \right) \cdot H_{i,j,k} + B_{i,j-\frac{1}{2},k} H_{i-1,j,k}}{h^2}; \tag{9}$$

$$B_{i,j,k} = K_{i,j}\left(H_{i,j+1,k} - b_{i,j}\right);$$

(10)

$$H_{i,j,k} = H(ih, jh, k\Delta\tau).$$

(11)

(7) схемалар кетма-кетлигини шартли турда $\Lambda_1^{(\sigma_1)} \to \Lambda_2^{(\sigma_2)}$ куринишда ёзиш мумкин. (7) ни ечиш учун итерацияли ҳайдаш усулини қуллаймиз [4]. Λ_α да $(H_{k+1})B_{i,j,k+1}$ ни $B_{i,j,k}$ га алмаштирамиз, у ҳолда (7) схема чизиқли бўлиб қолади. Унга ҳайдаш методини қўллаб масала ечимини $\tau = \tau_{k+1}$ да топамиз. Топилган $H_{i,j,k+1}$ қийматни $B(\xi, \eta, \tau)$ га қуйиб (7) масалани $\tau = \tau_{k+1}$ да қайта ечамиз. Ушбу жараён қуйдаги муносабат бажарилганча давом этамиз.

$$\max_{i,j \in \omega_h} \left| H_{i,j,k+1}^{(s+1)} - H_{i,j,k+1}^{(s)} \right| < \varepsilon, \quad \varepsilon > 0.$$

$\tau = \tau_{k+1}$ вақт моментида ҳар бир итерацион одимда ω_h –тўр сохаси тугунларида ер ости сув сатхини аниқлаш формулаларини келтирамиз.

(7) тенглама қуйдаги тенгламаларга тенг кучли.

$$H_{(1)i,j,k+1}^{(s+1)} = A_{i,j} H_{(1)i+1;j,k+1}^{(s+1)} + D_{i+1,j}; \tag{12}$$

$$H_{(2)i,j,k+1}^{(s+1)} = C_{i,j+1} H_{(2)i,j+1,k+1}^{(s+1)} + E_{i,j+1}; \tag{13}$$

бу ерда

$$A_{i+1,j} = \frac{\sigma_1 B_{i+0.5;j,k}}{\frac{\Delta\tau}{h^2} + \sigma_1 (B_{i+0.5;j,k} + B_{i-0.5;j,k}) - \sigma_1 B_{i-0.5;j,k} A_{i,j}}; \tag{14}$$

$$D_{i+1,j}=\frac{\sigma_1 B_{i-0.5;j,k}D_{i,j}+\frac{\Delta\tau}{h^2}H_{i,j,k}+(1-\sigma_1)\Lambda_1(H_{(1)k})}{\frac{\Delta\tau}{h^2}+\sigma_1(B_{i+0.5;j,k}+B_{i-0.5;j,k})-\sigma_1 B_{i-0.5;j,k}A_{i,j}};\qquad(15)$$

$$C_{i,j+1}=\frac{\sigma_2 B_{i,j+0.5,k}}{\frac{\Delta\tau}{h^2}+\sigma_2(B_{i,j+0.5,k}+B_{i,j-0.5,k})-\sigma_2 B_{i,j-0.5,k}C_{i,j}};\qquad(16)$$

$$E_{i,j+1}=\frac{\sigma_2 B_{i,j-0.5,k}E_{i,j}+\frac{\Delta\tau}{h^2}H_{i,j,k}+(1-\sigma_2)\Lambda_2(H_{(2)k})}{\frac{\Delta\tau}{h^2}+\sigma_2(B_{i,j+0.5,k}+B_{i,j-0.5,k})-\sigma_2 B_{i,j-0.5,k}C_{i,j}};\qquad(17)$$

Чегаравий шартлардан i=0 бўлганда, ҳар бир η_i- тўғри чизиқ буйидан ва j=0 бўлганда бўлганда ξ_i –туғри чизиқ буйидан $A_{1,j};D_{1,j};C_{h,j};E_{1,j}$ лар маълум. У ҳолда (14) ва (17) формулалардан барча $A_{i,j};D_{i,j};C_{i,j};E_{i,j}$ лар аниқланади. Кейинчалик ҳар бир η_i чизиқ буйида да $i=l_i$ бўлганда ва ҳар бир ξ_i чизиқ буйида $j=m_j$ бўлганда ва (12) ва (13) формулалардан кетма-кет

$$H^{(s+1)}_{l_i-1,j,k+1};.....H^{(s+1)}_{1,j,k+1};$$

$$H_{i,m_j,k+1};.....H_{i,1,k+1}.$$

сув сатхлари хисобланади.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Абуталиев Ф.Б.,Баклушин М.Б. и др. Эффективные приближенно-аналитические методы для решения задач теории фильтрации. - Ташкент: ФАН,1978.-244 с.

2. Алламуратов Ш.З.,Турақбаев М.,Зиуатдинов И.Об одном приближенно-аналитическом решении задачи фильтрации при площадном питании в ограниченной слоистой среде// материялы Республиканской научно-технической конференции. Нукус-2015, 21-апреля. С.356-357.

3. Бегматов А. К расчету систематического вертикального дренажа// МЖГ, 1966.-№3.-С.157-161.

4. Олейник А.Я. Фильтрационные расчеты вертикального дренажа. – Киев: Науково думка, 1978.-201 с.

ҲАРБИЙ ПРОФЕССИОНАЛ ФАОЛИЯТДА СУЗИШНИНГ СОҒЛИҚ УЧУН АҲАМИЯТИ

Бобомуратов Игорь Бахтиёрович
ЎР ҚК Академияси Жисмоний тайёргарлик
ва спорт кафедраси ўқитувчиси ҚКХ
https://doi.org/10.5281/zenodo.7302452

Аннотация: Ушбу мақолада ҳарбий хизматчиларнинг жисмоний тайёргарлигини ошириш хақида сўз юритилади. Мақолада уларнинг касбий фаолиятида жисмоний машқларнинг нақадар муҳим эканлиги таъкидланган.

Калит сўзлар: ҳарбий хизматчилар, жисмоний тайёргарлик, сузиш машқлар.

Аннотация: В данной статье рассказывается как повысить физическую подготовку военнослужащих. В статье подчеркивается важность физических упражнений по плаванию в их профессиональной деятельности.

Ключевые слова: военнослужащие, физическая подготовка, физические упражнения по плаванию.

Annatation: This article describes how to improve the physical training of military personnel. The article emphasizes the importance of physical exercise in their professional activities.

Key words: military personnel, physical training, physical exercises.

Мудофаа вазирлиги тизимидаги олий ҳарбий таълим муассасаларида соғлом турмуш тарзини шакллантириш, аҳоли саломатлигини мустаҳкамлаш, жисмонан соғлом, бақувват ва маънавий етук офицерлар авлодини тарбиялаш, уларда юқори билим ва услубий кўникмаларни ривожлантириш асосий вазифаларимиздан биридир. Юртбошимиз ташаббуслари билан жисмоний тарбия ва спортга берилаётган катта эътибор ва уни ҳаётга тадбиқ этилиши жисмоний тарбия ўқитувчилари, спорт мураббийлари зиммаларига ғоятда шарафли ва масъулиятли вазифалар юкламоқда. Ҳозирги кунда жуда жадал суръатларда мудофаа вазирлиги тизимидаги ҳарбий қисм ва муассасаларда очиқ ва ёпиқ турдаги сув хавзалари қурилиб фойдаланишга топширилмоқда. Ҳарбий-амалий сузиш машғулотларини ташкил этиш ва ўтказиш биринчи навбатда хавфсизликни, жароҳатланишнинг олдини олишни, чўкаётганларни қутқаришни, биринчи тиббий ёрдам кўрсатишни таъминлашда муҳим аҳамиятга эга.

Маълумки, сузиш жисмоний тарбиянинг бир туридир, ҳарбий амалий-сузиш эса жисмоний тайёргарлик фанининг бир бўлимидир. Сузишнинг

баданни чиниқтиришда ва соғломлаштиришда аҳамияти беқиёсдир. Чунки сувда сузганда кишининг бир неча эмас, балки барча мушаклар системаси ҳаракатга тушади, бинобарин, одам гавдасининг барча аъзолари мутаносиб ҳолда ривожланади. Гавданинг соғлом бўлиб ривожланишида, айниқса умуртқа поғанасининг қийшайиб қолишининг (скалилознинг) олдини олишда сувнинг аҳамияти катта. Ҳозирги кунда ҳарбий профессионал фаолиятнинг салбий таъсири остида кўпроқ умуртқа поғонаси касалликлари билан боғлиқ муаммоларга дуч келмоқдамиз. Шу билан бирга тез-тез шамолашнинг олдини олиш, иммунитетни кўтариш учун ҳам сузиш яхши воситадир. Сувда сузиш организмни чиниқтириш ҳисобланади. Чиниқтиришни дастлаб сув муолажаларидан бошлаш лозим.

Сув муолажаларини, хусусан унинг турларини мунтазам равишда ҳар куни, муайян шарт – шароитда эса соғликка қараб бажарилиши лозим. Сув муолажаларига сув ванналари, душ, баданни ҳўл сочиқ билан артиш, бошдан сув қуйиш, ҳўл чойшабга ўралишлар киради. Баданни ҳўл сочиқ билан артганда сув баданни тетик, бардам қилади, қон айланишини, модда алмашинувини оширади. Контраст душ қабул қилиш ҳам чиниқтиришнинг бир босқичидир, фақат бу ерда бир нарсага аҳамият бериш зарур, бу ҳам бўлса муолажани иссиқ сув билан тугатилишига эътибор қилишдир. Бу, айниқса эркаклар учун, алоҳида аҳамиятга эга ва келгусида баъзи органлардаги шамоллаш ҳолатларининг олдини олишга ёрдам беради.

Маълумки, мушаклар бош миянинг остки марказларидан қолган импульслар мазмунига, доимийлигига қараб, қисқаради ёки чўзилади. Мушакларнинг жадал қисқариб, жадал бўшашини физиологик алмашинув, йирик антогонистик мушакларнинг ўзаро келишиб ҳаракатланиши ва улар ҳаракатига мушакларнинг уйғун қўшилиши спортчининг сузишини тезлаштиради, вақтини тежайди. Тўғри, мушаклар тез суратлар билан зўр бериб қисқарар экан, у нисбатан тезроқ чарчайди. Аммо у қанча тез ҳаракатланса, юракка қон бориши шунча тезлашади, бу ходиса бизга физиологиядан маълум. Сузувчининг техникаси қай даражада сифатли чиқишини тайёргарлик вақтида, қувватини тежай билиш ва зўр куч талаб қиладиган эшиш ҳаракати пайтида ундан тежамкорлик билан фойдалана олиши хал этади. Бундан ташқари, сузиб кетаётганда мушакларни зўриқтириб таранглаштириш ҳам сузиш техникасини бузади, эркин нафас олиш имкониятини чегаралаб қўяди.

Сузиш техникаси деганда, ҳаракатларни мутаносиб равишда намоён қилиш тушунилади. Бу эса маълум ҳаракат коидаларига риоя килган ҳолда бўлади. Акс ҳолда оддий сувда чўмилувчилар сузишидан фарқи қолмай қолади. Бунинг учун, аввало, сузишнинг шакли, ҳаракат усуллари ва шу ҳаракатларнинг ўзаро қовушиши, мос келиши талаб этилади. Сузувчининг мунтазам равишда

«бир қолипга тушиб сузиш» табиатини эгаллаши бора —бора унинг индивидуал сузиш техникасига айланиб боради. Энди у ўзининг бутун ҳаракат ва функционал имкониятларини ўз техникаси асосида рўёбга чиқарадиган бўлади. Бу одатда, индивидуал техника дейилади. Индивидуал техника доимий равишда ривожлантириб, такомиллаштириб боришни талаб этади. Индивидуал техника қанчалик такомиллашса, у шунчалик енгил кўчадиган бўлиб боради ва янгидан - янги турлар устида машқ қилиш имконияти туғилади. Сузиш техникаси бир неча омиллар ёрдамида белгиланади. Буларга мақсадга йўналтирилганлик ва асосий вазифалар, сузиш шароити, асосий физик қонунлар, инсон танасининг анатомик тузилиши, организмнинг физиологик функциялари киради.

Сувнинг ёпишқоқлигини камайтириш учун унинг ҳароратини маълум чегарада ошириш зарур (25 — 26°). Сув ҳароратини янада ошириш тананинг хаддан исиб кетишига ва иш қобилиятини пасайишига олиб келади. Сувнинг хусусиятларидан яна бири - тўлқин ҳосил бўлишидир. Тўлқин ҳосил бўлиши сузувчи ҳаракатига қаршилик қилувчи куч ҳисобланади. Сузувчи ҳаракатланаётганда содир бўладиган тўлқинлар ўлчами сузувчининг техник тайёргарлигига боғлиқ бўлади.

Ҳозирги вақтда барча сузиш усуллари спортча (тўғри) ва спортча бўлмаган (нотўғри) сузиш усулларига бўлинади. Спортча сузиш усулларининг спортча бўлмаган усуллардан фарқи шундаки, спортча усулларда тананинг анатомик тузилишидан, организмнинг физиологик функцияларидан, гидростатика ва гидродинамика қонунларидан самарали фойдаланилади. Шундай қилиб, спортча сузиш усуллари ҳаракатларнинг шундай формаларидан ташкил топганки, булар йирик мускул группаларидан самарали фойдаланиш имконини беради, бўғимлар ҳаракатчанлигини оширади, организм барча системалари ва органлари фаолиятини ҳисобга олади, тўғри ритмик нафас олишни ўзлаштиришга ёрдам беради, мускулларни кетма — кет кучланиш ва бўшашишини ўзлаштириш, ишчи ҳаракатларни самарадорлигини оширади.

Ҳарбий-амалий сузиш машғулотлари шахсий таркибнинг ҳарбий-амалий сузиш кўникмаларини шакллантириш, сув ҳавзасида ўзини тута билиб, хатти-ҳаракатларини идора қила олиш сифатларини тарбиялаш ҳамда умумий чидамлилигини ривожлантиришга йўналтирилган. Мазкур машғулотлар фақат бўлинма командири раҳбарлигида ўтказилади. Унга эса сузиш қоидалари ва таълимот услубиятини яхши ўзлаштирган ҳарбий хизматчилар орасидан ёрдамчи тайинланади. Ҳарбий-амалий сузиш машғулотлари мазмунига эркин услубда сузиш, брасс усулида сузиш, ҳарбий кийимда қурол билан сузиш, сув остида узоққа сузиш, сув ҳавзасига сакраш, ғарқ бўлаётган кишига ёрдам бериш, якка ва бўлинма таркибида сузган тарзда сувли тўсиқларни енгиб ўтиш машқлари киради.

Ҳарбий-амалий сузиш бўйича биринчи машғулотда бўлинма командири бўйсунувчиларнинг сузишни билиш-билмаслигини текшириб кўриб, шахсий таркибни иккита гуруҳга, хусусан:

биринчи гуруҳ – сузишни билмайдиган ва суст тайёрланганлар;

иккинчи гуруҳ – моҳир сузувчилар, сузиш усулларидан бирини пухта ўзлаштирган бўлиб, 100 метрдан қисқа бўлмаган масофани сузиб ўтганларга бўлиб чиқади.

Бўлинма командири ҳар бир гуруҳ учун моҳир сузувчилар орасидан раҳбар тайинлайди. Биринчи, яъни сузишни билмайдиган ва суст тайёрланганлар гуруҳи бўлинма командири раҳбарлигида шуғулланади. Намойиш этиш жараёнида машғулот раҳбари сузиш қоидаларини, хусусан: тана ҳолати, оёқ, қўл, нафас олиш ҳаракатлари ҳамда оёқ ва қўл ҳаракатларини нафас олиш ҳаракатлари билан уйғунлаштиришни батафсил тушунтириб ўтади. Сузиш қоидалари ўзлаштирилган сари сузиш масофаси ва тезлиги ҳам ошириб борилади. **Ҳарбий кийимда қурол билан сузиш амаллари** шахсий қутқариш воситалари (қутқариш нимчаси, кўкракка тутиладиган қутқариш камари, эҳтиёт камари) қўлланилган тарзда ҳам, ҳарбий кийим, анжом-аслаҳа элементлари, қўл ости материалларидан тайёрланган қалқилар қўлланилган тарзда ҳам, сувда тутиш воситалари қўлланилмаган тарзда ҳам бажарилади.

Машғулотларни ташкил этиш ва ўтказиш услублари бўйича ўқув – тренировка жараёни иккига–ўргатиш ва тренировка жараёнига бўлинади. Ўргатиш – деганда ўқув жараёнининг шундай қисми тушуниладики, бунда энг асосий эътибор сузиш кўникмаларини эгаллаш вазифасига қаратилади. Агарда машғулот жараёнида функционал имкониятлар ва жисмоний сифатларни такомиллаштириш вазифалари етакчи ўринни эгалласа, у ҳолда бундай жараён спорт тренировкаси дейилади. Ўргатиш ва тренировка узлуксиз педагогик жараённинг икки томони ҳисобланиб, бир – бири билан узвий боғлиқ бўлади. Тренировканинг асосий воситалари бу жисмоний машқлардир. Бу машқлар икки гуруҳга: қуруқликдаги ва сувдаги машқларга бўлинади. Спорт тренировкасининг уч шакли мавжуд: гуруҳли, индивидуал, индивидуал ёндошган ҳолда гуруҳли шакллари.

Индивидуал тренировка турли классификациядаги сузувчилар билан ва юқори маҳоратли сузувчилар билан ўтказилади. Тренировканинг гуруҳли шакли эса сузувчиларнинг спорт тараққиётининг дастлабки босқичида қўлланилади. Индивидуал ёндошган ҳолда гуруҳли тренировка эса спортчилар машғулотларида қўлланилади.

Техник тайёргарлик – кўп миқдордаги мураккаб ҳаракатларни такомиллаштиришга, турли сузиш усулларида ҳаракатларни бажаришнинг индивидуал манерасини аниқлаш ҳамда ишланма беришга йўналтирилган.

Тактик тайёргарлик – масофаларда кучни тўғри тақсимлаш, рақиб билан масофада кураш олиб боришнинг турли воситаларини эгаллашни таъминлайди.

Аҳлоқий–иродавий тайёргарлик – спортчиларда зарур иродавий сифатларни: қийинчиликларни енгиб ўтиш, ғалабага бўлган иштиёқ, дадилликни тарбиялашга кўмаклашади.

Хулоса қилиб айтганда, ҳарбий-амалий сузиш кўникмалари курсантларда (тингловчиларда) сув ҳавзасида ўзини тута билиб, хатти-ҳаракатларини идора қила олиш сифатларини, сузиш ҳаракатининг амалларини вақтида бажара олиш қобилиятини ва сувда чидамлилик сифатини, уларнинг юқори руҳий-ҳолатини тарбиялайди.

Адабиётлар:

1. Сузиш дарслик 380 бет. ISBN 5-305-00022 М: Владос –Пресс Викулов А.Д.
2. Спортча сузиш 280 бет Джеймс Е.
3. Сузиш 127 бет Алешин Г.П.
4. Иглин А.В. Содержание комплексных занятий по физкультуре с использованием спортивных игр в системе военных довузовских образовательных организаций // Научное обозрение. Педагогические науки. – 2016. – № 6. – С. 65-80;

ТУТ ПАРВОНАСИГА ҚАРШИ ФЕРАМОН ТУТҚИЧЛАР АФЗАЛЛИГИ

Хайдаров Жаҳонгир
Ўсимликлар карантини ва ҳимояси илмий тадқиқот институти Фарғона филиали директори
Миржалол Мирзаахмедов
Ўсимликлар карантини ва ҳимояси илмий тадқиқот институти Фарғона филиали катта илмий ходими
Нозимжон Розиқжонов
Ўсимликлар карантини ва ҳимояси илмий тадқиқот институти Фарғона филиали тадқиқотчиси
https://doi.org/10.5281/zenodo.7299666

Аннотация: Маълумки, тут парвонаси (***Glyphodes pyloalis***) Республикамизда тут дарахтининг энг хавфли зараркунандаларидан ҳисобланади. Бу зараркунанда 1993 йилдан бошлаб, Ўзбекистоннинг жанубий вилоятида тарқала бошлаган, айниқса Сурхондарё вилоятида, кейинчалик Фарғона, Андижон, Наманган ва Қашқадарё вилоятларининг кўплаб туманларида тарқалиб, тутзорларга зарар етказиб пиллачиликнинг озуқа базасини кескин камайишига ва тутларнинг қуриб қолишига сабаб бўлмоқда.

Калит сўзлар: Тут, зараркунанда, пилла, тухум, личинка, ғумбак, имаго, капалак, дарахт, барг.

Ўзбекистон иқтисодида пиллачилик асосий сохалардан бири хисобланиб, бу сохага бўлган талаб ва эътибор жуда каттадир. Пилла ишлаб чикариш буйича Ўзбекистон жахонда юқори ўринни эгаллаб келмоқда.

Сифатли ва жахон андозаларига мос пилла етиштиришда ипак личинкасини озуқа базасини яратиш муҳим аҳамиятга эга. Ипакчилик кўплаб давлатларда энг самарадор соҳалардан бири бўлиб, жаҳонда ипак толасига бўлган талаб кундан – кунга ортиб бормоқда.

Жанубий Осиёдаги кўплаб ривожланган давлатлар юқори сифатли тола олиш максадида кенг кўламда илмий изланиш ишлар олиб бормокдалар. Хитой, Япония, Жанубий Корея ва бошка давлатларда пиллачилик қишлоқ хўжалигининг етакчи соҳаси бўлиб ҳисобланади.

Тут жуда кадимий дарахтлардандир. Хитойликлар бундан бир неча минг йиллар муқаддам тут барги билан ипак личинкаи боқиб, пилла етиштирганлар.

Ўрта Осиёда кўп асрлар давомида ипак личинкаи боқилишига қарамасдан ипакчиликнинг суст ривожланиши асосий сабабларидан бири унинг озуқа манбаининг заифлигидир.

Маълумки, тут парвонаси (***Glyphodes pyloalis***) Республикамизда тут дарахтининг энг хавфли зараркунандаларидан ҳисобланади. Бу зараркунанда 1993 йилдан бошлаб, Ўзбекистоннинг жанубий вилоятида тарқала бошлаган, айниқса Сурхондарё вилоятида, кейинчалик Фарғона, Андижон, Наманган ва Қашқадарё вилоятларининг кўплаб туманларида тарқалиб, тутзорларга зарар етказиб пиллачиликнинг озука базасини кескин камайишига ва тутларнинг қуриб колишига сабаб бўлмокда.

Маълумки, зараркунандани катта ёшдаги личинкаларни барг ва дарахт пўстлоклари орасида қишлаб чиққандан сўнг, баҳорда бу личинкалар ғумбакка айланади ва 15-20 кундан кейин эса капалаклар учиб чиқиб ўзаро чатишиб урғочлари тухум қўяди.

Зарарланган тут баргларининг орқа томонига урғочи капапаклари 2-8 тагача, хатто ундан ҳам кўп тухум тўпламларини тўп-тўп, якка ва жуфт-жуфт қилиб кўяди. Тухумларнинг ранги оқ сут рангда бўлиб юмалоқ формага эга бўлади.

Қўйган тухумлардан 6-7 кун ўтгач личинкалар чиқа бошлайди. Жонланиб чиккан личинкаларни тут баргидан ажратиш анча қийин бўлади. Тут парвонасининг ёш личинкалари жуда ҳам серхаракатчан бўлиб, тез орада битта тут баргидан бошқаларига тарқалиб тут баргини пастки тўқималарини еб, уни шикаслайди.

Тут барги япроғини устки ва пастки томони пўст билан қопланган, устки ва пастки пўсти оралиғида барг эти жойлашкан бўлади. Тут парвонаси личинкаси асосан шу барг билан озиқланади. Баргни устки пўсти хужайралари пастки пўсти хужайраларига нисбатан зичрок жойлашган ва шу сабабдан зараркунанда тут баргини пастки пўсти ва барг этини еб битиради. Натижада тут барги ўзининг устки барг пўсти билан юпқа парда кўринишида бўлиб қолади.

Тухумдан чиққан тут парвонаси личинкаларининг каттатиги 1-2 мм, бўлиб охирги ёшларида эса 18-20 мм. гача узунликда бўлади. Август ойида зараркунанданинг учинчи авлод личинкалари вояга етиб, улардан хосил бўлган ғумбаклардан капалаклар пайдо бўлади ва ойнинг охирида капалаклар тухум қуяди. Сентябр ойида тухумлардан личинкалар чиқиб, октябр ойининг бошларида личинкалар ғумбакга айланиб, улардан тўртинчи авлод капапаклари пайдо бўлади.

Бу капалаклар ўз навбтида тухум қўяди ва улардан ёш личинкалар пайдо бўлиб, личинка 5 авлодига айланади. Бу личинкалар октябр ойннинг 10-15 кунларидан ривожланиб, ноябр ойининг бошларида қишки диапаузага, яъни қишлашга кетади. Демак, тут парвонаси 1 йилда 5 та, жанубий вилоятларда эса 6 тагача авлод бериши мумкин.

Тут парвонаси факат тут дарахтининг, шу жумладан, шотут баргини ҳам асосий зараркунандаси ҳисобланади. Бу хашарот Ўрта Осиё минтақасида, шу жумладан, Ўзбекистон шароитида илгари учрамаган. Аммо адабиётларда тут парвонаси Ўрта Осиёда Тяньшан, Помир тоғларининг юқори зоналарида учраши ва ёввойи тут дарахтларини барги билан озиқланиши хақида маълумотлар бор (С.Алимухамедов 1997, Ш.Хужаев ва бошк.2001).

1994 йил кузда ва 1995 йил мавсумида Сурхондарё вилоятидаги 18,1 млн.туп тут дарахтининг 11,4 млн.тупи (62,8%), 3674 гектар майдондаги тут плантациясининг 2221 гектари (60,5%) тут парвонаси билан зарарланганлиги маълум бўлди. Шундан кўриниб турибдики, бу зараркунанда Республикамизнинг бошқа туман ва вилоятларига хам тезда тарқалиши эхтимолдан ҳоли эмас. Хақиқатан ҳам, 1999 йил мавсумида бу зараркунанда Фарғона, Андижон ва Наманган вилоятларининг барча жанубий хўжаликларида тарқалганлиги маълум бўлди. Парвонанинг тутга зарари шу даражада кучайдики, ҳатто август-сентябр ойларида айрим дарахтлар худди дефолиация қилингандек баргсиз бўлиб қолди. Бу айникса, Богдод, Риштон, Учкўприк, Данғара, Олтиариқ ва Кува туманларининг хўжаликларида яққол кузатилди.

Тут парвонаси тухум, личинка, ғумбак ҳамда капалак (имаго) фазаларини ўтайди. Тухуми оқ, юмалоқ шаклда, тухумдан чиққан личинкалари 2-4 мм, ўрта ёшдаги личинкалари 10-12 мм гача ва катта IV-V ёшдаги личинкалари 17-22 мм гача узунликда бўлади. Личинканинг ранги, тут баргининг рангига мослашган бўлиб, яшил рангда бўлади.

Ғумбагининг узунлиги 8-10 мм, дастлаб оч қўнғир, сўнгра (ғумбак капалакка айланиши вактида) жигаррангда бўлади. Капалагининг қанотлари 15-17 мм узунликда, саргиш қўнғир рангда бўлиб, кундаланг кетган доғлари бор. Кейинги қаноти очрок тусда бўлади.

Зараркунанданинг кишлаб чиққан катта ёшдаги личинкалари ва ғумбакларидан апрел ойининг биринчи ва иккинчи ўн кунликларида капалаклар учиб чиқа бошлайди ва биринчи авлодга асос солади. Аммо, бу даврда хашарот миқдори кам бўлгани учун унинг зарари сезилмайди.

Тут парвонасининг иккинчи авлод капалаклари тут дарахтининг ипак личинкаи боқиш учун кесиб олингандан сунг ривожланаётган новдаси хамда кесилмай қолган шохларининг усиш нуқтаси ва ёш баргларига 1-3 донадан якка-якка холда тухум қуяди ва ривожлана бошлайди. Х,ар бир капалак 50-60 та тухум қўяди.

Тухумдан чиққан личинкалар баргда очиқ яшаб унинг устки қавати билан озикланади. Туртинчи ёшлардан бошлаб личинкалар баргнинг бир томонини ўрай бошлайди ва унинг ичида химояланган холатда бўлади. Озикланишни тугатган личинкалар ғумбакка айланади. Улар дарахт пўстлоғи, тупроқда ва

баргнинг ўзида ғумбакка айланадилар. Қизиғи шундаки, личинка ғумбакланишдан олдин ўзини ипча ёрдамида боғлаб қўяди. Агар бу ип кейинчалик узиб ташланса, унда ғумбакдан капалак учиб чика олмаслиги мумкин.

Тут парвонасининг зарари тут дарахтининг ривожланишида намоён бўлади. Унинг ривожланиши асосан ипак қурти боқиб бўлгандан кейин сезилади. Лекин айрим ҳолларда, масалан, Фарғона вилоятида, улар ипак қурти боқиладиган пайтда хам ривожланиб, натижада пилла ҳосилига салбий таъсир кўрсатади. Бу эса пилла хосилини кескин камайтириб юборади.

Тут парвонасининг кейинчалик ўсиб чиққан баргларни зараралаши ҳисобига новда узунлиги, йуғонлиги ва қиш совуғига чидамлилик даражаси пасайиб кетади.

Агар хар бир тут новдасида ўртача 1 та баркга ва 1та личинка тўғри келса, новданинг узунлиги 30 см.гача қискариши мумкин. Бундан ташқари, новданинг қиш совуғига чидамлилиги пасаяди. Назоратга нисбатан ва қишнинг қаттиқ келишига қараб, новда учлари 30-40% гача куриши мумкин. Янги новда узунлиги 50-60 см га қисқаради, барглар сони 20% га, унинг оғирлиги 21% га камаяди. Бу хол такрорланаверса, тут дарахти қуриб қолиши мумкин. (Рашидов 2001 й, Хужаев ва бошкалар, 2001 й).

Тут парвонаси Фарғона водийсида 5 авлод бериши маълум бўлди. Охирги авлод личинкаларининг ғумбаклари октябрнинг учинчи декадаси ва ноябр ойининг биринчи ярмида қишлашга кетади.

Баъзан куз ва қиш ойлари илиқ келган йиллари тут парвонасининг қишловга кетиши январ, феврал ва хатто март ойларигача давом этиши мумкин.

Тут парвонасининг биринчи авлодининг личинкалари ғумбакка айланиши июн ойининг охири ва II декаданинг ўрталаригача давом этади ва июн ойининг II декадасининг охиридан бошлаб имаголар пайдо бўлиб, шу декададан бошлаб тухум қўя бошлайди ва бу июн ойининг III декадасида хам давом этиб, шу декададан бошлаб кичик ёшдаги личинкалар тухумдан чиқиб, зарар етказа бошлайди. Тут парвонасининг тухумларидан июн ойининг охиридан бошлаб личинкалар пайдо булиб, июл ойининг I декадасининг охирида ва II декадасида катта ёшдаги личинкалар билан бир вақтда ғумбаклар хам кузатилади хамда II декаданинг охирида хамда III декадада тут парвонасининг имаголари билан бир қаторда тухум ва личинкалар пайдо бўлганлиги кузатилади.

Август ойида учинчи авлод личинкалари ва ғумбакларидан капалаклар пайдо бўлади. Август ойининг III декададасида капалаклар билан бир каторда уларнинг тухумлари хам кузатилади

Сентябр ойида тухум билан бир вақтда личинкалар хам кузатилиб, қисман тут парвонаси ғумбаклари хам учрайди. Сентябр ойининг охирида ғумбаклар

билан бир вақтда тўртинчи авлод капалаклари хам пайдо булади. Сентябр ойининг охирида ва октябр ойининг I ва II декадаларида капалаклар билан бир вактда тут парвонасининг тухумлари хам кузатилади. Октябр ойининг II ва III декадаларида личинкалар ривожланиб, ноябр ойининг I декадасида қишки диапаузага кетади.

2022-йилдаги Тут парвонасига қарши илмий кузатишларимизни Фарғона вилоятининг Учкўприк, Данғара, Бағдод туманларида олиб борилди. Бунда 4-хил фоизли ҳид шимдирилган ферамонлардан фойдаланилди. Ферамон дозалари I-25% , II-50%, III-75%, IV-85%да шимдирилган. Данғара туманига ўрнатилган ферамонларда бир кечада I-22 дона , II-27 дона, III-28 дона, IV-32 дона капалаклар илинди. Учкўприк туманига ўрнатилган ферамонларда бир кечада I-3 дона , II-6 дона, III-33 дона, IV-85 дона капалаклар илинди. Бағдод туманига ўрнатилган ферамонларда бир кечада I-16 дона , II-21 дона, III-29 дона, IV-37 дона капалаклар илинди. Юқоридаги рақамлардан кўриниб туриптики IV-85%да шимдирилган ферамонлардаги капалаклар миқдори бир неча баробар кўплиги кўриниб турипти.

Тут парвонасининг қуртларига қарши курашда зараркунанданинг иқтисодий хавфли сонидан келиб чиққан ҳолда кимёвий кураш чораларини ўтказиш лозим. Ҳашаротларга қарши кимёвий кураш чораларини ўтказишда зараркунанданинг яшаш тарзи, унинг тузилиши, биологияси, экологияси, ҳаётчанлиги, ташқи муҳитга мослашиши, бир мавсумда кўплаб авлод бериши кимёвий курашнинг самарадорлигига таъсир кўрсатувчи омиллар ҳисобланади.

Айрим вақтларда ошқозон ичак орқали кириб таъсир этувчи препаратлар, кемирувчи зараркунандаларга яхши таъсир этади, сўриб озиқланувчи зараркунандаларга таъсир кўрсатмайди, аксинча системали препаратлар сўриб озиқланувчи зараркунандаларга таъсир кўрсатса, кемирувчи зараркунандаларга кам таъсир кўрсатади. Лекин контакт таъсир қилувчи препаратлар кўплаб зараркунандалар, жумладан тут парвонасига ва уларнинг энтомофагларига ҳам яхши таъсир кўрсатади. Шу билан бирга тут парвонасига бу препаратлар, яъни контакт таъсир этувчи препаратлар кам таъсир кўрсатади. Чунки тут парвонасининг қуртлари баргларини ўраб ичига кириб олади. Шу сабабли бу препаратларнинг самараси кам бўлади.

Моспилан 20 %ли н.к 0,2 л/га 70 %таъсир кўрсатса, Бифстар 10%эм.к 0.4л/га сепилганда 85 %, Aikido-super 10% эм.к 0.25 л/га сепилганда 92% самарадорликка эришилди.

Кимёвий усулдан ташқари Олтинкўз ва Бракондан фойдаланиш мақсадга мувофиқ бўлади. Бунда экологияга салбий таъсир этувчи кимёвий препаратлардан воз кечилади. Айниқса энтомофаглардан фойдаланиш доривор

ўсимликларни ўстирувчи ва шифобахш чой ва дамламалар ишлаб чиқарувчи «Меҳригиё» хусусий корхонаси учун жуда самарали усул ҳисобланади.

Тут парвонасининг тухумлари, кичик ва катта ёшдаги қуртларига қарши биологик воситалардан фойдаланиб кураш чораларини ташкил этиш, бу аввало арзон ҳамда атроф муҳит мусаффолиги ва инсонлар саломатлигига ҳам мутлақо безарардир.

Биологик кураш тадбирлари доирасида тут парвонаси тухумларига қарши олтинкўз личинкаларини 1:10 ва 1:20 нисбатда қўллаш, кичик ёш, майда куртчаларга қарши олтинкўз личинкалариани 1:5 ва 1:10 нисбатда тарқатиш ижобий натижалар беради.

Шу билан бирга зараркунандаларнинг катта ёшдаги қуртларига қарши бракон паразитини 1:1 ва 1:5 нисбатларда (***Bracon sp***). 1:10 нисбатларда қўллашда ҳам самарадорлик юқори бўлади.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Алимухамедов С.Н. Тут парвонаси ва унга қарши кураш. Тошкент, 1997 й.
2. Абдуллаев У. Тутчилик. “Ўқитувчи”, 1982 й.
3. Ирисбоев Б.Б., Тожиева М., Юсупов А. Тут парвонаси ва унга қарши биологик кураш чоралари. “Қишлоқ хўжалик тараққиётининг илмий асослари” Тошкент, 2001 й.
4. Ирисбоев Б.Б., Болтаев Б.С., Кимсанбоев Х.Х. Тут парвонасига қарши энтомофагларнинг самарадорлиги. Тошкент, 2002 й.
5. Кимсанобоев Х. ва бошқалар. Ўсимликларни кимёвий ҳимоя қилиш. “Ўқитувчи”, 1997 й.

ЮҚОРИ ШИДДАТДА БАЖАРИЛАДИГАН ТАНАФФУСЛИ МАШҚЛАРНИНГ АҲАМИЯТИ

Абдукаҳор Эгамбердиевич Абдураҳманов
ЎР ҚК Академияси жисмоний тайёргарлик ва спорт кафедраси ўқитувчиси
ҚК хизматчиси, дос.
https://doi.org/10.5281/zenodo.7299678

Аннотатция: Ушбу мақолада ҳозирги кунда замонавий усулда жисмоний тайёргарлик ва спорт тадбирларини самарали ташкил этиш ва ўтказишга қўйилаётган талабларга мувофиқ янги услубларда тиббий ёндашув асосида услубий жиҳатдан тўғри ташкил этиш ва ўтказишда энг қисқа ва самарали йўлни танлаш, юқори натижага эриши сирлари, ҳамда юқори шиддатдаги танаффусли машқларнинг натижаларга ижобий ва ножўя таъсири тўғрисидаги маълумотлар ёритилган.

Мазкур мақола кенг оммага ва ҳоссатан жисмоний тарбия ва спорт мутахассислари учун мўлжалланган.

HIIT инглиз тилидан– *High-Intensity Interval Training* (юқори шиддатдаги танаффусли машқлар) юқори суръатдаги машқларни паст суръатдаги юкламалар билан ўзаро алмаштириб ўтказиладиган машқ қилдириш усубидир (масалан спринтдан сўнг енгил югуришга ўтиш в.ҳ.к.з.)



Шунинг учун **HIIT** барча учун зарур, бу қисқа вақт ичида барча жисмоний сифатларни сақлаб бориш ва ривожлантириш, меҳнат қобилиятини сақлаб қолиш, умуман олганда, меҳнат фаолияти ва бошқа вазифаларни мақсадга мувофиқ бажаришга жисмоний жиҳатдан тайёр туриш имкониятини яратади.

Иккинчи жиҳати замонавий жамиятда содир бўлаётган жараёгларда, кўплаб инсонларни четлаб ўтмаган ортиқча вазн гиподинамиясига қарши курашнинг бир воситасидир.

HIIT нафақат калория сарфини оширади, кучни оширади, чидамлиликка ўргатади, шу билан бирга метаболизмни тезлаштиради. Бундай комплексни амалга оширгандан сўнг, дам олиш вақтида ҳам метаболизм тезлиги ошади ва тана янада кўпроқ ёғларни ёқиб кетказади. Бундай машқлар нафақат вазн йўқотишга, балки мушакларни кучайтиришга ҳам ҳисса қўшади. Катта



ҳажмдаги мушакни истамайдиган ва чиройли ва ўрта релъефни афзал кўрганлар учун бу идеал машқлар вариантидир.

Жадал шиддатли танаффусли машғулотларнинг афзалликлари паст интенсивликдаги аэроб машқларидан фарқли ўлароқ, метаболик реакцияни келтириб чиқаради (**метаболизм** организмдаги кимёвий реакциялар –модда алмашинуви, улар икки гуруҳга бўлинади: катаболизм ва анаболизм - маълумот учун) ва у нафақат машқ қилиш давомида, балки машғулот тугагандан сўнг икки-уч кун давомида таъсир этиши мумкин, бу эса озишга, машакларни мустаҳкамлашга ва чидамлиликни ошишига хизмат қилади. Юқори изчиллликда машғулотдан сўнг юқори калориялик углеводларга бой фасфуд билан овқатланганда ҳам тана ҳолати салбий тамонга ўзгармаган.



Юқори шиддатли танаффусли машғулотлар билан шуғулланаётганда, оддий углеводларга бой юқори калорияли тезкор овқат билан таомланганда ҳам тана таркиби ёмон томонга ўзгармади. Кам интенсивликдаги кардио озишнинг энг яхши усули эканлигига кенг ишонилади, бироқ, тажрибалар шуни кўрсатадики, аэроб машғулотларда энергия манбаи сифатида ёғдан фойдаланилсада, аеробик машғулотлар танаффусли изчил машғулотларга қараганда бир неча баравар кам самаралидир.

ТАБАТА - бу юқори изчилликдаги танаффусли машғулотнинг (**HIIT**) бир шаклидир. Уни доктор Изуми Табата 1996 йилда конкида учиш бўйича Япония терма жамоасига бош мураббий этиб тайинланганида ихтиро қилган. Токиодаги миллий фитнес ва спорт институтидаги ҳамкасблари билан биргаликда у тадқиқот ўтказди ва унинг давомида у спортчиларни икки гуруҳга бўлди ва ҳар бирига алоҳида машғулот режасини берди.



А гуруҳи ҳафтасига **беш кун**, **60 дақиқа** давомида ўртача изчилликда машқ қилишди.

Б гуруҳи юқори интенсив машқларни ҳафтада **тўрт кун**, атиги **4 дақиқа** давомида бажарди. Ҳар икки гуруҳ ҳам олти ҳафта давомида кузатилган.

Тадқиқот натижалари Медисине анд Ссиенсе ин Спортс анд Эхерсисе журналида чоп этилди. **Б** гуруҳидаги юқори изчилликдаги машғулотлар аэроб ва анаэроб имкониятларга кўпроқ таъсир кўрсатиши аниқланди. Шу билан бирга, одатий режим спортчиларнинг анаероб тизимига деярли таъсир кўрсатмади. Ажабланарлиси шундаки, **тўрт дақиқалик танаффусли машғулотлар ўртача тезликда 60 дақиқа машқ қилишдан кўра самаралироқ эди.**

Юқори шиддатли машқлари танадаги ёқилғи сифатида углеводларга таянади юрак уриши максимал кўрсатгичнинг 70% ошгандан сўнг асосан углеводларни сарфлашни бошлайди.

Бел мушакларини мустаҳкамлаш машқлари.

Мунтазам равишда жисмоний машқлардан фойдаланиш биринчи навбатда инсоннинг таянч ҳаракатланиш аппаратини мустаҳкамлайди, суяклар мустаҳкамлигини, қалинлашувини ва узайишини таъминлайди, пайларнинг эгилувчанлиги, чидамлилигини оширади, мушакларнинг ўсиши ҳамда мустаҳкамланишига сабаб бўлади.

Бел мушакларини мустаҳкамлаш учун кунига профлактика ва даволаш машқларини 10-15 дақиқа давомида бажариш тавсия этилади.

Хулоса сифатида айтишимиз мумкинки юқори шиддатда бажариладиган танаффусли машқларнинг аҳамияти қуйидагилардан иборат:

1. Вазнни тез ва салбий оқибатларсиз кетказишда ҳам юқори изчилликдаги жадал машқлар самарали ҳисобланади

2. Танаффусли машқ қилдиришнинг энг кучли жиҳати шундаки, у узоқ вақт давомида максимал юрак уриш тезлигига яқин машқ қилиш имконини беради, чунки у танаффусларга бўлинади.

3. Сиз паст суръатдаги 40 дақиқада оладиган юкламани 4 дақиқада олишингиз мумкин.

4. Организмда (метаболизм) модда алмашинувини яҳшилайди ва бу жараён уч кунгача давом этади.

5. Фақатгина бу машқлар билан юрак қон томир тизимида касалликлари (юрак ишемияси, гипертония, қандли диабет касаллиги ва бошқалар) бўлмаган шахслар шуғулланиши мумкин.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. М.Ж. Абдуллаев “Енгил атлетика” Тўсиқлар оша югурувчиларни умумий, махсус жисмоний тайёргарлигини ошириш ва ўргатиш услубияти. Ўқув қўлланма. Бухоро. “Дурдона” – 2013 йил.

2. Ж.Е. Фирилева,А.Н.Кислый Прикладная и оздоровительная гимнастикаС.Петербург, 2012.

3. И.С.Барчуков Жисмоний тарбия ва спорт назария ва методикаси Москва, 2015.

4. Г.Н.Озолин книга “Настольная книга тренера” Наука побеждать. Москва, 2010.

O‘ZBEK TILIDA “BAXT” KONSEPTINING IFODALANISHI

Gullola Sobirova Qutbiddin qizi
Andijon davlat Pedagogika instituti
O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi magistranti
Ilmiy rahbar: **f.f.d. F. Usmonov**
https://doi.org/10.5281/zenodo.7299683

Abstract: This article is devoted to the realization of the concept of "happiness" in the Uzbek language using various lexical units. We know that one of the most important units of cognitive linguistics and linguoculture is the concept. Today, it is attracting the attention of many researchers.

Key words: Concept, happiness, linguoculturology, lexical units

Annotatsiya: ushbu maqola o‘zbek tilida «baxt» konseptining turli leksik birliklar yordamida voqealanishiga bag'ishlangan. Bizga ma’lumki, kognitiv lingvistika va lingvomadaniyatning muhim birliklaridan biri “konsept” hisoblanadi. Bugungi kunda u ko‘plab tadqiqotchilarning diqqat-e'tiborini o‘ziga qaratib kelmoqda.

Kalit so‘zlar: konsept, baxtiyorlik, lingvomadaniyat, leksika, kognitiv tilshunoslik,

Konsept terminini tahlil qila turib, tadqiqotchilar ushbu xulosaga kelishdi: Konsept nafaqat ierarxik tizimning lingvomadaniy sohalariga asoslanib qolmay, balki biror bir xalq madaniyatini o‘zida aks ettiradi. "Kontsept" - insonning bilim va tajribasi namoyon bo‘ladigan va u bilan oz faoliyatini ko‘rsatadigan abstrakt birlikdir[1].(7,p. 603)

Yuqoridagi fikrlardan kelib chiqib, o‘zbek tilidagi “Baxt” konseptini kognitiv nuqtayi nazaridan tahlil qilamiz. O‘zbek tilining izohli lug'atida «Baxt» atamasiga quyidagicha ta'rif berilgan[2]: Baxt [f. taqdir, nasiba, ulush]1. ijtimoiy. Kishining o‘z faoliyati natijalaridan, hayotda qo‘lga kiritgan yutuqlaridan to‘la qoniqishi, yashash tarzidan mamnunligi, muayyan maqsadga yetgani, orzu- umidining ushalishi sifatida namoyon bo‘ladigan ma’naviyaxloqiytushuncha.

2. Hayot (turmush)dan to‘la mamnunlik va bearmonlik holati; saodat qut. Mehnat - baxt keltirar. Maqol. Ona-yer nafasiga, mehriga, in’omlariga to‘yib yashashdan ortiq baxt bormi?“Saodat”.

3. Omad, tole; iqbol. Uf, nima ish qilsam, ketga qarab ketadi, xolos, mening baxtim qursin. (Hamza, Tuhmatchilar jazosi.)

–Ana shu qizlar safida menga ham joy bordir, - deb o‘yladi Adolat. – Baxtimni bir sinab ko‘ray-chi?(I.Rahim, Chin muhabbat.)

Hamma gap peshonada, taqsir… Peshona shoʻr boʻlgandan keyin, unda baxt guli unadimi! (Gʻ.Gʻulom,Mashʼal.Baxtli)

1. Oʻz hayotidan mamnun, baxti kulgan; baxtiyor. Baxtli qiz.

Bunday baxtli yoshlik bir marta keladir. Zavqini surib qoling, aylanay. (P.Qodirov, Yulduzli tunlar.)

Ilohim, baxtli boʻl! Onangga,otangga rahmat, senga ish oʻrgatishibdi. (Oybek, Tanlangan asarlar.)

2. Shirin, bearmon. –Ha, mayli, - dedi xoʻrsinib [Qirmizxon], - Siz bilan oʻtkazgan onlarimni shu notavon umrimning eng baxtli damlari deb bilaman. (N.Aminov, Qahqaha.)

U bu uyda eng shirin, baxtli kunlarini oʻtkazdi. (S.Zunnunova, Koʻk chiroqlar.)

3. Tolei baland, omadi bor, omadli. Baxtli ovchiga choʻloq kiyik yoʻliqar. (Maqol.)

Aylanay, kuyov bola, baxtli yigit ekansiz, shunday odamlarga oʻgʻil boʻlibsiz. (“Mushtum”.)

4. Baxtiyor [f. baxt yor boʻlgan, baxtli]

Oʻz hayoti, toleidan mamnun, baxti kulgan; baxtli, saodatmand. Baxtiyor oʻzbek xalqi. Baxtiyor oila. Baxmal qirgʻoqlarni toʻldirib oqdi Baxtiyor elimning quvonchli sasi. (Gʻayratiy.)

Oyqiz issiq yuzini sevimli erining koʻksiga qoʻyib, qalbi quvonch bilan toʻlib-toshardi va oʻzini chindan ham baxtiyor his qilardi. (Sh.Rashidov, Boʻrondan kuchli.)

Xursand edi behad ikki yor, Xursand edi ikki baxtiyor. (H.Olimjon.)

1. Shirin, bearmon. Baxtiyor hayot. U kunlar Nazirqul uchun eng baxtiyor kunlar edi. (S.Ahmad, Hukm.)

Zokir uning Narimon bilan oʻtkazgan baxtiyor damlarini unutolmayotganini sezganda, juda rashki kelar va jerkib gapirardi. (P.Qodirov, Uch ildiz.)

2. Mamnun, shodon. Qaygʻusi yoʻq biror kunni koʻrmadim, Biror soat men baxtiyor boʻlmadim. (H.Olimjon.)

Matqovul baxtiyor edi Bugun qozon osilardi.(M.Ismoiliy, Fargʻona tong otguncha.)

Aʼzamjon baxtiyor, oʻz xotinining husnidan mast edi.(S.Ahmad,Ufq.)

Baxtiyorlik Oʻz hayotidan mamnunlik, xushbaxtlik, saodatmandlik; saodatli, shirin hayot.

Oilaviy baxtiyorlik. Ikkovining gul-gul yashnagan yuzlaridan baxtiyorlik nuri yogʻilib turar, koʻzlarida ehtiros chaqmoq chaqar, ulardan goʻyo bahor gullarining nafis hidi anqirdi… (S.Anorboyev, Oqsoy.)

Chehrasida oshkor baxtiyorlik bor edi.

«Baxt» konsepti oʻzbek milliy ensiklopediyasida quyidagicha voqealangan:

Baxt – ma’naviy –axloqiy tushuncha. Kishi o‘z faoliyati natijalaridan, hayotda qo‘lga kiritgan yutuqlaridan to‘la qoniqish, yashash tarzidan mamnunlik, muayyan maqsadga yetganlik, orzu-umidning ushalishi, bearmonlik holatisifatida namoyon bo‘ladi.

Baxt qadimgi davrda evdonizm falsafasining asosiy tushunchasi bo‘lgan. Uning vakillari baxtga hayotning asosiy maqsadi, kishilar intiladigan masrurlikka erishilgan holatning, shod-hurram bo‘lishning eng oliy ko‘rinishi sifatida qaraganlar. Aristotel, Epikur, Diogenlar ham shunday tushunganlar. Forobiy, Beruniy, Ibn Sino, Sa’diy, Navoiy kabi olim va mutafakkirlar ijodida bu mavzu muhim o‘rin egallagan. Zamonaviy o‘zbek adabiyotida ham bu mavzuga katta e’tibor berilmoqda.

Baxt nisbiy tushuncha, mutlaq baxt yo‘q. Baxtni qanday ma’noda tushunish shaxsning ijtimoiy o‘rniga, bilimi, yoshi, dunyoqarashiga bog‘liq. Baxt haqidagi kishilarning tasavvurlari ijtimoiy tuzum va undagi ijtimoiy munosabatlar majmuasi bilan uzviy bog‘liq. Chinakam baxtli bo‘lish uchun har bir shaxs erkin, teng, o‘z iste’dod va qat’iyatini har tomonlama namoyon qilishi, moddiy va ma’naviy ehtiyojlarini qondirish imkoniyatiga ega bo‘lmog‘i zarur.

Shuningdek, baxtga erishish uchun har bir shaxs jamiyatda, oilada o‘z o‘rnini topgan, burch va ma’suliyatni anglagan bo‘lishi lozim. Odam o‘z ongi, tafakkuri, dunyoqarashi, hatti-harakati, xulqi, aql-zakovati bilan baxtli bo‘lishuchun intilishi va kurashishi kerak. Inson o‘z taqdirini xalq, Vatan taqdiri bilan uyg‘unlashtirgandagina to‘la baxtli bo‘lishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Z.M.Magrufova O‘zbek tilining izohli lug'ati.M.-1981. 85b

2. Vorkachev S.G., Vorkacheva E.A. The concept of happiness in the English language: a significant component // Mass culture at the turn of the XX-XXI centuries: the man and his discourse. M .: Azbukovnik, 2003.S. 263-275.

3. Rakhmonova D.M. Introducing innovations in The Preschool Education System With Talented Children. Middle European scientific bulletin, ISSN 2694-9970.

4. Rakhmonova D.M. Ways to determine talented children in preschool education Academicia: ISSN: 2249-7137 vol. 10, issue 11, november 2020 impact factor: sjif 2020 = 7.13

5. Rajabboyevna A. N. Individualization in education and methods of improving teaching the english language //International Journal of Psychosocial Rehabilitation. – 2020. – Т. 24. – №. 1. – С. 91-96.

6. Alimova N., Radjabova M. THE ROLE AND IMPORTANCE OF INDIVIDUAL EDUCATION IN THE SYSTEM OF ORGANIZATION //Theoretical & Applied Science. – 2020. – №. 4. – С. 401-404.

7. Alimova N. R. IMPROVING TECHNOLOGY OF INDIVIDUALIZATION ON EDUCATION FOR STUDENTS OF TECHNICAL SPECIALTIES IN TEACHING ENGLISH //Theoretical & Applied Science. – 2019. – №. 12. – С. 352-355

8. Rajabboyevna A. N. Organization of English Lessons Based on Advanced Pedagogical Techniques //International Journal on Integrated Education. – Т. 3. – №. 3. – С. 41-45.

9. Alimova N. POSSIBILITIES FOR INDIVIDUALIZING TEACHING FOREIGN LANGUAGES IN A NON-LANGUAGE UNIVERSITY //European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol. – 2019. – Т. 7. – №. 12.

10. Nozima A. Content And Methods Of Individualization Of Teaching Activities //International Journal of Progressive Sciences and Technologies. – 2021. – Т. 25. – №. 1. – С. 50-53.

NUTQ TURLARINING PSIXOLOGIK TAVSIFLANISHI

Ismoilov Erkin Mengnimurotovich
Termiz muhandislik - texnalogiya instituti, o‘qituvchi
Eshqobilova Sarvinoz Mengnimurot qizi
Termiz davlat pedagogika instituti,
Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (maktabgacha ta’lim) ixtisosligi magistranti
https://doi.org/10.5281/zenodo.7299698

Annotatsiya: maqolada nutqning paydo bo‘lishi, nutqning fiziologik asosi, nutq turlarining psixologik tavsiflanishi verbal va noverbal nutq shakillari haqida fikr mulohazalar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: nutq, stereotip, Fizionomiya, imo-ishoralar, noverbal, verbal, mimika, pantomimika, monolog, diolog.

Nutq odamlarning asosiy aloqa vositasidir. U siz odam katta hajmdagi ma'lumotni qabul qila olmaydi va uzatolmaydi. Yozma nutqsiz, odam avvalgi avlodlarning odamlari qanday yashaganligi, ularning fikrlari va ishlarini bilish imkoniyatidan mahrum bo‘lar edi. Uning fikrlari va his-tuyg'ularini boshqalarga etkazish imkoniyati bo‘lmaydi. Aloqa vositasi sifatida nutq tufayli insonning shaxsiy ongi, shaxsiy tajribasi bilan cheklanib qolmasdan, boshqa odamlarning tajribasi bilan boyitiladi va kuzatuv va nutqdan tashqari boshqa jarayonlarga qaraganda, to‘g'ridan-to‘g'ri bilish amalga oshiriladi. sezgi orqali amalga oshiriladi: idrok, e'tibor, tasavvur, xotira va fikrlashga imkon beradi. Nutq orqali bir kishining psixologiyasi va tajribasi boshqa odamlar uchun mavjud bo‘lib, ularni boyitadi, rivojlanishiga hissa qo‘shadi.

Insoniyatda nutqning paydo bo‘lishigacha, imo-ishoralardan foydalanib kelgan. Qadimgi ajdodlarimizning nutqi va nutq faoliyati hozirgi zamon kishilarida qanday funksiyani bajarayotgan bo‘lsa, o‘sha davrda ham xuddi shunday vazifani ijro etgan. U davrlarda axborotlar, ma’lumotlar ko‘lami tor bo‘lgani tufayli insonlar noverbal nutqdan ko‘p davrlar muvaffaqiyatli foydalanib kelganlar [1, B.170].

Insonda nutq qachon paydo bo‘lganligi muammosini ko‘rib chiqsak, insonda ushbu ruhiy hodisaning paydo bo‘lishiga sezilarli ta'sir ko‘rsatgan bir qator fikrlarni ajratib ko‘rsatish mumkin. Bu erda boshlang'ich nuqta ish, to‘g'rirog'i, faoliyatning qo‘shma shakli hisoblanadi, buning natijasida aloqaga shoshilinch ehtiyoj paydo bo‘ladi. Filogenezda nutq dastlab faqat odamlar o‘rtasida bevosita aloqa vositasi, ular o‘rtasida lahzalik ma'lumot almashish vositasi sifatida harakat qilgan. Bu taxmin ko‘plab hayvonlarning aloqa vositalarini ishlab chiqqanligi bilan tasdiqlanadi. Misol uchun, shimpanzelarda biz nisbatan yuqori darajada rivojlangan nutqni topamiz, u

qaysidir ma'noda odamga o‘xshaydi. Biroq, shimpanze nutqi faqat hayvonlarning organik ehtiyojlarini va ularning sub'ektiv holatlarini ifodalaydi. Bu emotsional-ekspressiv iboralar tizimi, lekin hech qachon hayvondan tashqarida biron bir narsaning ramzi yoki belgisi emas. Hayvonlar tilida inson nutqi boy bo‘lgan ma'nolar va undan ham ko‘proq ma'nolar mavjud emas. Shimpanzelarning imo-mimik va pantomimik muloqotining turli shakllarida hissiy va ekspressiv harakatlar juda yorqin, shakl va soyalarga boy bo‘lsa-da, birinchi o‘rinda turadi.

O‘zbek millatida fikrni tasdiqlash uchun old tomonga bosh siltash bilan ifodalansa, xuddi shu ma’noni balgarlarda boshni sarak-sarak qilish anglatib keladi. Bir xalqda sanash boshmoldoqdan boshlansa, boshqasida jimjiloqdan, birisida barmoqlar bukilsa, ikkinchisida unday qilinmaydi.

Etnik stereotiplar asosida muayyan kechinmalarni, ma’lum axborotlarni shaxslararo munosabat jarayonida uzatish va qabul qilishda ifodalanuvchi tovushsiz, lekin ma’noli, mazmunli harakat turi imo-ishorali nutq deyiladi.

Yuz harakatlari (fizionomiya) yordamida insonni inson tomonidan idrok qilish, o‘zgalar fikriga javob qaytarish, tana a’zolari rangining o‘zgarishi hisobiga shaxslararo munosabatga kirishishda namoyon bo‘luvchi noverbal nutq turiga mimika deyiladi [1, B.170, 2, B.192].

Noverbal nutqni shartli ravishda quyidagi turlarga ajratish mumkin: 1) tovushsiz: a) imo-ishora, b) mimika d) pantomimika, e) daktiologik; 2) tovushli: a) exologik (aks-sado), b) signifikatsiya (shartli belgilar, signallar, modellar).

Og‘zaki nutq noverbal turkumdan keyin paydo bo‘lgan nutq turidan biri hisoblanadi va u shartli ravishda quyidagi nutq ko‘rinishlarini qamrab oladi: monologik, dialogik, poliologik, tashqi, ichki, ekspressiv, impressiv, lakonik (yig‘iq, qatra), affektiv (his-hayajon, jahl).

Nutqning ikki xil: dialogik va monologik turlari mavjud bo‘llib, ularning har qaysisi o ‘z xususiyatiga ega. Dialogik nutq shakli (ikki yoki bir necha kishining suhbati, savollar va uning javoblari) bu toMiq boMmagan (qisqa) javobdir. Dialogik nutqning asosiy belgilari—to liq bo‘lmagan, undov so‘zlardan iborat, aniq intonatsion manodorlik (ifodalash), imo-ishora va boshqalardir. Dialogik nutqda savol tuza olish va savol berish, eshitgan savoliga taalluqli javobni berish, kerakli e’tirozni bildirish, suhbatdoshining javobini tuzatish va toldirish, muhokama va nuinozara qilish, o ‘z fikrini asoslash va boshqalar juda muhimdir. Monologik nutq bir kishining nutqi bo‘lib, so‘zlovchidan keng, aniq, to‘liq, bog‘langan fikrni talab etadi. Monolog hikoy tushuntirish, so‘zlovchidan o‘z fikrini asosiy narsaga qaratishni, jonli, obrazli, his-hayajon bilan gapirishni talab etadi [4].

V. 1. Tixeyeva, A. Sh. Usova, A. M. M uxina, L. A. Penevskaya, M. M. Konina, O. I. Solovyova va boshqalarning bogianishli nutq sohasida olib borgan ilmiy tadqiqot ishlarida bolalarda boglanishli nutqni rivojlantirishda tarbiyachining

rahbarlik roliga katta ahamiyat beradilar. Ular: „Agarda bog‘ianishli nutqqa qaratilgan mashg‘ulotlar uzluksiz (sistemali) tarzda olib borilsa, unga tarbiyachi ongli ravishda rahbarlik qilsa, bolalarda o‘z fikrlarini bir-biriga bog‘lab gapirish malakasi rivojlanadi", degan fikmi bayon etadilar [3, B.190].

O‘zining hayotiy ma'nosiga ko‘ra nutq ko‘p funktsional xususiyatga ega. Bu nafaqat aloqa vositasi, balki fikrlash vositasi, ong, xotira, ma'lumot (yozma matnlar) tashuvchisi, boshqa odamlarning xatti-harakatlarini boshqarish va shaxsning o‘z xatti-harakatlarini tartibga solish vositasidir. Uning funktsiyalarining ko‘pligiga ko‘ra, nutq polimorfik faoliyatdir, ya'ni. turli funktsional maqsadlarida turli shakllarda taqdim etiladi: tashqi, ichki, monolog, dialog, yozma, og'zaki va boshqalar. Nutqning ushbu shakllari bir-biriga bog'liq bo‘lsa-da, ularning hayotiy maqsadi bir xil emas. Masalan, tashqi nutq, asosan aloqa vositasi, ichki - fikrlash vositasi rolini o‘ynaydi. Yozma nutq ko‘pincha ma'lumotni yodlash usuli sifatida ishlaydi. Monolog bir tomonlama, dialog esa ikki tomonlama ma'lumot almashish jarayoniga xizmat qiladi.

Tilni nutqdan farqlash muhimdir. Ularning asosiy farqlari quyidagicha. Til - bu odatiy belgilar tizimidir, uning yordamida odamlar uchun ma'lum ma'no va ma'noga ega bo‘lgan tovushlar birikmasi uzatiladi. Boshqa tomondan, nutq - bu yozma belgilarning mos keladigan tizimi bilan bir xil ma'noga ega va bir xil ma'noga ega bo‘lgan talaffuz qilingan yoki sezilgan tovushlar to‘plamidir. Til uni ishlatadigan barcha odamlar uchun bir xil, nutq alohida o‘ziga xosdir. Nutq nutqning ushbu xususiyatlari o‘ziga xos bo‘lgan shaxs yoki odamlar jamoasining psixologiyasini ifodalaydi, til o‘zi uchun o‘zi bo‘lgan odamlar va nafaqat tirik odamlar, balki yashagan barcha odamlarning psixologiyasini aks ettiradi. oldin va ushbu tilda gaplashar edi.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki nutq bu aloqa vositasi hisoblanib inson nutq orqali o‘zining emotsional holatini bildirishi muloqot qilishi mimkin. Inson paydo bo‘lganidan to hozirgi davrgacha insonning nutqi shakillanib bordi. Insoniyat paydo bo‘lishining dastlabki davrlarida imo – ishoralar orqali muloqot qilgan bo‘lsalar keyinchalik ovoz aparatining shakillanishi hamda psixologik rivojlanishi natijasida og‘zaki nutq shakillandi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. A.K.Shamshetova, R.N.Melibayeva, X.E.Usmanova, I.O.Xaydarov. Umumiy psixologiya. O‘quv qo‘llanma. - T.: «Barkamol fayz media», 2018. - 272 b
2. B.M. Umarov. Psixologiya. Darslik. -T., 2012.
3. Q.Shodiyeva. Nutq o‘stirish uslubiyoti: Pedagogik yo‘nalishdagi kasb-hunar kollejlarining maktabgacha ta'lim ixtisosligi talabalari uchun darslik Toshkent: „O‘qituvchi“ NMIU , 2008. - 304 b.
4. Р.С.Немов. Психология. Учебник. -М.: Владос, 2003. 1-т. 240 с

OGAHIY TARJIMASIDAGI SA'DIYNING "GULISTON" ASARIDA NUTQ FE'LLARINING LEKSIK VA SEMANTIK XUSUSIYATLARI

Medesheva Bibinur
ToshDShU lingvistika (dariy) mutaxassisligi bitiruvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.7299709

Annotatsiya: XIII asrda yozilgan pandnoma ruhidagi "Guliston" asari bir necha marotaba o'zbek tiliga o'girilgan. Maqolada XIX asrda Ogahiy tomonidan amalga oshirilgan tarjimada fe'l sistemasi tahlil qilinadi. Klassik dariy tilidagi mazkur asarning o'zbekcha tarjima matnida ishlatilgan nutq fe'llari, "demoq" fe'li, ifodalov fe'llari, nutqiy da'vat fe'llari, gapiruv fe'llari guruhi doirasida tahlil qilindi. گفتن fe'lining o'zbekcha tarjima variantlari tarjimonning o'zbek tili lug'at fondidan unumli foydalangani va mahoratini ko'psatadi. Eski o'zbek adabiy tilidagi *so'z aytmoq*, *so'z demoq* tipidagi birikmalar hozirgi o'zbek adabiy tilida deyarli uchramaydi. Tarjima manbadagi mazkur guruh fe'llarni o'rganish fe'l sistemasida sodda fe'llarning til taraqqiyotidagi o'rnini ko'rsatishga xizmat qiadi.

Аннотация: Дидактическое роизведение "Гулистан", написанное в XIII веке, несколько раз переводилось на узбекский язык. В этой статье мы проанализируем систему глаголов в переводе сделанным Огахи в XIX веке. В узбекском переводе персидского-таджикского произведения глаголы были проанализированы путем их классификации на малые группы, таких как глагол "говорить" (گفتن), глаголы выражения, глаголы прызва, глаголы речи. Тот факт, что глагол "говорить" (گفتن) переводится на узбекский язык несколькими способами, свидетельствует о том, насколько богат узбекский язык и словарный запас переводчика. В староузбекском литературном языке чем естественнее были соединения типа "сўз айтмоқ", тем естественнее и уместнее были соединения типа "сўз демоқ". Но эти употребления почти не встречаются в современном узбекском литературном языке. Изучение классификации глаголов в переводном источнике по малым группам помогает показать место простых глаголов в развитии языка в глагольной системе.

Abstract: The didactic work "Gulistan", written in the 13th century, was translated into Uzbek several times. In this article, we will analyze the verb system as translated by Ogahi in the 19th century. In the Uzbek translation of the Persian-Tajik work, the verbs were analyzed by classifying them into small groups, such as the verb "to speak" (گفتن), verbs of expression, verbs of ordering, verbs of the speech. The fact that the verb "to speak" (گفتن) is translated into Uzbek in several ways indicates how rich the Uzbek language and the vocabulary of the translator are. In the old Uzbek literary language, the more natural were the compounds of the type "so'z aytmoq",

the more natural and appropriate were the compounds of the type “so‘z demoq”. But these uses are almost never found in the modern Uzbek literary language. The study of the classification of verbs in a translated source in small groups helps to show the place of simple verbs in the development of the language in the verb system.

Kalit so‘zlar: Sa’diy, Ogahiy, “Guliston” asari, fe’l, sodda fe’llar, gapiruv fe’llari, ifodalov fe’llari, nutqiy da’vat fe’llari.

Ключевые слова: Саъдий, Огахи, произведение «Гулистан», простые глаголы, глаголы речи, глаголы выражения, глаголы прызва.

Key words: Sa’diy, Ogahi, “Gulistan”, simple verbs, verbs of the speech, verbs of expression, verbs of ordering.

Kirish. Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari borayotgan O‘zbekistonda mumtoz sharq adabiyoti namunalarini o‘zbek va boshqa tillarga tarjima qilish bilan bog‘liq sohalarda sezilarli yutuqlarga erishilmoqda. Ilm-fanda tariximiz va san’atimizga qanday munosabatda bo‘lib kelingani, hozirda bu munosabatlar qay tarzda kechayotgani, jumladan, mumtoz adabiyot namunalari tarjimalarining tadqiq etilishi hozirgi kunning muhim masalalaridan biri hisoblanadi. Zero, “Biz bobolarimiz merosini qancha ko‘p o‘rgansak, bugungi kunda ham bizni tashvishga solayotgan juda ko‘p savollarga to‘g‘ri javob topamiz. Bu bebaho boylikni qancha faol targ‘ib etsak, xalqimiz, ayniqsa, yoshlarimiz bugungi tinch va erkin hayotning qadrini anglab yetadi”[15].

Shu jihatdan “Guliston” asarining forsiydan turkiyga qilingan tarjimalarining asliyatga qay darajada mosligini aniqlash, muallif uslubiga xos leksik-semantik jihatlarning tarjimada aks etishini ochib berish dolzarb masalalardandir. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-son “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha “Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”, 2020-yil 20-oktabrdagi PF-6084-son “Mamlakatimizda o‘zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonlari, 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son “Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish”chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2020-yil 16-apreldagi PQ-4680-son “Sharqshunoslik sohasida kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish va ilmiy salohiyatni oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu maqola muayyan darajada xizmat qiladi. Mazkur qarorning ahamiyatli jihati shundaki, unda ta’lim tizimining barcha bosqichlarida chet tilini uzluksiz o‘rganishni tashkil qilish, shuningdek, o‘qituvchilar malakasini oshirish hamda zamonaviy o‘quv-uslubiy manbalar bilan ta’minlashni yanada takomillashtirish, zamonaviy pedagogik va axborot-kommunikatsiya

[15] Ўзбекистон Республикаси Президенти Олий Мажлисга мурожаатномаси. – Тошкент, 24.01.2020.

texnologiyalaridan foydalangan holda o‘qitishning ilg‘or uslublarini joriy etish, o‘sib kelayotgan yosh avlodning chet tillariga bo‘lgan qiziqishlarini yanada oshirish va o‘z navbatida, chet tillarida erkin so‘zlasha oladigan mutaxassislarni tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish, shu bilan bir qatorda, ularning jahon sivilizatsiya yutuqlari hamda jahon axborot resurslaridan keng ko‘lamda foydalanishlari, xalqaro hamkorlik va muloqotni rivojlantirishlari uchun sharoit va imkoniyatlar yaratish ko‘zda tutildi.

O‘zbek tili tarixini o‘rganish sohasida o‘tgan davr ichida bir qator muhim ishlar amalga oshirildi. Lekin hanuzgacha o‘zbek tilining ko‘p asrlik taraqqiyot davrlarini aks ettiruvchi, umumlashtiruvchi xarakterdagi tadqiqotlar yuzaga kelgani yo‘q. Mazkur maqolada XIII asrda yaratilgan Sa’diyning “Guliston”i va uning XIX asrdagi Ogahiy tarjimasida sodda fe’llarning leksik-semantik xususiyatlari o‘rganildi.

Asosiy qism. O‘zbek adabiy tilida fe’l ish-harakatning nomini bildiruvchi so‘z turkumi bo‘lib, sodda, qo‘shma, juft va takroriy fe’llarga bo‘linadi. Klassik dariy (hozirgi fors va dariy) tilida ham, o‘zbek tilidagidek, fe’llar bilan ifodalangan harakat tushunchasi zamon, mayl, nisbat, shaxs-son kategoriyalari bilan uzviy bog‘liq. Bulardan tashqari, fe’llar orqali yana harakatning o‘timli yo o‘timsizligi, bo‘lishli yo bo‘lishsizligi kabi ma’nolar ham ifodalanadi. Shuningdek, fe’llarning ot, sifat, ravish turkumlariga xos xususiyatlarga ega bo‘lgan harakat nomi, sifatdosh, ravishdosh shakllari ham bor. Fe’llar leksik-grammatik xususiyatlariga ko‘ra ikki asosiy guruhga bo‘linadi:

1) mustaqil fe’llar;

2) yordamchi fe’llar. Yordamchi fe’llar harakat bildirmaydi, ya’ni mustaqil ma’no ifodalamaydi. Ular turli grammatik ma’no ifodalash uchun yoki boshqa vazifada qo‘llanadi.

Fe’llar gapda, asosan, kesim vazifasida keladi.

Dariy (shuningdek, fors) tilida fe’llar tuzilishiga ko‘ra sodda (افعال ساده یابسیط*af’âl-e sâda yâ basit*), prefiksli (افعال پیشوندی *af’âl-e pêšwandi*) va qo‘shma (افعال مرکب*af’âl-e morakkab*) fe’llarga bo‘linadi. Hozirgi dariy tilida sodda va prefiksli fe’llar yasalmaydi[16]. Qo‘shma fe’llar yasalishi fe’l yasalishining boshqa usullarini siqib chiqargan[17].

Sa’diyning “Guliston” asarida ham yuqorida qayd etilgan uch turli fe’llar ishlatilgan bo‘lib, tanlab olingan matnda jami keltirilgan 80 ta fe’ldan 66 ta sodda, 14 ta prefiksli fe’l uchradi.

Quyida Ogahiy tomonidan tarjima qilingan “Guliston”dagi sodda fe’llarning leksik-semantik hamda grammatik jihatlari nutq fe’llari misolida tahlil qilindi. Nutq fe’llari, o‘z navbatida, *demoq* fe’li (گفتن), ifodalov fe’llari, nutqiy da’vat fe’llari

[16] Рубинчик Ю.А. Грамматика современного персидского литературного языка. – М.: Восточная литература, 2001. – С. 204.

[17] Рубинчик Ю.А. Основы фразеологии персидского языка. – М.: Наука, 1981. – С. 122.

(فرمودن) kabi kichik guruhlarga ajratildi. Materiallarimizda گفتن[goftan] fe'li – 158 marta, پرسیدن[porsidan] fe'li – 5 marta, فرمودن[farmudan] – 16 marta ishlatilgan.

O'rganilishlar shuni ko'rsatdiki, eng ko'p ishlatilgan گفتن[goftan] fe'li (tanlab olingan matnda zamon, shaxs-sonda tuslangan shaklida 158 marta uchradi) bo'lib, o'zbek tiliga qilingan tarjimada turlicha berilgan. Bu, o'z navbatida, o'zbek tilining boy leksik fondini ko'rsatadi.

Hozirgi o'zbek tilidagi *demoq* leksemasi o'zining bosh ma'nosida uch aktantli situatsiyani ko'rsatishi ma'lum: 1) nutq amali bajaruvchisi (*demoq* fe'lining agens valentligi), 2) nutq amalining o'zi (*demoq* fe'lining mazmun valentligi) va 3) nutq amali qaratilgan shaxs (*demoq* fe'lining adresat valentligi)[18].

Shuni aytish kerakki, eski o'zbek adabiy tilida *demoq* fe'li valentliklarining reallashuvi hozirgi o'zbek tilidan farq qilgan. Ogahiyning tarjimasi XIX asr ikkinchi yarmida amalga oshirilgan bo'lib, o'zida eski o'zbek adabiy tili normalarini mujassamlashtirgan.

Ifodalov fe'llari

Ifodalov fe'llarining ma'nosi nutq obyektini ko'rsatuvchi (nutq mazmunini konkretlashtiruvchi) semalar bilan xarakterlanadi. Bu jihatdan ular gapiruv fe'llariga o'xshaydi. Ifodalov fe'llari ham, gapiruv fe'llari kabi, biror narsa-hodisa to'g'risidagi nutq amalini bildiradi. Bu hol mazkur semantik guruhlarning farqi ular ma'nosidagi semantik elementlar sonida emasligidan dalolat beradi. Ifodalov va gapiruv fe'llarining farqi ular ma'nosining strukturasiga, ichki tuzilishiga tegishli. Nutq amalining protsessual tomonini, nutq amalining kechish yo'sinini tasvirlash gapiruv fe'llari ma'nosining muhim, yetakchi semantik elementini tashkil etadi. Ifodalov fe'llarining ma'nosida esa muhim, yetakchi semantik element nutq mazmunini konkretlashtirish, nutq obyektini ko'rsatishdan iborat.

O'zbek tilidagi *aytmoq* fe'lining ma'nolaridan biri "biron informatsiyani kimgadir bildirish" tushunchasidan iborat. Bu – *aytmoq* fe'lining bosh ma'nosi. Shuning uchun bu so'zni eshitganda yoki talaffuz etganda bizning ongimizda eng oldin mana shu ma'no aktuallashadi.

Ifodalov fe'llarining semantik yadrosi, identifikatori sifatida "aytmoq" fe'lini olish mumkin[19].

O'zbek tilida asosiy nutq fe'llaridan *demoq* fe'li *aytmoq* fe'liga eng yaqin fe'l hisoblanadi. Bu fe'l ham, *aytmoq* fe'li kabi, ma'lum narsa-hodisa to'g'risida xabar, ma'lumot, fikr ifodalash amalini bildiradi[20]. Nutq fe'lining ushbu turi ham turli zamonlarda, shaxslarda tuslanib qo'llanilgan:

aniq o'tgan zamon fe'li bilan:

[18] Қўчқортоев И. Сўз маъноси ва унинг валентлиги. – Т.: Фан, 1977. – Б. 79.
[19] Ko'rsatilgan kitob. – B. 100.
[20] Ko'rsatilgan kitob. – B. 101.

یکی از وزیران نیک محضر**گفت**…

Бир оқил вазири ***айди****…* ;

hozirgi-kelasi zamon fe’li bilan:

ای خداوند **میگوید**…

Эй подшоҳи олам, ул бечора ***айтурким****,…*;

o‘tgan zamon natijali fe’li bilan:

چنانکه خردمندان **گفته اند**…

…андоққим, хирадмандлар ***айтибдурлар****…*;

uzoq o‘tgan zamon fe’li bilan:

دهقان پسری یافتند بر آن صورت که حکیمان **گفته بودند**

Подшоҳ буюрди, то талаб қилиб бир деҳқоннинг ўғлин ҳакимлар ***айтған*** *суратда топтилар ва анинг ота-онасин чақириб,…*;

همی[hamê] tarixiy shakldagi old o‘tgan zamon davom fe’li bilan:

یکی از ملوک عرب شنیدم که متعلقان را **همیگفت** مرسوم فلان را چندانکه هست مضاعف کنید.

Эшитдумким, араб подшоҳларидин бири ўз одамлариға ***айтур эрдиким****: “Фалон кишининг муқаррарий вазифасин икки ҳисса қилинг, нединким, тун-кун эшигимизда ўлтуруб ҳамиша хизматға мунтазирдур*;

اتفاقا همان شخص براو گذشت و دیدش که با یاران **همی گفت**

Иттифоқо, ҳамул кеча ул азизнинг йўли анинг устидин тушуб, эшитдимким, ул золим қошидаги одамларға ***дер эрди***;

[be, bo] old qo‘shimchasining bir martalik ish-harakatni ifodalovchi vazifasi bilan:

این **بگفت** و برسپاه دشمن زد و تنی مردان کاری بینداخت

Бу сўзни ***айтиб****, ўзин душман сафиға урди ва кўб кишини ҳаёт маркабидин мамот туфроқиға тушурди*;

buyruq fe’li bilan:

به شاه **بگو** ازکسی توقع خدمت و احترام داشته باش که از تو توقع نعمت دارد. وانگهی شاهان برای نگهبانی ملت هستند، ولی ملت برای اطاعت از شاهان نیستند

Подшоҳға ***айтғилким****, иззат ва хизматни андоқ киши дий кўз тутсунким, ул марҳамат ва неъмат кўз тутғусидур ва яна улким, подшоҳ раъийят посбонлиқи учундур, аммо раъийят подшоҳ хизмати учун эрмастур.*

Asosiy nutq fe’llaridan *demoq* fe’li *aytmoq* fe’liga eng yaqin fe’l hisoblanganligi uchun ham asliyatda گفتن[goftan] fe’lini mutarjim “aytmoq” fe’li bilan bergan. Masalan:

حکیمی در آنکشتی بود، ملک را گفت: اگر فرمان دهی من او را به طریقی خامش گردانم. **گفت**: غایت لطف و کرم باشد

...аммо ҳамул кема ичида бир ҳаким бор эрди. Подшоҳга деди: "Агар рухсат берсанг, мен бир иш этиб ани хомуш қилурмен". Подшоҳ ***айди****: "Агар мундоқ қилсанг, бизнинг ҳақимизда ниҳоятсиз карам қилмиш бўлғайсен"*;

سرجمله حیواناتئ که شیرست و اذل جانوران خر و باتفاق خر بار بر به که شیر مردم در.

مسکین خر اگر چه بی تمیز است.

چون بار همی برد عزیز است

گاوان و خران بار بردار

به ز آدمیان مردم آزار

Айтурларким, ҳайвонотнинг сарвари шердур ва жониварларнинг залили эшакдур. Ҳама оқилларнинг иттифоқи била мардумозор шердин борбардор эшак яхшироқдур.

Bu misolda mutarjim nazmiy misrani nasriy shaklda tarjima qilganligini ko‘rishimiz mumkin. Shuningdek, asliyatda nutqiy ifodalov fe’li uchramagani holda, tarjimon nutqiy ifodalov fe’li bilan tarjima qilgan.

Nutqiy da’vat fe’llari

Nutqiy da’vat fe’llari nutq fe’llari semantik maydonining bir qismini tashkil etadi. Bu fe’llar kimnidir biror amalga, harakatga undash, majbur qilish uchun ishlatiladigan nutq turlarini bildiradi. Nutqiy da’vat fe’llar ma’nosidagi undash, da’vat qilish elementi ularni kauzativ fe’llar qatoriga kiritish imkonini beradi[21].

Quyida nutqiy da’vat fe’llarining asliyat va tarjima asarda berilishini ko‘rib chiqamiz.

فرمودن– *buyurmoq* fe’li bilan:

وزیران پدر را چه خطا دیدی که بند **فرمودی؟**

"Отангнинг вазирларидин на хато кўрдингким, аларни банд этдинг?"

Ushbu jumla tarjimasida asliyatda kelgan “buyurmoq” fe’li tushirib qoldirilgan.

گفتن– *demoq* fe’lining buyruqni ifodalashi:

Bu fe’l buyurish ma’nosida podshohlar nutqida ishlatilishi ma’lum bo‘ldi:

گفت: این گدای شوخ مبذر را که چندان نعمت به چندین مدت برانداخت برانید که خزانه ی بیت المال لقمه مساکین است نه طعمه ی اخوان الشاطین.

Подшоҳ ***деди****: "Бу гадойни уруб қувингларки, анча неъматни андак муддатда исроф била йўқ этибдурким, байтулмол хазинаси фуқаро ва масокиннинг луқмасидур.*

Buyruq ma’nosining [be, bo] old qo‘shimchasi bilan, ya’ni buyruq, shart-istak (aorist) mayli bilan ifodalanishi:

فقیر وارسته گفت :به شاه **بگو** از کسی توقع خدمت و احترام داشته باش که از تو توقع نعمت دارد. وانگهی شاهان برای نگهبانی ملت هستند، ولی ملت برای اطاعت از شاهان نیستند.

[21] Ko‘rsatilgan kitob. – B. 126.

*Дарвеш деди: "Подшоҳга **айтғилким**, иззат ва хизматни андоқ кишидий кўз тутсунким, ул марҳамат ва неъмат кўз тутғусидур ва яна улким, подшоҳ раъийят посбонлиқи учундур, аммо раъийят подшоҳ хизмати учун эрмастур".*

Keltirilgan misolda yana shu narsa e'tiborga molikki, asliyatda ikkita mustaqil gap bilan berilgan ma'noni aralash turdagi qo'shma gap bilan bera olib, o'z tarjimonlik mahoratini ko'rsatgan.

بفرمود طلب کردن. دهقان پسری یافتند بر آن صورت که حکیمان گفته بودند...

Подшоҳ буюрди, то талаб қилиб бир деҳқоннинг ўғлин ҳакимлар айтған суратда топтилар ва….

Gapiruv fe'llari

Gapiruv fe'llari nutq fe'llari semantik maydonining asosiy, markaziy leksik-semantik gruppalaridan biri hisoblanadi. Gapiruv amalini bildiradigan fe'llar ikkiga bo'linadi:

1) sof gapiruv amalini bildiradigan fe'llar;

2) gapiruv amali bilan birgalikda nutq mazmunini ham tasvirlab keladigan fe'llar.

Gapiruv fe'llaridan bir guruhining ma'nosida nutq jarayoni bilan bir qatorda nutq mazmuni ham tasvirlanadi. Bunday fe'llarning o'ziga xos xususiyati shundan iboratki, ularning ma'nosida nutq obyekti, nutq mazmuni to'g'risida ham ma'lum axborot ifodalanadi. Bunday fe'llar ma'lum obyekt, ma'lum hodisa to'g'risida gapirish, izoh berish, tushuncha, ma'lumot berish jarayonini bildiradi. Ko'rinadiki, bunday fe'llarning ma'nosi nutq jarayoni bilan bir qatorda nutq obyekti haqidagi axborotni ham o'z ichiga oladi. Nutq jarayoni bilan birgalikda nutq mazmunini ham tavsiflaydigan fe'llar: ma'nosi hikoya-bayon arxisemasi bilan xarakterlanadigan gapiruv fe'llari, ma'nosi lof-mubolag'a arxisemasi bilan xarakterlanadigan gapiruv fe'llari, ma'nosi safsata arxisemasi bilan xarakterlanadigan gapiruv fe'llari, ma'nosi hasrat arxisemasi bilan xarakterlanadigan gapiruv fe'llari, ma'nosi izoh-tavsif arxisemasi bilan xarakterlanadigan gapiruv fe'llari, ma'nosi mulohaza arxisemasi bilan xarakterlanadigan gapiruv fe'llari kabi turlarga bo'linadi.

Ma'nosi hikoya-bayon arxisemasi bilan xarakterlanadigan gapiruv fe'llarining asliyatda hamda tarjima manbada berilishi:

شنیدن– *eshitmoq, tinglamoq* fe'li bilan:

ملکزاده ای را**شنیدم** که کوتاه بود و حقیر و دیگر برادران بلند و خوبروی.

***Эшитдим**, бир подшоҳзоданинг қадди бағоят кўтоҳ ва сурати ҳақир эрди.*

Ushbu gapda fe'l o'z ma'nosida kelgan.

آن **شنیدی** که لاغری دانا
گفت بار به ابلهی فربه
اسب تازی وگر ضعیف بود
همچنان از طویله خربه

Деди *бир вақт бир ориқ доно,*
Семуз аблаҳга нуктайи марғуб.
Ки бедав от агарчи логардур.
Лек бордур семуз эшакдин хўб.

Yuqoridagi qit’ada شنیدن– *eshitmoq*, *tinglamoq* fe’li ayni o‘z ma’no bilan emas, *demoq* so‘zi bilan berilgan. Ma’lumki, hikoya qilish yoki tarjima qilishda bir xil so‘zlardan emas, sinonim so‘zlardan foydalanish yozuvchi, mutarjimning so‘z qo‘llay olish mahoratidan darak beradi. Bu bilan asl ma’noga putur yetmagan holda, tarjimon bo‘yoqdorlikni oshirishga harakat qilganligini ko‘rishimiz mumkin.

شنیدم که ملک را در آن قرب دشمنی صعب روی نمود

Эшитдимким, *иттифоқо, ҳамул овонда подшоҳга улуғ душман пайдо бўлуб, … .*

Bu misolda fe’l o‘z ma’nosi bilan berilgan.

سواران را به گفتن او تهور زیادت گشت و بیکبار حمله آوردند. **شنیدم** که هم در آن روز بر دشمن ظفر یافتند.

Анинг бу сўзидин барча лашкарнинг ғайрат ва таҳаввури зиёда бўлиб, барча бирдин иттифоқ била ҳамла уруб, душманга шикаст бериб, зафар топтилар.

Keltirilgan misolda asliyatda ishlatilgan “eshitmoq” fe’li tarjimasi tushirib qoldirilib, o‘zidan oldingi gapning uyushiq bo‘lagiga aylangan.

Quyidagi holatda esa, aksincha, asliyatda hikoya-bayon arxisemasiga oid so‘z o‘rniga دیدن[didan] – *ko‘rmoq* holat fe’lidan foydalanilgan:

یکی از ملوک را **دیدم** که شبی در عشرت روز کرده بود و در پایان مستی همی گفت:

Эшитдимким*, подшоҳларнинг бири кеча-ю кундуз май ичиб, маст бўлуб, айшу ишратға машғул эрди ва мастлик охирида бу байтни ўқур эрди.*

Ushbu tarjimaning asliyatdan mufassalroq qilinganiga e’tibor qaratsak. Asliyatda berilgan ma’noni Ogahiy to‘liqroq, o‘quvchiga tushunilishi oson bo‘lishi uchun uyushiq bo‘laklardan foydalanib, ma’noga aniqlik kiritgan.

کسی گفتش چه آفت است که موجب مخافت است؟ گفتا **:شنیده ام** که شتر را بسخره می گیرند

… ул ҳолда бир киши ани кўруб сўрдиким: “Мунча хавф ва суръат била қочмокингға на офат боис бўлди?” Тилку ***деди****: “Шерларни тутуб банд этмак учун кўб киши қасд этмишлар, анинг учун қочармен”.*

Bu misolimizda esa asliyat va tarjimada tafovut mavjud bo‘lib, bu bir necha o‘rinlarda ko‘rinadi. Avvalo, asliyatda ikkinchi gapning egasi ko‘rsatilmagan, ammo tarjimada gapning egasi bilan ya’ni “tulki” bilan berilgan. Asliyatda “tuya” berilgan, ammo tarjimada “she’rlar” deb berilgan. Bunda ikki jihat, ya’ni bir leksema boshqa leksema bilan, birlik esa ko‘plikda berilganligi bilan ko‘zga tashlandi. “Tuyani masxaralashmoqda” birikmasi o‘rniga esa “she’rlani tutishga qasd qilishibdi” birikmasi bilan tarjima qilingan. Buni mutarjimning asliyatdagi asarni o‘z ona tiliga

o‘girishda tushunarli bo‘lishi, xalqonaligini ta’minlash uchun asardagi hikoyatning umumiy ma’nosiga putur yetkazmagan holda, ma’nosi saqlab qolinib biroz o‘zgartirish kiritganligi bilan izohlash mumkin. Zero, yuqorida aytib o‘tganimizdek, mutaxassislar Ogahiy tarjimasi xalqonaligi bilan hamda tushunarli tilda yozilgani bilan boshqa tarjimalardan ajralib turishini ta’kidlashgan. Bunda hikoyatlar ichida qiyin so‘zlarni soddaroq so‘zlarga almashtirgani ham ta’kidlangan.

Shuningdek, keltirilgan misolda asliyatda ishlatilgan *eshitmoq* fe’li tarjima manbada tushirib qoldirilgan, uning o‘rnida *demoq* fe’li qo‘llanilgan.

گفت :این مناسبت حال من نگفتی و جواب سوال من نیاوردی .**نشنیده ای** که هر که خیانت ورزد پشتش از حساب بلرزد؟

*Ул менга деди: “Бу сўзни ҳолимга мувофиқ айтмадинг ва менинг саволимга лойиқ жавоб бермадинг, **нединким**, ҳар киши хиёнат қилса, ҳисобда қўли титраб уқубат кўрар”.*

Keltirilgan misolda asliyatda berilgan *eshitmoq* fe’li o‘rniga tarjimada boshqa fe’ldan foydalanilgan. Asliyatda *eshitmoq* fe’li misol keltirish, naql keltirishda foydalanilgan. Tarjimada ushbu fe’l o‘rnida “nedinkim” so‘zi qo‘llanilgan bo‘lib, misol keltirish uchun yordamchi so‘zdan foydalanilgan.

غافلی را **شنیدم** که خانه ی رعیت خراب کردی تا خزانه سلطان آباد کند،...

***Эшитдумким**, бир омил султоннинг хазинасини обод этмак учун раъйиятнинг уйин хароб қилур эрди.*

Keltirilgan misolda *eshitmoq, tinglamoq* fe’li asliyatda را rê ort ko‘makchisi bilan kelgan, chunki ushbu fe’l o‘timli fe’ldir. Tarjima matnda esa “shuni eshitdimki” yoki “shunday insonni eshitdimki” birikmasi tushirib qoldirilib, to‘ldiruvchi ergash gap bilan tarjima qilingan.

Ushbu jihatni quyidagi misolda ham ko‘rishimiz mumkin:

یکی از ملوک عرب **شنیدم** که متعلقان را همی گفت مرسوم فلان را چندانکه هست مضاعف کنید...

***Эшитдумким**, араб подшоҳларидин бири ўз одамларига айтур эрдиким... .*

Yana bir misol:

نشنیده ای که چه گفت آنکه از پرورده خویش جفابدید

***Эшитмадингмуким**, бир киши ўзининг парвариш қилган шогирдидин жафо кўруб на сўз айтибдур.*

کسی مژده پیش انوشیروان برد گفت: **شنیدم** که فلان دشمن تو را خدای عزوجل برداشت

گفت :هیچ **شنیدی** که مرا بگذاشت؟

*Бир киши Ануширвонга мундоқ хушхабар еткурдиким, Худойи таъоло фалон душманингни жаҳондин кўтарди. Ануширвон анга деди: “Ҳеч **эшитдингмуким**, Худойи таъоло мени жаҳонда доимий қўярму?”*

Bu jumlada esa fe’l o‘z ma’nosida va o‘z o‘rnida ishlatilgan hamda o‘zidan oldingi tushirib qoldirilgan “eshitmoq” fe’liga ishora qilib kelgan degan xulosaga kelishimiz mumkin.

وزیر گفت :ای پادشاه روی زمین ! آیا **نشنیده ای** که…

Вазир деди: “Эй подшоҳи олам, шул айтған сўзинг рост турур ва лекин ***эшитмадингизмуким****, дебдурлар… .*

Tarjimada kelgan “shul aytg‘an so‘zing rost turur” birikmasi asliyatda yo‘q. Tarjimada o‘zidan oldin kelgan jumla ya’ni podshoh so‘zini tasdiqlash, uni rad etmagan holda “haqiqat”ni anglatish uchun ushbu birikma vazir nutqidan aytilgan hamda keltiriladigan qit’a ham haqiqatga mosligini podshohga ta’kidlash uchun ushbu birikmani qo‘llashi o‘quvchiga oson tushunilishini ta’minlaydi.

Jumlada *eshitmoq* fe’li o‘z ma’nosida ishlatilgan.

آوردن [âwardan] – *olib kelmoq, keltirmoq* fe’lining hikoya-bayon arxisemasini ifodalashi:

آورده اند که سپاه دشمن بسیار بود و اینان اندک.

Дебдурларким*, душман лашкари бағоят кўб эрди.*

Keltirilgan misolda asliyatda kelgan *keltirmoq* fe’li *demoq* fe’li bilan tarjima qilingan. Shuningdek, tarjimada ularning o‘zi “kam”ligi tashlab ketilgan. Bunda so‘z o‘yini mavjud bo‘lib, “bag‘oyat ko‘p”ligidan o‘zlarining ularga nisbatan “kam”ligini anglab olish mumkinligi bilan izohlanadi.

Keltirmoq, olib kelmoq fe’li “demoq” fe’li bilan tarjima qilinib, hikoya-bayon arxisemasini bildirib kelishiga yana bir misol:

…و **آورده اند** که ظرافت بسیار کردن هنر ندیمان است و عیب حکیمان.

Ва яна ***дебдурларким****, кўб ҳазл ва зарофат қилмоқ надимларнинг ҳунари ва ҳакимларнинг айбидур.*

Lekin,

باری چند غوطه خورد، مویش را گرفتند و پیش کشتی **آوردند** به دو دست در سکان کشتیآ ویخت.

Уч навбат чўмгандин сўнг тортиб кеманинг олдиға ёвуқ ***келтурдилар.***

Mazkur misolda *olib kelmoq, keltirmoq* fe’li o‘z tarjimasi bilan berilgan.

Keltirmoq, olib kelmoq o‘z ma’nosi bilan tarjima qilingan:

…و تا تریاق از عراق **آورده شود** مار گزیده مرد بود

“… , то Ироқдин тарёқ ***келтургунча*** *йилон чақиб заҳар солған киши ўлғусидур”.*

Keltirmoq so‘zining kontekstda hikoya-bayon arxisemasini anglatishi:

آورده اند که نوشیروان عادل را در شکارگاهی صید کباب کردند و نمک نبود.

Келтурубдурларким, *бир кун Анушрвон шикоргоҳда эрди. Анинг учун бир сайдни кабоб қилмоқ тиладилар. Аммо туз йўқ эрди.*

Ushbu fe’lning hikoya-bayon arxisemasiga o‘tishi bilan *debdurlarki, ayturlarki* fe’llariga sinonim bo‘ladi. Demak, bir fe’l kontekstda “biror narsani keltirmoq, olib kelmoq” ma’nosida hamda “aytibdurlarki” ma’nosida omonim bo‘lishi kuzatiladi. Ushbu fe’l klassik dariy tilida o‘tgan zamon natijali fe’li bilan berilgan.

Xulosa. Maqolada Sa’diy “Guliston”i hamda uning Ogahiy tomonidan amalga oshirilgan tarjima manbasining birinchi bobi, ya’ni “Podshohlar siyrati zikrida turur” deb nomlangan bobda ishtirok etgan sodda fe’llar xususiyatlari hamda ularning tarjimada berilishi ustida izlanishlar olib borildi hamda quyidagi xulosalarga kelindi: Sa’diy eng ko‘p sodda fe’llardan foydalangan. Bu uning “Guliston”dagi kichik hikoyalarni qisqa va lo‘nda bayon qilish uslubiga mos keladi. Tanlab olingan matnda eng ko‘p ishlatilgan nutq fe’li گفتن [goftan] fe’li bo‘lib, tarjimada quyidagi fe’llar bilan berilgan:

demoq (debdurlar), izhor etmoq, aytmoq, javob bermoq, so‘ramoq, bayon etmoq, shukur qilmoq, so‘z aytmoq.

Nutq obyekti tasavvuri *aytmoq* fe’li ma’nosining asosiy, semantik muhim komponenti bo‘lgani uchun, bu fe’l obyektsiz nutq amali (nutq ko‘nikmasi, ma’lum tildan foydalanish uquvi kabilarga) nisbatan ishlatilmaydi. Masalan, o‘zbekcha *gapirmoq* birikmasidan o‘zbek tilini bilish, o‘zbekcha gapira olish ma’nosi anglashilsa, o‘zbekcha *aytmoq* birikmasidan ma’lum fikr, ma’lumotni o‘zbek tilida ifodalash ma’nosi anglashiladi. Asosiy nutq fe’llaridan *demoq* fe’li *aytmoq* fe’liga eng yaqin fe’l hisoblanadi. Bu fe’l ham, *aytmoq* fe’li kabi, ma’lum narsa-hodisa to‘g‘risida xabar, ma’lumot, fikr ifodalash amalini bildiradi. O‘zbek tilidagi *aytmoq* fe’lining hosila ma’nolaridan biri “kimnidir biron yig‘inga undovchi informatsiyani bildirish” tushunchasidan iborat. Bu ma’no mazkur so‘zning “biron informatsiyani kimgadir bildirish” ma’nosi asosida yuzaga kelgan. O‘rganilgan matnda o‘zbek tilidagi bu ma’nodan biroz chetlanib, hikoya-bayon semasiga o‘tganligi kuzatiladi. Tadqiq etilgan bob “Podshohlar siyrati turur” deb nomlangani va asosan podshohlik siyrati, odil podshohlik ishlari nasihat yo‘li bilan yozilgani uchun nutqiy da’vat fe’llari faol qo‘llangan. Ulardan buyurish ma’nosida فرمودن[farmudan] – *buyurmoq*, گفتن[goftan] – *demoq*, کوشیدن– [kushidan] *harakat qilmoq* fe’llaridan foydalanilgan. Nutq jarayoni bilan birgalikda nutq mazmunini ham tavsiflaydigan fe’llarni guruhlarga ajratganda, o‘rganilgan matnda ma’nosi hikoya-bayon arxisemasi bilan xarakterlanadigan gapiruv fe’llaridanآورده اند [âwarda-and] –*keltirubdilarki*,گفته اند [goftaand] – *debdurlarki*, میگفت [mêgoft] – *debdurki* kabi fe’llar uchraydi. Asliyatda گفتن– *demoq* fe’li bilan berilgan jumlalar, tarjima matnida hikoya-bayon arxisemasi bilan xarakterlanuvchi fe’llar guruhiga kiruvchi fe’llar bilan tarjima qilingan. Bu fe’llar quyidagilardir: *aytmoq, bayon etmoq, so‘zlamoq, so‘z aytqmoq*. Shuningdek, ma’nosi arz-hol arxisemasi bilan xarakterlanadigan fe’llarga oid *izhor etmoq* fe’li uchraydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Олий Мажлисга мурожаатномаси. – Тошкент, 24.01.2020.

2. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёев 2020 йил 16 апрелдаги ПҚ-4680 сон «Шарқшунослик соҳасида кадрлар тайёрлаш тизимини тубдан такомиллаштириш ва илмий салоҳиятни ошириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги қарори.

3. Алимова Х.З. Дарий тили. Морфология. – Т.: Тош.ДШИ, 2009. – 107 б.

4. Березин Ф.М. О парадигмах в истории языкознания XX в. // Линшвистические исследования в конце XX в. Сб. обзоров. – М.: ИНИОН РАН, 2001. – С 9-25, Головин Б.Н., Кобрин Р.Ю. Лингвистические основы учения о терминах. – М.: Высшая школа, 1987. – С. 103.

5. Муҳаммад Ризо Эрниёзбек ўғли Огаҳий. Асарлар. 9жилд. Огаҳий таржимасидаги “Гулистон” ва “Ҳафт Пайкар”. – Т.: Шарқ, 2019.

6. Қўчқортоев И. Сўз маъноси ва унинг валентлиги. – Т.: Фан, 1977. – 168 б.

7. Рубинчик Ю.А. Грамматика современного персидского литературного языка. – М.: Восточная литература, 2001. – 600 с.

8. Рубинчик Ю.А. Основы фразеологии персидского языка. – М.: Наука, 1981. –275 с.

9. Смирницкий А.И. Синтаксис английского языка. Изд. 2. – М.: УРСС, 2007.

IRSIYAT

Egamberdiyeva Marjona Xusniddin qizi
Toshkent kimyo texnologiya instituti Shahrisabz filiali o‘qituvchisi
Odilova Muxlisa Xusniddin qizi
3-kurs talabasi Toshkent kimyo texnologiya instituti Shahrisabz filiali
https://doi.org/10.5281/zenodo.7299714

Annotatsiya: Ushbu maqola irsiyat haqida bo‘lim genlar va genetik kodlar haqida ma’lumotlar bayon etilgan. Irsiyat ustida izlanishlar olib brogan olimlar ishlari haqida ham qisqacha yoritilgan va irsiyatning hayotimizdagi ajralmas o‘rni haqida so‘z borgan.

Kalit so‘zlar: irsiyat, metobolizm, genetika, morfologik, meyoz, xromosoma, oqsil sentizi, makro va mikro, DNK, mikrob, zamburug‘, genetik kod, hujayra, yadro.

Irsiyat bu- tirikorganizmlarning o‘ziga xos belgi, morfologik anatomik xususiyatlarining kelgusi avlodlarda namoyon etishqobiliyatdir. Bu orqali organizm o‘zidagi unsurlarni kelasi yoshorganizmda yetuk farmatlarni kashf etish bilan belgilanadi. Organizm oddiy va funksional izchillik, avlodlararo ketma-ketlikda o‘z aksini topadi. Ma’lum o‘xshashlik avlodlarning ma’lumbir sonida takrorlanib keladi. Metobolizm jarayonlarida antogenez bosqichlari yuz beradi. Irsiyat ajoyib fakt. Genetik unsurlar, genetika, o‘zgaruvchanlik irsiyat asosini tashki etadi. Allergenlar, polimergenlar irsiyatni undagi genetik unsurlar o‘zgarishini yaqqol aks ettiradi. Masalan, A gen B genga nisbatan irsiy ma’noli ya’ni takrorlanuvchi, ko‘p takrorlanishi mumkin, yoki aksincha bo‘lishi mumkin. B gen irsiy ma’noli A gen ustidan. Genetik kodda 61 ta triplit ma’noli 3 ta ma’nosizligi ta’kidlab o‘tilganligini bilamiz. Irsiyatda ham mening fikrimcha ma’noli va ma’nosiz genlar mavjud. Ma’noli genlar namoyon bo‘lganda ma’nosiz genlar ortga chekinadi, ya’ni bunda akssiz bo‘ladi. Ilmiy jihatdan bizda hujayra nazariyalarida xromosoma nazariyalari ham mavjud. Bir necha tadqiqotlar T.X.Morgan va uning xodimlari hayvonlar ustida ilmiy tadqiqotlar olib borishgan. Ularning jinsi, morfologik, anatomik xususiyatlarini xromosoma nazariyalari asosida isbotlab berganlar. Brijesd rozofiliyada meyoz bosqichlarida xromosomalarning ajralib ketmasligini, genlarning krossengovor bo‘lishini aniqladi. Bu haqiqiy genetik yutuq irsiyat qonunidir. Undan so‘ng T.M organishlari ham diqqatga sazovor. Irsiyatda dominant va retsessiv genlar xromosoma nuqtayinazaridan makro va mikro nuqtalarida tebranma harakatda bo‘ladi. Irsiyatga fiziologik jihatdan muhit ham ta’sir qiladi.

Irsiy belgilarni turg‘unligi mutloq emas, ya’ni ular to‘liqligicha saqlanib qolmaydi. Poleozoyerasida mavjud bo‘lgan ochiq urug‘lilarning hozirgi vakillarida

irsiyatning ma’lum qismini kuzatish mumkin. Irsiyatni boshqaruvchi va uni talqin etuvchi asosiy markaz bu yadrodir. U irsiyatni saqlaydi va yangi avlodlarga o‘tkazib beradi. Translyatsiyaning organizmda oqsil sintez qilish qobiliyatini kelgusi avlodlarda namoyon etish irsiyatning bugungi kundagi real unsurlaridan biridir. Genetik qurilmalar hujayra markazida sintez qilinib u yoki bu o‘xshashlikni namoyon etadi. Murakkab fenotiplarni genetik asoslarini tushunish uchun so‘ngi inovatsiyalar va genom usullaridan keng foydalanish asossiy irsyatni chuqur o‘rganishga yordam beradi. Genomlarda hukmronlik effektlari mavjud. Fenotipik va genotipik irsiyatni baholash akva kulturada qo‘llaniladigan simulyatsiya tadqiqotlari mavjud.

Olib borilgan tadqiqotlarning natijasiga ko‘ra, odamlarda taxminan 20 mingga yaqin gen mavjud. Bizning DNK, shu jumladan barcha genlarimiz xromosoma tuzilmalarida saqlanadi, bu yerda oqsillar DNK ni yadroda joylashishi uchun o‘rab oladi. Bizning hujayramizda 23 juft xromoso mavjud. Reproduktiv hujayralar tuxum va sperma har ikkalasi o‘rniga 23 ta to‘plamning har biridan tasodifiy bitta xromosoma oladi. Shundan urug‘langan tuxum odatdagi rivojlanish uchun zarur bo‘lgan 23 juftni o‘z ichiga oladi.O‘zgarishlar shundaki, genlar genning o‘z ishini odatdagidek bajarrishiga to‘sqinlik qilishi mumkin. DNKdagi ba’zifarqlar o‘z vazifalarini bajaraolmaydigan noto‘g‘ri hosil bo‘lgan oqsillarga olib kelishi mumkin. Ma’lumki irsiy o‘zgarishlar odamlarning ma’lum dori-darmonlarga qanday munosabatda bo‘lishiga yoki kasallikning rivojlanish ehtimoliga ta’sir qilishi mumkin. Genomdagi o‘zgarishlarni aniqlash uchun DNK ketma-ketligi aniqlanadi. Shaxslar orasidagi ba’zi variantlar epigenetik farqlardan kelib chiqadi. Insonkasalliklarini davolash va oldini olish uchun yangi genom strategiyalarini qo‘llash kerak. Olimlar, shuningdek bakteriya viruslari va zamburug‘larining genlarini o‘rganib, oldini olish uchun yechim topish uchun tanadagi mikroblar ba’zan sog‘ligimizga qanday foydali ta’sir ko‘rsatishi haqida ma’lumot beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.G‘afurov A, Fayzullayev S, Saidov J. Genetika. Toshkent. 2019.
2.Jo‘ra Musayev,Sapyora Musayeva.O‘zME Birinchi jild. Toshkent. 2000.

HUQUQNI MUHOFAZA QILUVCHI ORGANLAR TUSHUNCHASI VA TIZIMI: O‘ZBEKISTON VA XORIJ TAJRIBASI

Lutfullayeva Feruza Boboqulovna
Huquq magistri, TDYU qoshidagi akademik
litseyning yetakchi o‘qituvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.7299722

Annotatsiya: Bugungi kunda yurtimizda “huquqni muhofaza qiluvchi faoliyat”, “huquqni muhofaza qiluvchi organlar” tushunchasi va mazkur organlar tizimi bo‘yicha kam sonli doktrinal qarashlar mavjud. Xalqaro tajribada ham “huquqni muhofaza qiluvchi organlar” tushunchasi va tizimi bahs-munozarali muhokamalardan biri hisoblanadi. Umuman olganda, hozirgi zamon yurisprudensiyasida doktrinal yoki qonunchilik jihatidan “huquqni muhofaza qiluvchi organlar” tushunchasi va tizimiga umumqabul qilingan yagona ta’rif mavjud emas.

Ushbu maqolada mana shu tendensiyadan kelib chiqqan holda “huquqni muhofaza qiluvchi organlar” tushunchasi va tizimini ochib berishga harakat qiladi. Shuningdek, maqolada bu boradagi milliy va xorijiy olimlarning ilmiy-nazariy qarashlaridan, jahonning ilg‘or rivojlangan davlatlari hamda MDHga a’zo mamlakatlar tajribasidan misollar keltiradi.

Tahlil yakunlariga ko‘ra qilingan xulosalarga muvofiq amaldagi qonunchilikni takomillashtirish hamda huquqni muhofaza qiluvchi organlar tizimini isloh qilish bo‘yicha takliflar berilgan.

Tayanch so‘zlar: Huquqni muhofaza qiluvchi faoliyat, huquqni muhofaza qiluvchi organlar, huquqni muhofaza qiluvchi organlar tizimi, prokuratura, ichki ishlar organlari, milliy gvardiya

Аннотация: На сегодняшний день проводится небольшое исследование доктрины и понятий «правоохранительная деятельность» и «правоохранительные органы». С точки зрения сравнения, сравнительного согласия по этим дебатам нет. В общем, ни доктринальная мысль, ни юридическое определение не пришли к единому мнению.

Эта статья посвящена актуальной проблеме и раскрытию понятия «правоохранительные органы». При этом анализируются национальные и международные мысли и практика с соответствующими примерами.

По результатам анализа даны рекомендации по совершенствованию действующего законодательства и реформированию правоохранительной системы.

Ключевые слова: правоохранительная деятельность, правоохранительные органы, правоохранительная система, прокуратура, органы внутренних дел, Национальная гвардия.

Abstract: Today little study carried out on the doctirine and concept of “law enforcement activity” and “law enforcement agencies”. From a comparative standpoint, there is no comparative agreement on these debates. In general, neither doctrinal thought nor legal definition has been concieved unifromly.

This article devoted to contribute on current issue and ellaborate the concept of “law enfrocement agencies”. In so doing, national and international thoughts and practices analyzed with relevant examples.

Based on the results of the analysis, recommendations were made to improve the existing legislation and reform the law enforcement system.

Keywords: Law enforcement activities, law enforcement agencies, law enforcement system, prosecutor's office, agencies of internal affairs, National Guard

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 3 oktyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasida kadrlar siyosati va davlat fuqarolik xizmati tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF–5843-son Farmoni bilan davlat xizmatida tub islohotlarga zamin hozirlandi. O‘zbekiston tarixida ilk bora qonunchilik hujjatida davlat fuqarolik xizmati va davlat maxsus xizmati alohida, bir-biridan ajralgan holda tilga olindi.

Farmonning 1-bandi 4-xatboshisi bilan O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlaridagi harbiy xizmat va **huquqni muhofaza qiluvchi organlardagi xizmat** davlatning maxsus xizmati hisoblanishi va alohida qonun hujjatlari bilan tartibga solinishi belgilandi. Farmon talablaridan kelib chiqqan holda “Davlat fuqarolik xizmati to‘g‘risida”gi qonun loyihasi ishlab chiqildi. Loyihaning 4-moddasida davlat fuqarolik xizmatiga “davlat organlari va tashkilotlarida ommaviy manfaatlar yo‘lida O‘zbekiston Respublikasi fuqarolarining haq to‘lanadigan kasbiy faoliyati” deya ta’rif berilgan. Lekin davlat maxsus xizmati, shu jumladan, huquqni muhofaza qiluvchi organlardagi xizmat deyilganda nima tushunilishi va mazkur organlar tizimiga qaysi organlar kirishi bo‘yicha haligacha biron-bir normativ-huquqiy ta’rif yoki bu bo‘yicha loyiha keltirilmagan.

“Huquqni muhofaza qiluvchi organlar” atamasi yuridik ilm-fanda ham, qonunchilikda ham juda ko‘p qo‘llanilsada, mamlakatimizda “huquqni muhofaza qiluvchi organlar” atamasiga berilgan ayrim doktrinal ta’riflargina mavjud xolos.

M.H.Rustambayev, U.A.To‘xtashevalarning fikricha, huquqni muhofaza qiluvchi organlar – qonuniylik va huquq-tartibotni muhofaza qilish, fuqarolar, mehnat jamoalari, jamiyat va davlatning huquq, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini himoya

qilish, shuningdek jinoyatchilikka qarshi kurashishdan iborat bo‘lgan asosiy vazifani bajaradigan maxsus vakolatli organlar[22].

F.X.Raximov, M.B.G‘oipovlarning ta’kidlashicha, huquqni muhofaza qiluvchi organlar davlatning huquqiy tizimini himoya qilish va huquqni muhofaza qilish sohasidagi asosiy funksiyalarni bajarish uchun tuziladi. Huquqni muhofaza qiluvchi organlar mamlakatdagi huquqiy tartibotni himoya qilish bilan birga, jinoyatchilik va huquqbuzarlik holatlarini aniqlash va ularga qarshi kurash vazifalarini bajaradi[23].

Yu.A.Lukichev esa zamonaviy yuridik adabiyotlarda “huquqni muhofaza qiluvchi organlar” tushunchasi hanuzgacha muhokamali mavzulardan bo‘lib kelayotganligini, bu bir qator bahslarga sabab bo‘layotganligini ta’kidlaydi. Olimning aytishicha, ayrim huquqshunos olimlar huquqni muhofaza qiluvchi organlar tizimiga advokaturani qo‘shadilar. Ayrimlar esa huquqni muhofaza qiluvchi organlarni davlatning majburlov ta’sir kuchiga ega, maxsus turdagi organlari sifatida baholaydilar[24].

Bu kabi munozarali fikrlarni yana ko‘plab davom ettirish mumkin.

Milliy qonunchilik

Hozirgi kunda O‘zbekiston Respublikasi huquqni muhofaza qiluvchi organlar tizimi quyidagi davlat organlaridan iborat:

1) **Prokuratura organlari.** Garchi 2001-yil 29-avgustda yangi tahriri tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasining “Prokuratura to‘g‘risida”gi 257-II-son Qonunida mazkur maqom aniq ko‘rsatilmagan bo‘lsada, prokuraturaning faoliyat yo‘nalishlari huquqni muhofaza qilishga yo‘naltirilganligi bilan huquqni muhofaza qilish funksiyalarini o‘zida mujassam etgan;

2) **adliya organlari.** O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 13-apreldagi PQ-3666-son qarori bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi to‘g‘risida Nizomning 2-bandi 3-xatboshisiga muvofiq Vazirlik markaziy apparati, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Adliya vazirligi, hududiy adliya boshqarmalari, tumanlar (shaharlar) adliya bo‘limlari huquqni muhofaza qiluvchi organlar hisoblanadi;

3) **ichki ishlar organlari.** 2016-yil 16-sentyabrda qabul qilingan “Ichki ishlar organlari to‘g‘risida”gi O‘RQ-407-son O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 7-moddasiga ko‘ra ichki ishlar organlari huquqni muhofaza qiluvchi organlardir va

[22] Суд ва ҳуқуқни муҳофаза қилувчи органлар. Рустамбоев М.Ҳ., Тухташева У.А. 1-жилд. Тошкент: “Илм зиё” нашриёт уйи, 2011. 8-бет

[23] Рахимов Ф.Х., Ғоипов М.Б. Ўзбекистонда ҳуқуқни муҳофаза қилувчи органларнинг коррупцияга қарши курашиш борасидаги фаолиятини мувофиқлаштиришнинг ҳуқуқий асослари. Юридик фан ва ҳуқуқни қўллаш амалиётининг долзарб муаммолари. Илмий-амалий конференция материаллари. I жилд / Масъул муҳаррир ю.ф.д., проф. М.М.Мамасиддиқов. –Т.: “Lesson press”. 2020. – 53-бет

[24] Лукичев Ю.А. Проблемы дисциплины «Правоохранительные органы» Журнал «Право и образование». 2017. № 4.

O‘zbekiston Respublikasi ichki ishlar vaziri rahbarlik qiladigan yagona tizimni tashkil etadi;

4) **davlat bojxona xizmati organlari.** 2018-yil 18-oktyabrda yangi tahriri tasdiqlangan “Davlat bojxona xizmati to‘g‘risida”gi O‘RQ-502-son O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6-moddasiga ko‘ra bojxona organlari huquqni muhofaza qiluvchi organlardir;

5) **davlat xavfsizlik xizmati organlari.** 2018-yil 5-aprelda qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasi Davlat xavfsizlik xizmati to‘g‘risida”gi O‘RQ-471-son O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 2-moddasiga ko‘ra Davlat xavfsizlik xizmatining asosiy vazifalari O‘zbekiston Respublikasining konstitutsiyaviy tuzumini, suverenitetini, hududiy yaxlitligini hamda boshqa davlat manfaatlarini tashqi va ichki tahdidlardan himoya qilishdan, qonuniylikni mustahkamlash va qonun ustuvorligini ta’minlashdan, shuningdek Davlat xavfsizlik xizmatining vakolatiga kiritilgan huquqbuzarliklarning oldini olish, ularni aniqlash va ularga barham berishdan iborat. Mazkur vazifalar huquqni muhofaza qilish faoliyati bilan chambarchas bog‘liqdir;

6) **Milliy gvardiya.** 2021-yil 20-mayda qabul qilingan “O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi to‘g‘risida”gi O‘RQ-647-son O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 3-moddasiga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasi Milliy gvardiyasi (bundan buyon matnda Milliy gvardiya deb yuritiladi) O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari qo‘shinlarining jamoat xavfsizligini ta’minlash va **huquqbuzarliklar profilaktikasi sohasida huquqni muhofaza qilishga doir ayrim vazifalarga ega bo‘lgan maxsus turidir**;

7) **Bosh prokuratura huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti.** O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 23-maydagi “Byudjet mablag‘laridan foydalanish samaradorligini tubdan oshirish va iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish mexanizmlarini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-5446-son Farmoniga ko‘ra Departament O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzurida iqtisodiy va korrupsiyaviy jinoyatlar, jinoiy faoliyatdan olingan daromadlarni legallashtirish, terrorizmni moliyalashtirish va ommaviy qirg‘in qurolini tarqatishni moliyalashtirish holatlari bo‘yicha tezkor-qidiruv faoliyati, tergovga qadar tekshiruv va surishtiruvni, shuningdek, mazkur jinoyatlar sodir etilishi oqibatida etkaziladigan iqtisodiy zararning qoplanishini amalga oshiruvchi **mustaqil ixtisoslashtirilgan huquqni muhofaza qiluvchi organ** hisoblanadi;

8) **Bosh prokuratura huzuridagi Majburiy ijro byurosi.** O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 30-maydagi PQ–3016-son qarori bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Majburiy ijro byurosi to‘g‘risida”gi Nizomning 2-bandiga binoan Byuro O‘zbekiston Respublikasi

Bosh prokuraturasi huzuridagi **mustaqil huquqni muhofaza qiluvchi organ** hisoblanadi.

Xorijiy davlatlar tajribasi

Rossiya Federatsiyasida (RF) huquqni muhofaza qiluvchi organlar tizimiga quyidagi organlar kiradi:

1) prokuratura organlari;
2) ichki ishlar organlari;
3) federal xavfsizlik xizmati;
4) bojxona organlari;
5) Tergov qo‘mitasi;
6) adliya organlari[25].

Rossiya Federatsiyasida prokuratura organlari tergov faoliyati bilan shug‘ullanmaydi. Dastlabki tergovni faqat RF Tergov qo‘mitasi, IIV Tergov qo‘mitasi va FXX tergovchilari olib borishi mumkin. Prokuratura ular faoliyatida qonunchilikka rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshiradi.

RF adliya organlarining mamlakatimiz adliya organlaridan farqi shundaki, uning tarkibiga sud pristavlari (ijrochilari) federal xizmati kiradi va adliya vaziri bir vaqtning o‘zida RF Bosh sud pristavi hisoblanadi. 1997-yil 21-iyulda qabul qilingan “Sud pristavlari to‘g‘risida”gi Qonunga ko‘ra sud pristavlari xizmati faoliyatini muvofiqlashtirish va nazorat qilish Adliya vazirligi zimmasiga yuklatilgan.

Jazoni ijro etish federal xizmati (jinoiy jazolarning ijrosi bilan shug‘ullanadi) ham bevosita Adliya vazirligi tarkibiga kiradi. Bundan oldin mazkur tuzilma Ichki ishlar vazirligi tarkibiga kiruvchi bosh boshqarma bo‘lgan.

Shuningdek, 1992-yil 11-martda qabul qilingan “Rossiya Federatsiyasida xususiy detektiv va qo‘riqlash faoliyati to‘g‘risida”gi Qonunga ko‘ra xususiy detektivlar ham jinoyat qidiruv faoliyati bilan shug‘ullanishi mumkin.

Ukraina Respublikasining “Sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar xodimlarining davlat himoyasi to‘g‘risida”gi Qonuni 2-moddasida huquqni muhofaza qiluvchi organlari tizimiga qaysi organlar kirishi ko‘rsatib o‘tilgan. Unga ko‘ra:

1) prokuratura organlari;
2) Milliy politsiya;
3) adliya organlari;
4) Ukraina xavfsizlik xizmati organlari;
5) bojxona organlari;
6) Ukraina Milliy gvardiyasi;
7) Ukraina Qurolli kuchlarida Huquqiy tartibot harbiy xizmati;
8) Ukraina Milliy antikorrupsion byurosi;

[25] М.Л.Подолюк. О правоохранительной деятельности как разновидности государственной деятельности в Российской Федерации. Закон и право, 11/2018, стр. 83-85

9) davlat chegaralarini qo‘riqlash organlari;
10) daromadlar va yig‘imlar organlari *(soliq organlari – muallif)*;
11) jazoni ijro etish organlari va muassasalari;
12) tergov izolyatorlari;
13) davlat moliyaviy nazorati organlari;
14) o‘rmonlarni qo‘riqlash davlat organlari;
15) boshqa huquqni qo‘llash yoki huquqni muhofaza qiluvchi faoliyat bilan shug‘ullanuvchi organlar[26].

Ukraina Penitensiar xizmati jazolarni ijro etish xizmati hisoblanib, Adliya vazirligi tarkibiga kiruvchi organ hisoblanadi.

Belarus Respublikasida huquqni muhofaza qiluvchi organlar tizimiga quyidagi organlar kiradi:

1) prokuratura organlari;
2) ichki ishlar organlari;
3) Davlat xavfsizligi qo‘mitasi organlari;
4) soliq organlari;
5) bojxona organlari;
6) dastlabki tergov organlari;
7) adliya organlari;
8) davlat nazorati qo‘mitasi.

Belarus Prezidentining 2011-yil 12-sentyabrdagi “Belarus Respublikasi Tergov qo‘mitasini tashkil etish to‘g‘risida” Farmoniga muvofiq Tergov qo‘mitasi prokuratura, ichki ishlar va Davlat nazorati qo‘mitasining moliyaviy tergov organlari tizimidagi dastlabki tergov faoliyati bilan shug‘ullanuvchi tuzilmalar negizida tashkil etilgan. Belarus hududida dastlabki tergov faqat Tergov qo‘mitasi tergovchilari tomonidan amalga oshiriladi[27].

Davlat nazorati qo‘mitasi davlat moliyaviy nazoratini amalga oshiruvchi organ bo‘lib, mamlakat iqtisodiy xavfsizligini ta’minlashga mas’ul organ hisoblanadi.

Qozog‘iston Respublikasining 2011-yil 6-yanvarda qabul qilingan “Huquqni muhofaza qiluvchi xizmatlar to‘g‘risida”gi QRQ-380-IV-son Qonuni 1-moddasida huquqni muhofaza qiluvchi organlar deganda insonlar va fuqarolarining huquq va erkinliklariga huquq va erkinliklariga, jismoniy va yuridik shaxslar, shuningdek o‘z vakolati doirasida davlatning qonuniy manfaatlariga rioya qilinishini ta’minlovchi, davlatning jinoyatchilik va boshqa huquqbuzarliklarga qarshi kurashish sohasidagi

[26] Закон Украины 23 декабря 1993 года № 3781-XII «О государственной защите работников суда и правоохранительных органов» (с изменениями и дополнениями по состоянию на 03.12.2021 г.) URL: https://online.zakon.kz/Document/?doc_id=31052729

[27] И.А.Демидова. Правовая культура государственной правоохранительной службы в Республике Беларусь: деятельностный и ценностно-нормативный аспекты. Сибирское юридическое обозрение, Том № 17, 2020. Стр. 165-166

faoliyatini amalga oshiruvchi, qonuniylik va jamoat tartibini saqlash, huquqbuzarliklarni aniqlash, tergov qilish, jinoyat ishlari bo‘yicha sud qarorlarini ijro etish, qonunbuzilishi holatlari va huquqbuzarliklarning oldini olish sohasida maxsus vakolatlarga ega bo‘lgan organlar tushuniladi[28].

Qonunning 3-moddasiga ko‘ra huquqni muhofaza qiluvchi organlar tizimiga quyidagi organlar kiradi:

1) prokuratura;
2) ichki ishlar organlari;
3) Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi;
4) Iqtisodiy tergov xizmati.

Sanab o‘tilgan organlar o‘z faoliyatini Qozog‘iston Respublikasi qonunchilik hujjatlariga muvofiq amalga oshiradi.

Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi Qozog‘iston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 13-iyundagi Farmoniga ko‘ra Davlat xizmati ishlari va korrupsiyaga qarshi kurashish agentligini qayta tashkil etilishi natijasida tuzilgan bo‘lib, to‘g‘ridan-to‘g‘ri Prezidentga bo‘ysunuvchi organ hisoblanadi.

Iqtisodiy tergov xizmati 2019-yil 25-yanvarda tashkil etilgan bo‘lib, Moliya vazirligi huzurida tashkil etilgan. Uning asosiy vazifasi xufiyona iqtisodiyotga qarshi kurashish hisoblanadi.

Amerika Qo‘shma Shtatlarida prokuratura funksiyasini Attorneylar xizmati bajaradi. U alohida ikkita tizimga bo‘linadi: federal va shtatlar darajasida. Attorneylar xizmati ijro etuvchi hokimiyatning bir qismi bo‘ladi. Federal attorneturaga Bosh attorney rahbarlik qiladi, u bir vaqtning o‘zida AQSh adliya vaziri hisoblanadi. AQSh Prezidenti tomonidan lavozimga tayinlanadi va Kongress Senati tomonidan tasdiqlanadi[29].

Adliya vazirligi tizimida solisitorlar xizmati, marshallar (sud qarorlarini ijro etish politsiyasi) mavjud. Shuningdek federal turmalar va boshqa ozodlikdan mahrum qilish joylari ham Adliya vazirligi tizimiga kiradi.

Har bir shtatda o‘zining attorneturasi mavjud. Ularga bosh attorney rahbarlik qiladi. Ko‘plab shtatlarda attorneylar gubernatorlar tomonidan tayinlansa, ba’zilarida aholi tomonidan umumiy saylovlarda saylanadi.

Federal attornetura jinoyat ishlari, fuqarolik huquqlarining buzilishi, soliq, tabiatni va tabiiy resurslarni muhofaza qilish, trestlarga qarshi kurashishga doir qonunchilikning buzilishiga doir ishlarda ayblovni amalga oshiradi.

AQSh davlat attorneylik xizmati funksiyalariga quyidagilar kiradi:

jinoyat sodir etgan shaxslarni jinoiy javobgarlikka tortish;

[28] Закон Республики Казахстан «О правоохранительной службе» (с изменениями и дополнениями по состоянию на 12.10.2021 г.) URL: https://online.zakon.kz/Document/?doc_id=30916594

[29] OSCE Polis. United States of America. URL: https://polis.osce.org/country-profiles/united-states-america

davlat, alohida shtatlar hukumatlari va ijro hokimiyatining boshqa organlariga yuridik maslahatlar berish;

turli huquqiy munosabatlarda federal hukumat, shtatlar ma’muriyatlari manfaatlarini taqdim qilish;

qonunlar ijrosini ta’minlash;

qonunchilik va sud norma ijodkorligida ishtirok etish;

jinoiy javobgarlikka tortuvchi organlar faoliyatini muvofiqlashtirish.

Adliya departamenti huzurida Federal tergov byurosi tashkil etilgan. Attornetura barcha ishlarning tergovi yuzasidan rahbarlikni amalga oshiradi va bu borada katta vakolatlarga ega. Bosh attorney va okrug attorneylari jinoyat ishini istalgan bosqichda to‘xtatib qo‘yishi mumkin.

AQShda huquqni muhofaza qiluvchi organlar tizimi juda kengdir. Hozirgi kunda quyidagi organlar huquqni muhofaza qiluvchi organlar hisoblanadi:

Alkogolli ichimliklar, tamaki mahsulotlari, qurollar va portlovchi vositalar savdosini nazorat qilish byurosi;

Markaziy razvedka boshqarmasi;

Milliy xavfsizlik vazirligi;

Narkotiklar to‘g‘risidagi qonunlarga rioya etilishini ta’minlash boshqarmasi;

Havo marshallari xizmati;

Federal tergov byurosi;

Favqulodda vaziyatlar agentligi (Milliy xavfsizlik departamenti tarkibiga kiruvchi organ);

Federal qo‘riqlash xizmati;

Immigratsiya va bojxona nazorati byurosi;

Ichki daromadlar xizmati (Soliq xizmati);

Milliy bog‘lar xizmati;

Maxfiy xizmat;

Transport xavfsizligi ma’muriyati;

Qirg‘oq qo‘riqlash xizmati;

Bojxona va chegaralarini qo‘riqlash boshqarmasi;

Baliq resurslari va yovvoyi hayvonlarni himoya qilish xizmati;

Marshallar xizmati.

Avstriya Respublikasida quyidagi huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyat olib boradi:

Jinoyat-qidiruv xizmati (Bundeskriminalamt);

Federal politsiya (Bundespolizei);

Ichki ishlar vazirligi (Bundesministerium für Inneres);

Moliya vazirligining Bojxona boshqarmasi (Bundesministerium für Finanzen/Zoll);

Davlat muhofazasi va terrorizmga qarshi kurashish federal agentligi (Bundesamt für Verfassungsschutz und Terrorismusbekämpfung)[30].

Prokuratura organlari sudgacha ish yuritish bosqichida amalga oshiriladigan harakatlarni amalga oshiradilar. Avstriya prokuraturasi Federal Adliya vazirligi tizimiga kiradi. Uning faoliyati 1986-yilda qabul qilingan “Prokuratura to‘g‘risida”gi Qonun va mazkur qonunni qo‘llash to‘g‘risida adliya vaziri farmoyishlariga asosan olib boradi. 2007-yilda uning tarkibida Korrupsiyaga qarshi kurashish prokuraturasi tashkil etilgan.

Deyarli barcha tergov ishlari politsiya tomonidan amalga oshiriladi. Ammo prokuror mustaqil tergov o‘tkazishi va bu bo‘yicha politsiyaga bajarilishi majburiy bo‘lgan ko‘rsatmalarni berishi mumkin. Shuningdek prokuror va politsiya tergov harakatlarini birgalikda amalga oshirishi mumkin.

Tergov harakatlarining to‘g‘ri olib borilishi yuzasidan nazorat qilish sudlarga tegishli vakolat hisoblanadi.

Germaniya Federativ Respublikasi huquqni muhofaza qiluvchi organlar tizimiga quyidagi organlar kiradi:

prokuratura organlari;

federal politsiya:

chegaralarni qo‘riqlash federal xizmati;

Bundestag politsiyasi xizmati;

Federal kriminal xizmat[31].

Shuningdek hududlarda Yer politsiyalari xizmat olib boradi.

Prokuratura faoliyati “Sud tuzilishi to‘g‘risida”gi Qonun, “Prokuraturaning tashkiliy tuzilishi to‘g‘risida”gi Nizom bilan tartibga solinadi va Adliya vazirligi tarkibiga kiruvchi organ hisoblanadi.

Buyuk Britaniyada kontinental Yevropadan farqli ravishda huquqni muhofaza qiluvchi organlarning yagona tizimi shakllanmagan[32]. Tizim mamlakat qismlariga qarab belgilangan. Misol uchun, Angliya va Uelsda politsiya faoliyati 1964-yilda qabul qilingan “Politsiya to‘g‘risida”gi Qonun (Police Act) bilan tartibga solinsa, xuddi shu nomda 1967-yilda Shotlandiya, 2000-yilda Shimoliya Irlandiyada qabul qilingan qonunlar bilan tartibga solinadi. Politsiya faoliyatiga rahbarlikni bosh konstebl (chief constable) amalga oshiradi. Bundan tashqari mustaqil konstebllar ham bo‘lib, ular mahalliy politsiyaga bo‘ysunmaydi. O‘zbekiston tajribasida olib qaraladigan bo‘lsa, ular profilaktika inspektorlari vazifasini bajaradi.

---

[30] Austria. Law Enforcement Agencies. URL: https://www.europol.europa.eu/partners-collaboration/member-states/austria

[31] П.А.Раевский, С.А.Пархоменко. Организация правоохранительной системы в некоторых федеративных странах мира. Информационно-справочные материалы. М.: Комитет гражданских инициатив Фонд ИНДЕМ, 2020. Стр. 16-19

[32] United Kingdom. https://polis.osce.org/country-profiles/united-kingdom

Bundan tashqari ularning faoliyatini tartibga soluvchi boshqa qonunlar ham mavjud. 2005-yilda qabul qilingan “Politsiya va uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurashish to‘g‘risida”gi Qonun (Serious Organised Crime and Police Act), 2006-yilda qabul qilingan “Politsiya, jamoat tartibi va jinoyat ishlari bo‘yicha odil sudlov to‘g‘risida”gi Qonun (Shotlandiya) (Police, Public Order and Criminal Justice (Scotland) Act), 2006-yilda qabul qilingan “Politsiya va odil sudlov to‘g‘risida”gi Qonun (Police and Justice Act) kabi qonunlar shular jumlasidandir.

Shuningdek maxsus ixtisoslashtirilgan politsiya turlari ham mavjud:

1. Britaniya Transport politsiyasi (British Transport Police – VTR). 2004 yilda qabul qilingan “Temiryo‘l va avtomobil transportida xavfsizlik to‘g‘risida”gi (Railways and Transport Safety Act) Qonunga muvofiq tashkil etilgan.

2. Yadro energetikasi ob’ektlaridagi politsiya (Civil Nuclear Constabulary – CNC) 2004 yilda qabul qilingan “Energetika to‘g‘risida”gi (Energy Act) qonunga muvofiq tashkil etilgan. Yadro energetikasi ob’ektlari va yadroviy materiallarni tashish xavfsizligini ta’minlaydi.

3. Harbiy politsiya (Ministry of Defence Police) yadroviy qurollar xavfsizligini ta’minlash vazifasini bajaradi.

4. Shotlandiya politsiyasining Jinoyatchilik va narkotiklarning noqonuniy aylanmasiga qarshi kurashish bo‘yicha agentligi (Scottish Crime and Drug Enforcement Agency).

2002-yildan boshlab alohida fuqarolarga politsiya tomonidan o‘z vakolatlari berilishi mumkin qilib qo‘yilgan. Huquqbuzarlarni ushlash huquqiga litsenziyaga ega bo‘lgan xususiy qo‘riqlash muassasalari, Chegara boshqarmasi xodimlari (UK Border Agency) va Munitsipialitet xodimlari kabilar amalga oshirishi mumkin.

Politsiya organlari Ichki ishlar vazirligiga bo‘ysunadi. Ichki ishlar vazirligi tarkibiga Immigratsiya nazorati bo‘linmalari ham kiradi.

Shuningdek, 1472-yilda Britaniyada Attorneylar xizmati tashkil etilgan. Bosh attorney maqomiga ko‘ra Parlament a’zosi hisoblanadi. O‘ta muhim ishlar bo‘yicha sudlarda Hukumat nomidan ayblovni qo‘llab-quvvatlaydi. Istalgan shaxsga nisbatan jinoyat ishini qo‘zg‘atish va to‘xtatish huquqlariga ega. Fuqarolik ishlarida hukumat manfaatlarini da’vogar yoki javobgar sifatida himoya qiladi. Bu ishlarda Bosh solisitorning yordamiga tayanadi.

Jinoyat ishlari bo‘yicha tergovni Qirollik ayblov xizmati olib boradi. Mazkur organ mustaqil va politsiyadan alohida faoliyat yuritadi. Unga davlat ayblovi direktori rahbarlik qiladi, hududiy markazlarga qirollik bosh ayblovchisi rahbarlik qiladi.

Soliq va bojxona xizmati, Katta masshtabdagi firibgarlikka qarshi kurashish boshqarmasi ham tergov faoliyati bilan shug‘ullanishi mumkin.

Jinoyatchilikka qarshi kurashish milliy agentligi (The National Crime Agency, NCA) jiddiy va uyushgan jinoyatchilikka qarshi kurashish bo‘yicha Britaniya huquqni muhofaza qiluvchi organi hisoblanadi.

Soliq va bojxona xizmati barcha turdagi majburiy to‘lovlarning **(shuningdek kommunal xizmatlar uchun to‘lovlarni ham)** yig‘ilishi uchun javobgar hisoblanadi. Ehtiyojmand oilalarni maqsadli ravishda moddiy qo‘llab-quvvatlash ham mazkur organ vazifalariga kiradi. Jiddiy va uyushgan soliq jinoyatlari bo‘yicha tergovni amalga oshiradi.

Singapur Respublikasi huquqni muhofaza qiluvchi organlar tizimiga quyidagi organlar kiradi:

1) Politsiya;

2) Korrupsiya amaliyotlarini tergov qilish byurosi (The Corrupt Practices Investigation Bureau, CPIB);

3) Immigratsiya va nazorat-o‘tkazish punktlari muassasalari boshqarmasi (The Immigration & Checkpoints Authority, ICA);

4) Bojxona xizmati (Singapore Customs);

5) Qurolli kuchlar harbiy politsiyasi[33].

Singapur politsiyasi va Ichki xavfsizlik departamenti Ichki ishlar vazirligi tarkibiga kiruvchi organlar hisoblanadi. Shuningdek xususiy politsiya xizmatlari ham mavjud. Ular yordamchi politsiya sifatida infrastruktura ob’ektlari va yo‘llarda pul mablag‘lari tashilishi xavfsizligini ta’minlash vazifalarini bajarish uchun tashkil etilgan.

Bojxona xizmati Moliya vazirligi tarkibiga kiruvchi departament hisoblanadi.

Xulosa va takliflar

Yuqorida keltirib o‘tilgan ilmiy-nazariy qarashlar va o‘rganilgan xorij tajribasi ma’lumotlaridan kelib chiqqan holda bir qator xulosalarga kelish va bu bo‘yicha takliflarni berish mumkin.

Xususan, tergov organlari faoliyatini tashqi ta’sirlardan holi qilish, tergov faoliyatida xolislik va qonuniylikni yanada ta’minlash maqsadida AQSh, Buyuk Britaniya, Rossiya Federatsiyasi, Belarus va Avstriya kabi davlatlarning ilg‘or tajribasini inobatga olgan holda Ichki ishlar vazirligi huzuridagi Tergov departamenti negizida boshqa huquqni muhofaza qiluvchi organlardan mustaqil bo‘lgan alohida tergov organi tuzish maqsadga muvofiq. Bu tergov faoliyatining haqiqiy mustaqilligini ta’minlashga xizmat qilishi mumkin.

Jinoyat-protsessual kodeksiga muvofiq hozirda surishtiruv va dastlabki tergov prokuratura, ichki ishlar va davlat xavfsizlik xizmati organlari tomonidan amalga oshiriladi. Tergovchi garchi dastlabki tergovni amalga oshirishda mustaqil hisoblansada, tashkiliy va boshqa masalalarda bevosita prokuror, ichki ishlar yoki

[33] URL: https://en.wikipedia.org/wiki/Category:Law_enforcement_agencies_of_Singapore

DXX organlari boshliqlariga bo‘ysunadi. Dastlabki tergovni amalga oshiruvchi organlar esa amalda barcha masalalarda mustaqil bo‘lishi maqsadga muvofiq bo‘lib, jahon tajribasida bu ko‘p bora o‘z ifodasini topgan.

Bugungi kunda jinoyat ishlari bo‘yicha surishtiruv va dastlabki tergov asosan Ichki ishlar vazirligining surishtiruvchi va tergovchilari tomonidan amalga oshiriladi. O‘ziga tegishli bo‘linma tomonidan tergov qilingan ish bo‘yicha aybdor deb topilgan shaxsga tayinlangan jazoning ijro etilishini ham shu organ amalga oshirishi maqsadga muvofiq emas. Bundan tashqari jazolarni ijro etish faoliyatini amalga oshirish “Ichki ishlar organlari to‘g‘risida”gi Qonunning 2 va 4-moddalarida belgilangan ichki ishlar organlarining asosiy vazifalari hamda yo‘nalishlariga mos kelmaydi. Shu sababli hozirda Ichki ishlar vazirligi tarkibida bo‘lgan Jazoni ijro etish bosh boshqarmasini AQSh, Rossiya Federatsiyasi, Ukraina kabi davlatlar tajribasidan kelib chiqqan holda alohida tuzilmaga aylantirish yoki boshqa bir xolis huquqni muhofaza qiluvchi organ tarkibiga o‘tkazish maqsadga muvofiq.

Prokuraturaning qonunlarning aniq va bir xilda bajarilishi ustidan nazoratni amalga oshiruvchi organ ekanligini inobatga olgan holda uning huzurida tashkil etilgan hamda belgilangan maqsad va vazifalariga muvofiq bo‘lmagan vazifalar bilan shug‘ullanuvchi Majburiy ijro byurosi va Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamentini prokuratura organlari tizimidan chiqarish maqsadga muvofiq. Bunda Bosh prokuratura huzuridagi Majburiy ijro byurosini hech bir organ bo‘ysunuvida bo‘lmagan mustaqil huquqni muhofaza qiluvchi organga aylantirish mumkin.

Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 24-oktyabrdagi 870-son qarori bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining Davlat moliyaviy nazorati bosh boshqarmasi to‘g‘risida”gi Nizomga ko‘ra byudjet tashkilotlarida aniqlanayotgan pul mablag‘lari va moddiy boyliklarni talon-taroj qilish, kamomadlarga yo‘l qo‘yish, xarajatlar smetasi va shtatlar jadvallarini tuzish, tasdiqlash hamda ijro etish tartibini buzish va byudjet qonunchiligini boshqacha tarzda buzish holatlarini chuqur tahlil qilish va ularni sodir etish shart-sharoitlarini bartaraf qilish bo‘yicha aniq chora-tadbirlarni ishlab chiqish DMNBBning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 23-maydagi PF-5446-son Farmoni bilan tasdiqlangan “O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti to‘g‘risida”gi Nizomda xuddi shunga o‘xshash vazifalar, ya’ni byudjet tizimi byudjetlari mablag‘larini talon-toroj qilish va ulardan maqsadsiz foydalanish, davlat xaridlarida narxlarni oshirib yuborish, davlat organlari va tashkilotlarda debitor hamda kreditor qarzdorlikning asossiz ortishi holatlarini aniqlash, etkazilgan zararni qoplash bo‘yicha choralar ko‘rish Departamentining asosiy vazifalaridan biri etib belgilangan.

Mazkur holat nazorat qiluvchi va huquqni muhofaza qiluvchi organlarning vazifa hamda vakolatlarini tanqidiy koʻrib chiqqan holda ularni optimallashtirish choralarini koʻrishni taqozo etishi mumkin. Shunga koʻra davlat moliyaviy nazorati va iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashuvchi yagona organ tuzish maqsadga muvofiq. Bu Qozogʻiston, Belarus yoki Ukraina tajribasidan kelib chiqqan holda moliyaviy politsiya shaklida tashkil etilishi mumkin.

Bundan tashqari, ayni paytda, Oʻzbekiston qonunchiligida huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatining umumiy yoʻnalishlarini belgilab beruvchi yagona normativ-huquqiy hujjat mavjud emas, ammo 2017/2021-yillarda Oʻzbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yoʻnalishi boʻyicha Harakatlar strategiyasini “Faol tadbirkorlik, innovatsion gʻoyalar va texnologiyalarni qoʻllab-quvvatlash yili”da (2018-yil) amalga oshirishga oid davlat dasturining 62-bandida Huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatida qonuniylik va adolatni ta’minlashga qaratilgan chora-tadbirlarni nazarda tutadigan “Huquqni muhofaza qiluvchi organlar toʻgʻrisida”gi Oʻzbekiston Respublikasi qonuni loyihasini ishlab chiqish vazifasi belgilangan. Biroq bu boradagi ishlarning joriy holati boʻyicha ochiq ma’lumotlar mavjud emas. Yagona qonunchilikning yoʻqligi esa huquqni muhofaza qilish faoliyati va bu bilan shugʻullanuvchi organlar vazifalarini tushunishda turli tushunmovchiliklarni keltirib chiqarishi mumkin.

Xulosa qilib aytganda, yangi Oʻzbekiston ma’muriy islohotlar konsepsiyasi ishlab chiqilarkan, mavjud davlat apparatining bir qismi sifatida huquqni muhofaza qiluvchi organlar tizimini ham optimallashtirish boʻyicha ishlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq boʻladi. Bu mavjud tizimning yanada takomillashishi va xalqaro standartlarga muvofiq boʻlishini ta’minlashga xizmat qilishi mumkin.

Iqtiboslar/snoski/references:

1. Sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar. Rustamboyev M.H., Tuxtasheva U.A. 1-jild. Toshkent: «Ilm ziyo» nashriyot uyi, 2011 – 304 bet.

2. Raximov F.X., Gʻoipov M.B. Oʻzbekistonda huquqni muhofaza qiluvchi organlarning korrupsiyaga qarshi kurashish borasidagi faoliyatini muvofiqlashtirishning huquqiy asoslari. Yuridik fan va huquqni qoʻllash amaliyotining dolzarb muammolari. Ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. I jild / Mas’ul muharrir yu.f.d., prof. M.M.Mamasiddiqov. –T.: “Lesson press”. 2020 – 450 bet

3. Лукичев Ю.А. Проблемы дисциплины «Правоохранительные органы» Журнал «Право и образование». 2017. № 4.

4. М.Л.Подолюк. О правоохранительной деятельности как разновидности государственной деятельности в Российской Федерации. Закон и право, 11/2018, стр. 83-85

5. Закон Украины 23 декабря 1993 года № 3781-XII «О государственной защите работников суда и правоохранительных органов» (с изменениями и дополнениями по состоянию на 03.12.2021 г.) URL: https://online.zakon.kz/Document/?doc_id=31052729

6. И.А.Демидова. Правовая культура государственной правоохранительной службы в Республике Беларусь: деятельностный и ценностно-нормативный аспекты. Сибирское юридическое обозрение, Том № 17, 2020. Стр. 165-166

7. Закон Республики Казахстан «О правоохранительной службе» (с изменениями и дополнениями по состоянию на 12.10.2021 г.) URL: https://online.zakon.kz/Document/?doc_id=30916594

8. OSCE Polis. United States of America. URL: https://polis.osce.org/country-profiles/united-states-america

9. Austria. Law Enforcement Agencies. URL: https://www.europol.europa.eu/partners-collaboration/member-states/austria

10. П.А.Раевский, С.А.Пархоменко. Организация правоохранительной системы в некоторых федеративных странах мира. Информационно-справочные материалы. М.: Комитет гражданских инициатив Фонд ИНДЕМ, 2020. Стр. 16-19

11. United Kingdom. https://polis.osce.org/country-profiles/united-kingdom

12. https://en.wikipedia.org/wiki/Category:Law_enforcement_agencies_of_Singapore

13. O‘zbekiston Respublikasi qonunchilik hujjatlaridan iqtiboslar Qonunchilik hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi – www.lex.uz saytidan olingan.

KORRUPSION JINOYATLARNI TERGOV QILISHDA DALLILARNI KO‘ZDAN KECHIRISH VA DALLILARNI TO‘PLASHNING AHAMIYATI

Narzullayeva Mushtariybegim Sobir qizi
Mustaqil tadqiqotchi
https://doi.org/10.5281/zenodo.7299726

Annotatsiya: Mazkur ilmiy maqolada korrupsion jinoyatlarni tergov qilishda dallilarni ko‘zdan chiqarish va dallilarni to‘plashning ahamiyati haqidagi masalalar ilgari suriladi. Dallilarni ko‘zdan kechirish misoli tariqasida ashyoviy va yozma dalillar keltirib o‘tilgan bo‘lib, dallilarni to‘plashda esa tanib olish uchun ko‘rsatish tergov harakati aks ettirilgan.

Kalit so‘zlar: Korrupsion jinoyatlarni tergov qilish, dallilarni ko‘zdan kechirish, ashyoviy dalil, yozma dalil, tanib olish uchun ko‘rsatish, pora olish va pora berish.

Korrupsiya jinoyatlarini tergov qilishda dalillarni ko‘zdan kechirish muhim ahamiyatga ega. Negaki, dallilarni ko‘zdan kechirish natijasida, agar ular maqbul bo‘lsa, daliliy ashyo sifatida e’tirof etamiz. Jpk ning 81-moddasiga ko‘ra, “Ijtimoiy xavfli qilmishning yuz bergan-bermaganligini, shu qilmishni sodir etgan shaxsning aybli-aybsizligini va ishini to‘g‘ri hal qilish uchun ahamiyatga molik boshqa holatlarni surishtiruvchining, tergovchining va sudning qonunda belgilangan tartibda aniqlashiga asos bo‘ladigan har qanday haqiqiy ma’lumotlar jinoyat ishi bo‘yicha dalil hisoblanadi.

Bu ma’lumotlar guvohning, jabrlanuvchining, gumon qilinuvchining, ayblanuvchining, sudlanuvchining ko‘rsatuvlari, ekspertning xulosasi, ashyoviy dalillar, ovozli yozuvlar, videoyozuvlar, kinotasvir va fotosuratlardan iborat materiallar, tergov va sud harakatlarining bayonnomalari va boshqa hujjatlar bilan aniqlanadi

Qonunda belgilangan talablarga rioya etilgan holda o‘tkazilgan tezkor-qidiruv tadbirlarining natijalari ushbu kodeks normalariga muvofiq tekshirilganidan va baholanganidan so‘ng jinoyat ishi bo‘yicha dalillar deb e’tirof etilishi mumkin”.

Bizga berilgan savolda dalillarni ko‘zdan kechirish borasida so‘z borganligi sababli ko‘z oldimizga ashyoviy va yozma dalillar keladi. Shunday ekan, ashyoviy va yozma dalillar nima ekanligini bilib olamiz.

Jpkning 203-moddasiga ko‘ra, “Kelib chiqishini, kimga tegishliligini, ma’lum maqsadlarda foydalanilganligini yoki foydalanishga yaroqliligini, qo‘ldan-qo‘lga o‘tganligi yoki turgan joyi o‘zgarganligini, u yoki bu moddalar, narsa, jarayon va hodisalar ta’sir etganligini aniqlash mumkin bo‘lgan fizikaviy alomatlar yoki

belgilarga, shuningdek, ish holatlarini aniqlashga xizmat qiladigan har qanday boshqa alomatlar va belgilarga ega bo‘lgan narsa ashyoviy dalil hisoblanadi”.

Jpkning 203 prim 1-moddasiga ko‘ra, “Ashyoviy dalil deb e’tirof etilgan jinoyatga tayyorgarlik ko‘rish yoki sodir etish uchun maxsus mo‘ljallangan, tayyorlangan yoki moslashtirilgan narsalar, shuningdek, jinoiy maqsadlarga erishish uchun jinoyat sodir etish jarayonida bevosita foydalanilgan mol-mulk jinoyat qurolidir”.

Umuman olganda, ashyoviy dalillar jinoyat ishini muvofiq holda yuritish uchun ahamiyatga ega bo‘lgan narsalar. Aksariyat ma’noda tilsiz guvohlar deb ham tushunishimiz mumkin bo‘ladi.

Oliy sud Plenumida “Ashyoviy dalillar sifatida quyidagilar e’tirof etiladi:

a) Jinoyat quroli – ashyoviy dalil deb e’tirof etilgan, jinoyatga tayyorgarlik ko‘rish yoki jinoyat sodir etish uchun maxsus mo‘ljallangan, tayyorlangan yoki moslashtirilgan narsalar (masalan, odam o‘ldirish qurollari, qimmatliklarni talon-taroj qilish yoki egallashda vosita bo‘lgan narsalar, o‘qotar qurol, brokonerlik qurollari – qopqonlar, to‘rlar, soxta hujjat va hokazolar), shuningdek, jinoiy maqsadga erishish uchun jinoyat sodir etish jarayonida bevosita foydalanilgan mol-mulk(transport vositalari);

b) O‘zida jinoyat izlarini saqlab qolgan narsalar (masalan, qon izlari mavjud yoki jinoyat sodir etilishi jarayonida shikastlangan narsalar, barmoq, qo‘l, oyoq, poyabzal, transport, buzish qurollarining izlari va hokazolar);

c) Jinoiy harakatlar obyekti bo‘lgan narsalar (masalan, olib qochilgan avtomobil, talon-taroj qilingan pullar, qimmatli qog‘ozlar, qurol, giyohvand vositalari, boshqa moddiy qimmatliklar, buyumlar va hokazo);

d) Jinoiy harakatlar sodir etilganidan keyin jinoiy yo‘l bilan topilgan mablag‘lar evaziga topilgan mol-mulk, pullar va boshqa qimmatliklar(masalan, o‘g‘irlangan pullarga sotib olingan qimmatbaho buyumlar, jinoiy faoliyat natijasida, jumladan, qonunga xilof ravishda tadbirkorlik bilan shug‘ullanishdan topilgan naqd pullar, nodir metallar va toshlardan iborat xomashyo va buyumlar, va boshqa qimmatliklar)”.[34]

Ashyoviy dalillarga nimalar kirishini bilib oldik. Endi biz yozma dalillarga to‘xtalamiz. Jpkning 204-moddasiga ko‘ra, “Mansabdor shaxs yoki fuqaro tomonidan so‘z, raqam, chizma yoki boshqa shaklda yozilgan va ish uchun ahamiyatli bo‘lishi mumkin bo‘lgan ma’lumotlarni saqlash, o‘zgartirish, berish uchun mo‘ljallangan hujjat yoki boshqa yozuvlar yozma dalil hisoblanadi.

Tergov harakatining bayonnomasi, sud majlisining bayonnomasi va ularning ilovalari ham yozma dalil hisoblanadi. 203-moddadagi ko‘rsatilgan alomatlar,

[34] Jinoyat ishlari bo’yicha ashyoviy dalillarga oid qonunchilikni qo’llashning ayrim masalalari to’g’risidagi O’zbekiston Respublikasining Oliy sudi Plenumining qarori. 13.12.2012.

belgilar, izlari bo‘lgan hujjatlar va boshqa xatlar ham ashyoviy dalil bo‘lib xizmat qilishi mumkin”.

Yuqorida biz ashyoviy va yozma dalillar haqida bilib oldik. Endi ulardan ko‘zdan kechirish haqida bayon etamiz. Jpkning 135-moddasiga ko‘ra, “Jinoyat izlari, ashyoviy dalillarni topish, hodisa sodir bo‘lgan vaziyatni va ish uchun ahamiyatli bo‘lgan boshqa holatlarni aniqlashtirish maqsadida tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organning mansabdor shaxsi, surishtiruvchi, tergovchi yoki sud hodisa sodir bo‘lgan joyni, murdani, hayvonlarni, tevarak-atrofni, binolarni, narsalar va hujjatlarni ko‘zdan kechiradilar”. 136-moddaga ko‘ra, “Tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organning mansabdor shaxsi, surishtiruvchi, tergovchi yoki sud ko‘zdan kechirish chog‘ida o‘lchov o‘tkazadi, fotosuratga, kinotasvirga, videoyozuvga tushiradi, rejalar, sxemalar, chizmalar tuzadi, izlardan qoliplar va nusxalar oladi”.

Ko‘zdan kechirishning bir necha turlari bor bo‘lib, hodisa sodir bo‘lgan joyni, murdani, tevarak-atrof va binolarni, narsa va hujjatlarni ko‘zdan kechirish sanaladi. Hodisa sodir bo‘lgan joyni ko‘zdan kechirish aynan shu joyda jinoyat sodir etilganligi yoki uning izlari borligi haqida ma’lumotlar bo‘lgan taqdirda o‘tkaziladi. Murdani ko‘zdan kechirish surishtiruvchi yoki tergovchi murdaning tashqi ko‘rinishini u topilgan joyda xolislar va sud-tibbiyot sohasidagi mutaxassis shifokor ishtirokida ko‘zdan kechiradi. Tevarak-atrof va binolarni ko‘zdan kechirish tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organning mansabdor shaxsi, surishtiruvchi, tergovchi va sud tevarak-atrof va binolarni qoidalarga muvofiq holda ko‘zdan kechiradilar. Narsa va hujjatlarni ko‘zdan kechirish tergovga qadar tekshiruvni amalga oshiruvchi organning mansabdor shaxsi, surishtiruvchi, tergovchi va sud narsa va hujjatlarni ular topilgan joyda, basharti ko‘zdan kechirish ko‘p vaqt yoki qo‘shimcha texnik vositalar talab qilsa, keyinchalik surishtiruv, dastlabki tergov yoki sud muhokamasi o‘tkazilayotgan joyda ko‘zdan kechiradilar.

Yuqorida ashyoviy dalillar va yozma dalillar, ularga nimalar kirishi hamda dalillarni ko‘zdan kechirish turlari haqida ma’lumot berildi. O‘z-o‘zidan anglashiladiki, ko‘zdan kechirishdan maqsad va vazifalar masalalari ham oydinlashdi. Shunchaki har qanday jinoyat emas, biz korrupsiyaviy jinoyatlarda dalillarni ko‘zdan kechirishning maqsad va vazifalarni havola etishimiz lozim bo‘ladi. Bunda bizga qayd etilganlarga ko‘ra ish tutishimiz ancha yordam beradi. Xususan, korrupsiyaviy jinoyatlarda dalillarni ko‘zdan kechirishning maqsadi quyidagilardan iborat ekanligini bilib olamiz.

1) Korrupsiyaga oid jinoyat izlari va boshqa ashyoviy dalillarni topish;
2) Ish uchun ahamiyatga ega bo‘lgan barcha holatlarni aniqlash;
3) Hodisa sodir bo‘lgan joy va vaziyatni aniqlashtirish;

4) Pora olish va berish masalalari qanday holatlar yuzasidan yuzaga kelayotganligini ma’lum qilish;

5) Korrupsiyaning kelib chiqishini, uni kimlar amalga oshirishlarini aniqlab olish va uni oldini olish, unga qarshi kurashish;

6) Narsalar nima maqsadda foydalanilganligi, nimaga xizmat qilayotganligiga oydinlik kiritish;

7) Jinoyatga tayyorgarlik va uni amalga oshirish sabablarini belgilab olish;

8) Bundan buyon bu kabi jinoyatlarni sodir etishga yo‘l qo‘ymaslik chora-tadbirlarini hamda jinoyatchilarning axloqan tuzatish ishlarini samarali tuzatish ishlarini olib borish;

9) Ashyoviy dalillar va yozma dalillar kimlar vositasida topilayotganligi, ishga aloqador shaxslarni bilib olish;

Dalillarni ko‘zdan kechirishning vazifalari haqida so‘z boradigan bo‘lsa, bir necha vazifalari ko‘z oldimizga keladi.

a) Narsaning ishga taalluqliligi haqida xulosa chiqarishga asos bo‘ladigan, shuningdek, uni boshqa narsalardan farqlovchi belgilar aniqlash;

b) Narsani ashyoviy dalil deb e’tirof etish va uni jinoyat ishiga qo‘shib qo‘yish;

c) Topilgan va olib qo‘yilgan barcha narsalar ko‘zdan kechirish ishtirokchilariga ko‘rsatish;

d) Mazkur jarayonda ishtirokchilarni ishtirok etishlarini ta’minlash;

e) Ko‘zdan kechirish natijasida e’tirof etilgan buyumlarni o‘rganib chiqish

Yuqoridagi berilgan ma’lumotlar va fikr-mulohazalarni inobatga olib shunday xulosaga kelishimiz mumkinki, korrupsiyaga oid jinoyatlarni tergov qilishda dalillar sinchkovlik bilan, har tomonlama ko‘zdan kechirilishi lozim. Hamda undan ko‘zlangan maqsad va vazifalarga erishilmog‘i lozim. Huquqni muhofaza qiluvchi organlar ko‘zdan kechirish maqsadi va vazifalariga erishib, dalillarni mustahkamlash, daliliy ashyo sifatida tan olishni muvofiq amalga oshiradilar. Shu bilan birga, bu kabi jinoyatlarni oldini olish, unga qarshi kurashish hamda tez va to‘la ochishni, fosh etishni, kelib chiqish sabablarini munosib darajada ma’lum qiladilar.

Dallilarni to‘plashning bir misoli sifatida tanib olish uchun ko‘rsatishni ko‘rib chiqadigan bo‘lsak, Jpkning 125-moddasiga ko‘ra, “Tanib olish uchun ko‘rsatish guvoh, jabrlanuvchi, gumon qilinuvchi, ayblanuvchi yoki sudlanuvchining biror shaxs yoki narsa to‘g‘risidagi ko‘rsatuvini tekshirib ko‘rish uchun quyidagi hollarda amalga oshiriladi:

1) Bu ko‘rsatuv muayyan bir shaxs yoki muayyan bir narsaga oid ekanligini aniqlash zarur bo‘lganda;

2) Surishtiruvchi, tergovchi yoki sudga ma’lum bo‘lgan ko‘plab shaxs yoki narsalar orasidan ko‘rsatuvda tasvirlab berilgan shaxs yoki narsani topish zarur bo‘lganda”.

Jpkning 127-moddasiga ko‘ra, “Shaxsni tanib olish uchun tergov olib borilayotgan ishga aloqasi bo‘lmagan, tashqi belgilari bilan o‘ziga o‘xshaydigan shaxslar guruhi orasida xolislar huzurida ko‘rsatiladi. Tanib olinuvchiga tanib olish uchun ko‘rsatiladigan shaxslar orasida istagan joyni egallash taklif qilinadi. Tanib olinuvchi kiyimi, soch qirqtirishi yoki tarashi yoxud boshqa belgilari bilan tanib olish uchun ko‘rsatiladigan o‘zga shaxslar orasida yaqqol ajralib turmasligi lozim. Shaxsni tanib olish uchun ko‘rsatishning iloji bo‘lmaganda yoxud xavfsizlikni ta’minlash maqsadida uning fotosuratidan foydalanish mumkin”.

Biz bu holatni korrupsion jinoyatlar misolida tatbiq etadigan bo‘lsak, korrupsiya nima ekanligiga e’tiborimizni qaratamiz.

“Korrupsiya – shaxsning o‘z mansab yoki xizmat mavqeyidan shaxsiy manfaatlarini yozud o‘zga shaxslarning manfaatlarni ko‘zlab moddiy yoki nomoddiy naf olish maqsadida qonunga xilof ravishda foydalanishi, xuddi shuningdek bunday nafni qonunga xilof ravishda taqdim etish”.[35]

Korrupsiyada ishtirok etuvchilar pora beruvchi, pora oluvchi hamda pora olis-berishda vositachilik qiladigan shaxs hisoblanadi.

Bizga berilgan savolda tanib olish uchun o‘tkaziladigan tergov harakatini yuzaga keltiradigan holatlarni korrupsiya bilan bog‘liq jinoyatlar misolida ko‘rishdan iborat. Masalan, bo‘lajak er-xotin nikohni qayd etish bo‘yicha tibbiy ko‘rikdan o‘tishlari kerak. Ammo, ular vaqtini ketkazmaslik uchun shifokorga va psixologga ma’lum ma’noda pora predmeti qimmatbaho sovg‘a beradi. Buni shifokorning yangi yordamchisi ko‘rib qoladi, shifokor unga aybini bilirmaslik uchun hamshiraga pul beradi. Ma’lum vaqt o‘tib to‘ydan keyin qudalar kelinning tutqanoq kasalligi borligini bilib qolishadi. Sudga murojaat etishadi. Kelin va kuyov bor gapni tergovchiga aytadi. Shifokor esa tan olmaydi. Shu holatda, tanib olish uchun tergov harakati zarur sanaladi va o‘tkaziladi.

Keyingi misollarda, DTM da ishlaydigan mas’ul xodimga A ismli shaxs 2000 AQSH dollari evaziga tarix va ona tili fanlaridan tushishi lozim bo‘lgan savollarni berishni iltimos qiladi. Mas’ul xodim yashirincha unga savollarni beradi. A ismli shaxs imtihon paytida savollarga javobni tagiga yozgan shpargalkasini sekingina olib test ishlayotganda nazoratchi ko‘rib, tegishli xodimga aytadi. Shu orada so‘roq qilish jarayonida A ismli shaxs pul olgan mas’ul xodimni tasvirlab beradi. Bu vaziyatda ham tanib olish tergov harakatining 2-bandi qo‘llaniladi.

Misol. B bank boshqaruvchisi bo‘la turib, o‘z mansab lavozimini suiiste’mol qilgan holda S. ga g‘alla hosiliga ajratilgan imtiyozli kredit mablag‘i hisobidan

[35] Korrupsiyaga qarshi kurashish to’g’risida O’zbekiston Respublikasining qonunining 2-moddasi. 03.01.2017.

akasining R nomli fermer xo‘jaligining qarzdorligini yopish uchun pulni hisob raqamiga o‘tkazadi. Ma’lum vaqtdan so‘nga kredit mablag‘ini to‘lay olmay qoladi. S. esa bu orada chet davlatda safarda edi. Bunda biz uning fotosuratidan foydalanamiz.

O‘z o‘rnida qayd etish joizki, bu tergov harakati aniq bir obyektni aniqlash muammosi identifikatsiya qiluvchi shaxsning ongida muhrlangan ruhiy qiyofada hal qilinadi.

Ko‘pincha tanib olish uchun tergov harakatidan oldingi tayyorgarlik quyidagilarni o‘z ichiga oladi:

a) Shaxsni aniqlaydigan shaxsni oldindan so‘roq qilish

b) Identifikatsiyalash uchun obyektlarni tanlash;

c) Identifikatsiya qilish uchun taqdim etish vaqti, joyi va shartlarini tanlash;

Obyektlar ular orasida qonunga binoan identifikatsiya qilinadigan obyekt taqdim etilishi kerak, unga o‘xshash bo‘lishi kerak. Shaxslarga nisbatan tashqi o‘xshashlik obyektlarga aniqlanadigan bilan bir xil bo‘lishi kerak.

Agar uning fotosuratidan foydalanish kerak bo‘lsa, tergovchida shaxslar tasviri tushirilgan turli xil fotosuratlar ular orasida shaxs aniqlanishi mumkin, ammo u tergovchining o‘ziga noma’lum bo‘ladi.

Yuqorida qayd etilgan berilgan savolga qisqacha misollar keltirildi va tanib olish uchun ko‘rsatish tergov harakatlari qanday holatlarda yuzaga kelishi mumkinligi ko‘rsatib o‘tildi. Agar shaxs bo‘lmasa uning fotosurati orqali tanish mumkinligiga izoh berildi. Berilgan ma’lumotlar va fikr-mulohazalardan shuni xulosaga qilishimiz mumkinki, tanib olish uchun ko‘rsatish tergov harakatini yuzaga keltiradigan holatlar pora olish berish va unda vositachilik qilishda o‘z aksini hayotimizda ko‘pgina misollar bilan o‘z tasdig‘ini topgan. Biz shulardan bir nechtasini misol qilish orqali havola etdik.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksi. 22.09.1994.
2. O‘zbekiston Respublikasining korrupsiyaga qarshi kurashish to‘g‘risidagi qonuni. 03.01.2017.
3. Korrupsion jinoyatlarni tergov qilish uslubiyoti. O‘quv qo‘llanma. Mualliflar jamoasi. – T.: 2020.
4. O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksiga sharhlar;
5. Dalillarni ko‘zdan kechirish va ashyoviy dalillarga oid qo‘llanma. Mualliflar jamoasi. 2020.
6. Jinoyat va jinoyat-protsessual qonunchiligi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risidagi O‘z. Res. Prezidentining qarori. 01.10.2018.

7. Jinoyat ishlariga oid ashyoviy dalillarga oid qonunchilikni qo‘llashning ayrim masalalari to‘g‘risidagi Oliy sud Plenumi qarori.

Foydalanilgan internet manbalari:

1. Lex.uz.
2. Norma.uz.
3. Yurida.uz.
4. O‘zbekiston milliy qonunchilik milliy ba’zasi.

YOSHLAR- MAMLAKAT TARAQQIYOTINING TAYANCHI

Qayumova Nafisa
Mustaqil tadqiqotchi
https://doi.org/10.5281/zenodo.7299735

Rivojlanib borayotgan mamlakatimizda sog‘lom avlodni, komil insonlarni voyaga yetkazishga katta e’tibor berilmoqda. Yoshlarni ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish bugungi kundagi eng dolzarb muammolardan biridir. Bundan tashqari, “huquqiy madaniyat” tushunchasidan kelib chiqib, siyosiy faollikka yoshlarga nisbatan xos bo‘lgan siyosiy-huquqiy xususiyat sifatida yondashish mumkin.

Yoshlar ijtimoiy hayotda mamlakat aholisining eng yosh va tez o‘zgaruvchan salohiyatini tashkil etuvchi o‘zining tarkibiy jihatidan bir-biriga yaqin bo‘lgan qatlamidir. Bu qatlamning har sohada faolligini oshirishda muloqotning o‘rni beqiyosdir.

Yoshlarni bugungi kunda ”siyosiy faol “, yoki “siyosiy faol bo‘lmagan” guruhga ajratish mumkin. Bularga:

1.Siyosiy o‘zgarishlarni aniq idrok etgan;

2.Qonunlar ularni hayotga tadbiq etishda befarq bo‘lmagan;

3.Demokratik islohotlarga o‘z hissasini qo‘shayotgan;

4.Muayyan siyosiy partiya yoki ijtimoiy harakatlar bilan o‘z faoliyatini bog‘lagan yoshlarni siyosiy faol qatlam deyish mumkin.

O‘zbekiston Respublikasiada 14 yoshdan 30 yoshgacha bo‘lganlar yoshlar hisoblanadi. Yoshlarni ijtimoiy –iqtisodiy va siyosiy-ma’naviy sohadagi faolligini oshirishning asosiy omillarini ilmiy-ijodiy yosh ziyolilarimiz ongiga amalga singdira olsakkina, Uchinchi Rennesans poydevorining eng mustahkam ma’naviy-ma’rifiy ustunini yaratgan bo‘lamiz.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan O‘zbekiston Respublikasining 2017 yil 25 avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasi yoshlari kunini belgilash to‘g‘risida”gi Qonuni qabul qilinib, mamlakatimizda 30 iyun – “Yoshlar kuni” etib belgilandi.

Yoshlarga qaratilayotgan bunday e’tibor va g‘amxo‘rlik, yurtimizda amalga oshirilayotgan yoshlarga oid davlat siyosati, shubhasiz, bizlarni quvontiradi.

Bundan tashqari, chet ellarda yashayotgan vatandoshlar bilan doimiy muloqot va hamkorlikni rivojlantirish, ularning mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlardagi ishtirokini rag‘batlantirish, shuningdek, ularning huquq hamda manfaatlarini to‘laqonli va har tomonlama himoya qilishga ko‘maklashish yuzasidan diqqatga molik ishlar amalga oshirilayotganidan ham yaxshi xabardormiz. Bularning barchasi

O‘zbekistonda vatandoshlar bilan hamkorlikni rivojlantirish masalasiga davlat siyosati darajasida munosabat qaror topganidan dalolatdir.

Yoshlarni ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy-ma’naviy sohalardagi mavqeyini kuchaytirish – Yangi O‘zbekistonni barpo etishimizda juda dolzarb masaladir. Harakatlar Strategiyasini biz bosqichma-bosqich amalga oshirmoqdamiz. Ijtimoiy sohani rivojlantirishdagi yo‘nalish-yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirishda - biz avvalo ularni jismonan sog‘lom, ruhan tetik, dunyo qarashi keng, zamonaga mos, hamnafas fikrlaydigan, Vatanga sodiq tarbiyalash bilan birga demokratik islohotlarni olib bormoqdamiz. Yoshlar bilan ishlash, ularni ijodiy va intellectual salohiyatini qo‘llab-quvvatlash, madaniyat, sport, turizm rivojiga jalb etish, zamonaviy usulda chet el tajribasiga asoslanib milliy iqtisodiyotimizni jahon bozoriga tanishtirish, raqobatbardosh mahsulotlarni eksport qilish, turli sohalarda tadbirkorliklarini rivojlantirish, vatandoshlar bilan hamkorlikni o‘rnatish kabi masalalar muayyan institusiyaviy shaklda olib boriladi.

Jumladan:

- 2018 yilda O‘zbekiston Prezidenti Farmoniga muvofiq “Yoshlar – kelajagimiz” Davlat dasturi tasdiqlandi. Ushbu hujjat orqali tadbirkorlik, StartUPlar, g‘oyalar va loyihalarni amalga oshirishda ko‘maklashish va qo‘llab-quvvatlash yangi bosqichga ko‘tarildi;

-2020 yilda yoshlar yo‘nalishida yana bir muhim qadam tashlanib, Prezident qaroriga binoan mamlakatda yoshlar siyosatini amalga oshiruvchi davlat tashkiloti – Yoshlar ishlari agentligi tashkil etildi. Yoshlarni yuqori darajada rag‘batlantirib boorish maqsadida “Mardo‘g‘lon” davlat mukofoti va “Kelajak bunyodkori” medali ta’sis etildi;

-Yana bir muhim qadam, 2021 yil – “Yoshlarni qo‘llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash” yili deb e’lon qilindi va ushbu sohani rivojlantirish yuzasidan Davlat dasturi qabul qilindi. Yoshlar siyosatini rivojlantirishning 5 yillik strategiyasi ishlab chiqildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti raisligida joriy yilning 4 iyul kuni “Yoshlar — kelajagimiz” Davlat dasturi ijrosini samarali tashkil etish masalalariga bag‘ishlab o‘tkazilgan video selector yig‘ilishida berilgan topshiriqlar ijrosi yuzasidan ham Oliy Majlis Qonunchilik palatasi tomonidan qator ishlar amalga oshirildi. Xususan, Davlat dasturi ijrosini joylarda samarali tashkil etish maqsadida mamlakatimizning har bir hududiga Qonunchilik palatasining Yoshlar masalalari bo‘yicha komissiyasi a’zolari va deputatlar biriktirilib, ular Respublika ishchi guruhlari tarkibida ish olib bordilar.

Qonunchilik palatasining hududlarga biriktirilgan deputatlari tomonidan Davlat dasturining mazmun-mohiyatini keng yoshlar ommasiga yetkazish bo‘yicha targ‘ibot va tashviqot tadbirlari olib borildi, Farmonda belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlash

yuzasidan qilinayotgan ishlarda hududiy va mahalliy ishchi guruhlarga amaliy ko‘mak ko‘rsatildi. Jumladan, Navoiy viloyatida joriy yilning 12 iyul kuni mazkur tarixiy hujjat mazmun-mohiyatiga bag‘ishlangan matbuota njumani hamda 17 iyul kuni Qonunchilik palatasining Yoshlar masalalari bo‘yicha komissiyasi tashabbusi bilan “Yoshlar — kelajagimiz” Davlat dasturi ijrosini tashkil etishda siyosiy partiyalar va “Yoshlar qanotlari” ning o‘rni va roli” mavzuida seminar tashkil etildi. Xorazm viloyati hokimligida, shuningdek, Qoraqalpog‘iston Respublikasining Mo‘ynoq, Amudaryo va Ellikqal’a tumanlarida bo‘lgan uchrashuvlar davomida barcha mutasaddi idora va tashkilotlar vakillari ishtirokida amaliy muloqot hamda seminarlar o‘tkazildi.

Qonunchilik palatasi deputatlari tuman va shahar ishchi guruhlari bilan birgalikda uyma-uy yurib, yoshlar bilan uchrashishdi, aniqlangan muammolarni hal etishda, ishsiz yigit-qizlar bandligini ta’minlashda hamda tadbirkorlik faoliyatini boshlash istagidagi yoshlarga amaliy yordam ko‘rsatishdi. Shu bilan birga, Farmonda belgilangan vazifalarning joylardagi ijrosini ta’minlashda yo‘l qo‘yilayotgan kamchiliklar, yuzaga kelayotgan muammolarni hal etish bo‘yicha tavsiyalar hamda ko‘rsatmalar berib borishdi. “Yoshlar — kelajagimiz” jamg‘armasining tuman va shahar filiallari direktorligiga nomzodlar tanlashda ham ko‘maklashildi.

Albatta, bu ishlar katta-katta maqsadi bor, biroq uni amalga oshirishda ikkilanib, biroz qiynalib turgan minglab, millionlab yoshlarni ruhlantirishi, tabiiy. Olib borilayotgan bunday sa’y-harakatlar oxir-oqibatda aniq tashabbusi bor, yangi-yangi g‘oyalari bilan yurtimiz taraqqiyotiga hissa qo‘shishga tayyor butun boshli bir avlodni yuzaga chiqarishi, shubhasizdir.

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 26 sentyabrdagi “Pedagog kadrlarni tayyorlash, xalq ta’limi xodimlarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-3289-sonli Qarori. O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 2017.

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 30 sentyabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta’lim vazirligi faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida”gi PQ-3305-conli Qarori. O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 2017.

3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 28 fevral “Davlat maktabgacha ta’lim muassasalari xodimlarining ayrim toifalari mehnatiga haq to‘lashni takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”giq aroriga Sharh. O‘zbekiston Respublikasi Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 2018.

LINGUISTIC LANDSCAPE OF THE LANGUAGE AND ITS REFLECTION IN THE LANGUAGE

Ablayeva Lobar Otkirovna, Khamrayeva Sokinakhon
In the name of Islam Karimov Tashkent state engineering
Branch of Almalyk University Uzbek language and literature
teachers of the department
https://doi.org/10.5281/zenodo.7302568

Abstract: It is related to clarifying the linguistic and cultural understanding of a person in relation to his cultural and ethnic ideas about the world.

Key words: linguistic and cultural, ethnic idea, linguistic and cultural, linguistics, cultural studies, custom, tradition.

Linguistics emerged as an independent branch of linguistics in the 90s of the 20th century. According to the researchers, the term "linguculturalology" (Lat. lingua "language"; cultus "respect, bow"; Greek. "science, science") was coined by the Moscow phraseological school under the leadership of V.N. Telia (Y.S. Stepanov, A.D. Arutyunova , V.V.Vorobyev, V.Shaklein, V.A.Maslova) appeared in connection with the research.

Адабиёт майдонига кириб келган ҳар бир авлод вакилларини бирлаштириб ва ўзаро фарқлантирувчи жиҳатлари бўлади. Умумбашарий маънавий-ахлоқий қадриятларга муносабатда муштаракликни билдирса, уларни асраб, келажак авлодларга қай таҳлит етказиш масъулияти ҳар бир ижодкорда алоҳида тонда зоҳир бўлади. Миллат туйғуси, ижтимоий воқелик, ватани келажагига дахлдорлик майдонлари ҳар қайси авлоднинг ҳар бир вакилига умумий ва хусусий жиҳатларни кўндаланг қўяди. Бу майдондан қандай ўтгани ижодкорнинг ижодида намоён бўлади.

Кун келиб бу дунё бўлгай деб бехишт,
Жим-житгина боғлар қилар ишора.

Замон кўндаланг қўйган саволларга жавоб излаш, замондошлар маънавий дунёси, тирикликинг маъно-моҳияти ҳақидаги ўйлар, кўнгилда тинмаётган бўхронлар, миллатсеварлик, фалсафий мурожаатлар, публитсистик даъват Ҳалима Худойбердиева шеъриятидаги инсонпарварлик психологиясининг рангин қирраларидир. Шоиранинг лирик қаҳрамони умрнинг маъно-моҳияти, тақдир, оқ ва қора кунлар, яхшилик ва макр-риё ҳақида чуқур ўйлайди. У ўзи учун жуда юксак маънавий-ахлоқий марраларни яшашнинг шарти қилиб белгилайди.

Шоира портрет яратишда образни турли хил ҳолат ва вазият хатти-ҳаракатлар воситасида ифодалашда сўздан моҳирона фойдаланади.

Исён кўтарар ул бўлиб бағри қон –
Майли, усиз ҳам мўл беғамлар, гўллар.
Ишқилиб, узунроқ умр кўр, исён,

Исён тугаган кун шоир ҳам ўлар.

Образ ёки персонажнинг ташқи қиёфаси, мимик ва понтомимик хатти-ҳаракатлари тасвири орқали ички дунёсига ташхис қўяди.

Масалан, “Дориломон кунлар келди” шеърида ота образининг руҳияти, чуқур драматик ҳолатини маҳорат билан бадиий акс эттиради.

Сўлғин-сўлғин лабларингдан учаркан шу сўз,

Отагинам хаёлимда ростлай бошлар қад.

Лирик қаҳрамоннинг айни пайтдаги руҳий ҳолити унинг хатти-ҳаракатлари, ташқи кўриниши ёрдамида очиб борилади. Бунда отасининг образи, мотамсаро ҳолати ноёб детал бўлиб ифодаланади.

Бу табаит суюмлидир ҳам кўзлари кўр,

Гоҳ шаробдан, гоҳ оғудан қилар бизни маст.

Шоира ифодалаган контрас ҳолатлар шеърхонни ҳам ўртантирмай қўймайди.

Энам, Сен энадан эдинг ёлғиз қиз.

Не учун мениям ёлғиз ўстирдинг.

Инсон табиатан далдага, суянчиққа мойил қилиб яратилган. Суянчиғи йўқ, бировга суянолмайдиган лирик қаҳрамон исёни ўқувчини ўзининг шундай ҳолга тушган кунларига етаклаб кетади.

Буровга суянолмадим, эссиз,

Сениям ҳамиша ғамбода кўрдим.

Укам деб бировга беролмадим юк.

Синглим деб бировга айтолмадим сир.

Шеърий парчадаги ҳар бир сўз юк ва руҳий мазмунни асослайди. Шеърда бир-бирига мазмунан боғланган “Сен” ва “Мен” олмоши чин ўзбек сиймоси, ички ва ташқи қиёфаси билан гавдалантирилган.

Шоира шеъриятида руҳият тасвири ҳаётнинг турли хил муаммолари, гап-сўзи ва руҳоний ҳолатлар орқали тасвирланади. Сўзнинг маъно-моҳиятини чуқур тушуниши шоира сўздаги бадиий образлийлик орқали маънолари тизимини яратади. Бадиий портретлар ғоявий композитсияси Ҳалима Худойбердиева шеъриятининг устуворлик жиҳатларидан биридир.

Хулоса қилиб айтганда, Ҳалима Худойбердиева ижодининг поетик олами ва эстетик қарашлари жаҳон поезиясининг бир халқасини ташкил этади. Айтиш мумкинки, шоира яшаган даврининг уйғоқ фуқароси, ўктам шоираси, донишманд ижодкори, шткир публитсист сифатида тарихга ўз номини муҳрлади. Устозлар йўлидан бориб, миллат ва адабиёт учун салмоқли хизмат кўрсатди. Ва бугунги кун, ўзбек назми поезия аҳли унинг шеърлари, яратган мактаби ва ижодидан баҳраманд бўлар экан, унинг ҳаёт ва ижод йўлидаги ибратли излари келажак авлоднинг ҳам хазинаси бўлиб қолишига шубҳа йўқ.

Адабиётлар рўйхати:

1. Ҳ.Худойбердиева. «Осойишта шам». «Ўзбекистон» НМИУ. Т – 2017.
2. Қуронов Д. Мутолаа ва идрок машқлари. –Т.: Академнашр. 2013, – Б. 230;
3. Назаров Б. Бу сеҳрли дунё. –Т.: Адабиёт ва санъат, 1980, – Б. 176;
4. Қозоқбой Йўлдош. Ёниқ сўз. -Т.: “Янги аср авлоди”, 2006, – Б. 390;
5. Норматов У. Умидбахш тамойиллар.–Т.: Маънавият, 2000, – Б. 240;
6. Солижонов Й. Нутқ ва услуб. –Т.: Чўлпон, 2002, – Б. 160;

XUSUSIY HOSILALI DIFFERENSIAL TENGLAMALARNING UMUMIY YECHIMLARI HAQIDA TUSHUNCHA. UMUMIY YECHIMNI TOPISHNING XARAKTERISTIKALAR USULI

Po‘latov Sur’atjon Po‘latjon o‘g'li
Samarqand viloyati Oqdaryo tumani 52-IDUMI matematika fani o‘qituvchisi
E-mail: suratjonpolatov@gmail.com
https://doi.org/10.5281/zenodo.7231239

Annotatsiya: Ushbu maqolada xususiy hosilali differensial tenglamalarning umumiy yechimlari haqida tushuncha berilgan. Umumiy yechimni topishning xarakteristikalar usuli yordamida masalalar yechib ko‘rsatilgan.

Kalit so‘zlar: xususiy hosila, Dalamber usuli, umumiy yechim, xarakteristikalar usuli, kanonik tenglama.

Аннотация: В статье представлен обзор общих решений уравнений в частных производных. Задачи решаются с использованием характеристического метода нахождения общего решения.

Ключевые слова: частная производная, метод Даламбера, общее решение, метод характеристик, каноническое уравнение.

Abstract: This article provides an overview of general solutions of partial differential equations. Problems are solved using the characteristic method of finding a general solution.

Key words: particular derivative, Dalamber method, general solution, method of characteristics, canonical equation.

Ushbu

$$\frac{\partial^2 U}{\partial x \partial y} = 0 \qquad \text{yoki} \qquad \frac{\partial}{\partial x}\left(\frac{\partial U}{\partial y}\right)=0$$

tenglamani qaraymiz. Uni x bo‘yicha integrallab, $\frac{dU}{dy} = \psi(y)$ tenglamani hosil qilamiz. Bunda $\psi(y)$ – y ning ixtiyoriy funksiyasi. Oxirgi tenglamani y bo‘yicha integrallab,

$$U(x,y) = \int \psi(y)dy + \psi_1(x)$$

tenglikni hosil qilamiz. Bunda $\psi_1(x)$ – x ning ixtiyoriy funksiyasi.

$\int \psi(y)dy = \psi_2(y)$ deb belgilab,

$$U(x,y) = \psi_1(x) + \psi_2(y)$$

formulaga ega bo‘lamiz. Bu yerda $\psi(y)$ ixtiyoriy funksiya bo‘lganligi uchun $\psi_2(y)$ ham y ning ixtiyoriy funksiyasi bo‘ladi.

Yuqorida keltirilgan misollar 1–tartibli xususiy hosilali differensial tenglamalarning barcha yechimlari formulasi, ya’ni umumiy yechimi bitta ixtiyoriy funksiyaga, m–tartibli tenglamaning umumiy yechimi m ta ixtiyoriy funksiyaga bog‘liq bo‘lishi kerak, degan fikrga olib keladi.

Xususiy hosilali differensial tenglamalarning umumiy yechimini xarakteristikalar usuli (yoki Dalamber usuli) bilan topish mumkin. Tenglamani xarakteristikalar usuli bilan yechishda dastlabki tenglama xarakteristikalari yordamida kanonik ko‘rinishga keltiriladi, so‘ngra kanonik tenglama integrallanib, integralda qaytadan eski o‘zgaruvchilarga o‘tilsa, berilgan tenglamaning umumiy yechimi hosil bo‘ladi.

Misol. Quyidagi tenglamaning umumiy yechimini toping

$x^2U_{xx}-y^2U_{yy}=0 \qquad (x>0, y>0)$. (3)

Yechilishi. Tenglamaning tipini aniqlaymiz.

$a_{11}=x^2$; $a_{12}=0$; $a_{22}=-y^2$; $D=a_{12}^2-a_{11}a_{22}=x^2y^2>0$

bo‘lganligi uchun tenglama giperbolik tipda bo‘lib, kanonik tenglamasi taxminan $V_{\xi,\eta}=Q(\xi,\eta,V,V_\xi,V_\eta)$ ko‘rinishga ega bo‘ladi.

Xarakteristik tenglamasi

$$x^2(dy)^2-y^2(dx)^2=0$$

yoki $xdy+ydx=0$, $xdy-ydx=0$

bo‘ladi. Bu tenglamalarni yechib,

$$xy=C_1,\ \frac{x}{y}=C_2$$

xarakteristiklarga ega bo‘lamiz.

$$\xi=xy,\ \eta=\frac{x}{y},\qquad U(x,y)=V(\xi,\eta) \qquad (4)$$

tengliklar yordamida yangi o‘zgaruvchilarga o‘tib, hosilalarni hisoblaymiz:

$$U_{xx}=y^2V_{\xi\xi}-2\frac{y^2}{x^2}V_{\xi\eta}+\frac{y^2}{x^4}V_{\eta\eta}+2\frac{y}{x^3}V_\eta,$$

$$U_{yy}=x^2V_{\xi\xi}+2V_{\xi\eta}+\frac{1}{x^2}V_{\eta\eta}.$$

Bu ifodalarni berilgan tenglamaga qo‘yib, kanonik tenglamani hosil qilamiz:

$$V_{\xi\eta}-\frac{1}{2\xi}V_\eta=0 \qquad (\xi>0,\ \eta>0). \qquad (5)$$

Oxirgi tenglamada $W=\frac{dV}{d\eta}$ (6)

yangi noma’lum funksiya kiritib,

$$\frac{dW}{d\xi}-\frac{1}{2\xi}W=0$$

chiziqli tenglamaga ega bo‘lamiz. Bu tenglamani integrallab,

$$W=\sqrt{\xi}\psi_0(\eta) \qquad (7)$$

yechimni hosil qilamiz. (7) ni (6) ga qo‘yib,

$$\frac{dV}{d\eta}=\sqrt{\xi}\psi_0(\eta) \qquad (8)$$

tenglamaga ega bo‘lamiz. (8) tenglamani integrallab, (5) kanonik tenglamaning umumiy yechimini hosil qilamiz:

$$V(\xi,\eta)=\sqrt{\xi}\int\psi_0(\eta)d\eta+\varphi(\xi)=\sqrt{\xi}\,\psi(\eta)+\varphi(\xi),$$

bu yerda ψ,φ – ixtiyoriy funksiyalar.

Oxirgi formulada (4) tengliklar yordamida eski x va y o‘zgaruvchilarga qaytib, berilgan tenglamaning umumiy yechimini topamiz:

$$U(x,y)=\varphi(xy)+\sqrt{xy}\psi\left(\frac{y}{x}\right).$$

Adabiyotlar ro‘yxati:

1. M. Salohiddinov “Matematik fizika tenglamalari” Toshkent “O‘zbekiston”-2002.
2. O.S.Zikirov “Matematik fizika tenglamalari” /Toshkent-2017
3. O‘rinov A.Q. “Matematik fizika tenglamalari fanidan masalalar to‘plami”-Farg‘ona, FerDU. 2008
4. Михлин С.Г. Курс математической физики -СПб. “Лань”. 2002
5. https://library.samdu.uz/files/87e22af6b175d97add2c2b15ff45a68e_Matematik%20fezika%20tenglamalar.pdf
6. www.ziyonet.uz

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARDA BILISH FAOLLIGINI RIVOJLANTIRISH

Xo‘shboqov Kamoliddin Abdulatif o‘g‘li
TerDPI psixologiya kafedrasi o‘qituvchisi
https://doi.org/10.5281/zenodo.7231989

Annotatsiya: Maktabgacha yosh davrining inson kamolotining keyingi rivojlanishidagi, bolani maktab ta’limiga tayyorlashdagi alohida roli maktabgacha ta’limning maqsadini belgilash, maktabgacha yoshdagi bolalarni o‘qitish metodlari va tashkiliy shakllarini o‘ziga xos mazmunini ishlab chiqishni, bolalarni har tomonlama kamolga yetkazishga o‘qitishning rolini tadqiq qilish zarurligini shart qilib qo‘ydi. Buni inobatga olgan holda ushbu maqolamizda maktabgacha yoshdagi bolalarning bilish faolligini rivojlantirish yo‘llarini tadqiq etdik.

Kalit so‘z: maktabgacha ta’lim, bolalar, ta’lim, yo‘naltirish, pedagog, bilish faolli, rivojlantirish, shakllantirish.

Annotation: The special role of preschool age in the further development of human development, the preparation of the child for school education The role of teaching preschool education conditioned the need for research. With this in mind, in this article we explored ways to develop the cognitive activity of preschool children.

Keywords: preschool, children, education, orientation, educator, active learning, development, formation.

Аннотация: Аннотация. Особая роль дошкольного возраста в дальнейшем развитии человеческого потенциала, подготовке ребенка к школьному обучению Роль педагогического дошкольного образования обусловила необходимость исследования. С учетом этого в данной статье мы исследовали пути развития познавательной активности дошкольников.

Ключевые слова: дошкольник, дети, воспитание, направленность, воспитатель, активное обучение, развитие, формирование.

Globallashuv davrida maktabgacha yoshlarlarni ilm-fan asoslarining mustahkam bilimlarini egallashga tayyorlash, ularda yuksak onglilikni tarbiyalash, umuminsoniy axloqiylikni shakllantirish, yosh avlodni maktab ta’limi to‘g‘ri yo‘naltirish, ularning bilish faolligini rivojlantirish muhim vazifadir. So‘nggi yillarda amalga oshirilgan islohotlar natijasida maktabgacha yoshdagi bolalarga keng imkoniyatlar yaratilmoqda, shu jumladan ularni ta’lim olishiga qator imkoniyatlar berilmoqda. Ammo zamonaviy dunyoda nafaqat ta’lim, balki tarbiya ham muhim sanalmoqda. Yoshlarimiz dunyoviy bilimlarni shu bilan birgalikda ma’naviy tarbiyaviy sifatlarni ham o‘zida shakllantirmog‘i zarur. Ushbu fikrni muhtaram Prezidentimiz Shavkat

Mirziyoyev ham ta’kidlaganlar: “Bizni hamisha o‘ylantirib keladigan yana bir muhim masala – bu yoshlarimizning odob-axloqi, yurish-turishi, bir so‘z bilan aytganda, dunyoqarashi bilan bog‘liq. Bugun zamon shiddat bilan o‘zgaryapti. Bu o‘zgarishlarni hammadan ham ko‘proq his etadigan kim – yoshlar. Mayli, yoshlar o‘z davrining talablari bilan uyg‘un bo‘lsin. Lekin ayni paytda o‘zligini ham unutmasin. Biz kimmiz, qanday ulug‘ zotlarning avlodimiz, degan da’vat ularning qalbida doimo aks-sado berib, o‘zligiga sodiq qolishga undab tursin. Bunga nimaning hisobidan erishamiz? Tarbiya, tarbiya va faqat tarbiya hisobidan”[36].

Mamlakatimizda ta’lim tizimiga davlat siyosati darajasida e’tibor qaratiimoqda. O‘zbekiston Respublikasining 2022-2026 yillarga mo‘ljallangan “**Taraqqiyot strategiyasi”**[37] da maktabgacha ta’lim tizimini takomillashtirishga qaratilgan maqsadlarga diqqat qaratsak:

38-maqsad Maktabgacha ta’limdagi qamrov darajasini oshirish hozirgi 62 foizdan kamida 80 foizga yetkazish.

39-maqsad Maktabgacha ta’lim tizimida ta’lim sifatini yangi bosqichga olib chiqish.

40-maqsad: Maktabgacha ta’lim tizimida budjet mablag‘larining maqsadli va samarali sarflanishini ta’minlash.

Ko‘rib turganimizdek maktabgacha ta’lim tizimida keng ko‘lamli silohotlar olib borilmoqda. Shu bilan birgalikda ushbu sohada muammolar to‘liq bartaraf etildi deya olmaymiz. Bu muammolarni to‘laqonli hal etishda o‘qituvchi-pedagogning intellektual salohiyati va kasbiy mahorati muhim ahamiyat kasb etadi. Shu boisdan ham amalga oshirilayotgan ishlarni pedagogik tahlil qilish, ta’lim-tarbiyaviy jarayonlarining samarali kechishini ta’minlash zaruriyati yuzaga keldi. Bu talablar pedagogika oliy o‘quv yurtlarining maktabgacha ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha malakali kadrlar tayyorlashga ham taalluqli bo‘lib, bu ixtisos beradigan fanlarning nazariy jihatdan yanada takomillashtirishni taqozo etadi.

Inson egallab olishi lozim bo‘lgan ijtimoiy tajriba qanchalik murakkab bo‘lgani sari, bu tajribani yetkazish yuzasidan maxsus tashkil etilgan faoliyatga ya‘ni (biror ishlab chiqarishni o‘rgatishga) ehtiyoji paydo bo‘la boshladi. Tarbiya mohirlik va ishning ko‘zini bilishni talab eta boshladi.

[36] Shavkat Mirziyoyev 15-iyun kuni Toshkentda bo‘lib o‘tgan "Ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash, muqaddas dinimizning sofligini asrash – davr talabi" mavzuidagi anjumanda so‘zlagan nutqida yosh avlod tarbiyasi haqidagi nutqidan. https://www.standart.uz/ru/news/view?id=963

[37] 2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi

Qomusiy olim Abu Nasr Forobiy ta’lim va tarbiyaga birinchi marta shunday ta’rif bergan edi: “Ta’lim, - degan so‘z xalqlar va shaharliklar o‘rtasida nazariy fazilatni birlashtirish, tarbiya esa shu xalqlar o‘rtasidagi tug‘ma fazilat va amaliy kasb-hunar fazilatlarini birlashtirish degan so‘zdir.

Ta’lim faqat so‘z va o‘rgatish bilangina bo‘ladi. Tarbiya esa, amaliy ish tajriba bilan, ya’ni shu xalq, shu millatning amaliy malakalardan iborat bo‘lgan ish-harakat, kasb-hunarga berilgan bo‘lishni, o‘rganishidir”[38].

Ma’rifat darg‘asi A.Avloniy “Turkiy guliston yoxud axloq” asarida esa pedagogika fanini aniq va tushunarli qilib ta’riflaydi: “Tarbiya pedagogiya”, ya’ni bola tarbiyasining fani demakdur... “Al-hosil, tarbiya bizlar uchun yo hayot - yo mamot, yo najot — yo halokat, yo saodat - yo falokat masalasidir...”[39].

Hozirgacha soha mutaxassislaridan ko‘pchiligi maktabgacha yoshdagi bolalar bilish faolligini rivojlanishi va uning nazariy asoslarini qator qirralarini o‘z ilmiy izlanishlarida o‘rganganlar. Maktabgacha yoshdagi bolalarda atrof muxitga va o‘z-o‘ziga nisbatan ijtimoiy tasavvurlarning shakllanishi asosida bilish faolligini rivojlanishi masalasi xorijlik psixologlardan DJ.Piyaje, D.Elkonin, S.Muxina D.Maers, V.Kvinn, R.Beron, D.Richardson, F.Zimbardo va boshqalarning tadqiqotlarida qisman yoritib berilgan. SHuningdek, bilish faolligini rivojlantirish muammosi G.Andreeva, V.Ageev, A.Donsov, V.Trusov, T.Emel’yanova, L.Petrovskaya, I.Jaspars, J.Jodelet kabi rus hamda fransuz olimlari tomonidan ham muayyan darajada o‘rganilgan.

Olimlarning tadqiqotlari asosida olingan hulosalarga ko‘ra maktabgacha yoshdagi bolalar bilish jarayonlari ijtimoiy ta’sirlar asosida shakllanar ekan. Ularning diqqati, xotirasi, aqliy faoliyati va muloqatga kirishishi, ko‘p xollarda, tashqi munosabatlar va o‘yin faoliyatining ta’sirchanligiga bog‘lik ekanligi olimlar tomonidan ta’kidlanadi. Olimlarning fikricha bog‘cha yoshidagi bolalar bilish faolligi shaxs sifatida shakllanish davrlariga bog‘liq xolda rivojlanar ekan. Bog‘cha yoshidagi bolalar shaxsining shakillanishi uch davrga ajratadilar:

1. 3–4 yosh oralig‘ida bo‘lib, bola emotsional jihatdan o‘z–o‘zini boshqarishning mustaxkamlanishi bilan bog‘liqdir.
2. 4–5 yoshni tashkil qilib axloqiy o‘z–o‘zini boshqarish davri hisoblanadi.
3. dastlabki empirik shaxsiy ishchanlik va tadbirkorlik xususiyatining shalklanishi bilan xarakterlanadi.

[38] Abu Nasr Forobiy. Baxt-saodatga erishuv haqida. Risolaiar. -T.: ≪Fan≫, 1975,76-bet.
[39] Abdulla Avloniy. Tanlangan asarlar. -T.: ≪Ma'naviyab>, 1998. 36-bet

Mana shu davrlarda bolalarning diqqat barqarorligini ta’minlash uchun berilgan savolarga va topshiriqlarga javoblari, ularning xotirasini, tafakkurini va hayolini rivojlanishiga yordam beradi. Bolalarning xissiy –emotsional kechinmalari tashqi ta’sirlar asosida shakllanar ekan, ularning ijtimoiy munosabatlar ichida ta’lim va tarbiyaga tortilishi bilish faolligini rivojlanishiga imkoniyat yaratadi. Bu xolatlar tajriba natijalarida ham isbotlandi.

Ta’lim tarbiya ta’siri bilan birga bolalar psixik xususiyatlarining taraqqiyotiga ularning faol faoliyati rolini hisobga olish ham zarurdir. CHunki, bola tarbiyaning faqat passiv ob’ektigina emas, balki o‘z faoliyatlari bilan ham o‘ziga, ya’ni o‘zining psixik taraqqiyotiga faol ta’sir qilib turadigan mavjudotlardir. Tarbiya bolaning faol faoliyatlarini xar doim to‘g‘ri tashkil qilib, yo‘lga solib tursa, undagi mavjud sifatlar faoliyatning xar-xil turlarida (o‘yin, mehnat, o‘qish) nomoyon bo‘lib mustaxkamlana boradi. CHunonchi- bola psixikasi o‘yin, o‘qish o‘rganish, mehnat va turli ijtimoiy faoliyat jarayonlarida taraqqiy qiladi. Faoliyatning bu turlari bolaningo‘sishi va yosh xususiyatlariga mos ravishda o‘zgarib biri ikkinchisi bilan almashinib turadi. M: bog‘chagacha va maktabgacha tarbiya yoshidagi bolalarning asosiy faoliyati o‘yindir. Chunki, o‘yin bola tabiatining asosiy xususiyati hisoblanadi. Bola o‘yin orqali atorofdagi hayotni va kishilar o‘rtasidagi turli munosabatlarni bilib ola boshlaydi.

Shu o‘rinda M.Voxidovning: «bola o‘yinda qanday bo‘lsa, o‘cib ulg‘aygach ishda ham ko‘pincha ko‘p jihatdan shunday bo‘ladi»[40] (ehtiyoj, moddiy dunyoga munosabat, o‘z-o‘ziga munosabat, iroda, xisiy tuyg‘u, bilish jarayonlar) deb ta’kidini e’tirof etish maqsadga muvofiqdir.

Kognitiv faoliyat katta maktabgacha yoshdagi bolalarning yangi bilim, ko‘nikma, ichki qat’iyat va ma’lum bilimlarni to‘plash va kengaytirish uchun turli xil harakat usullaridan foydalanish zaruriyatiga bo‘lgan qiziqishini aks ettiradi. G.I. Shchukina “kognitiv faoliyat” ni shaxsning sifati, ya’ni shaxsning bilimga bo‘lganintilishini o‘z ichiga olgan, bilish jarayoniga intellektual munosabatni ifoda etadi. Shaxsning sifati, “kognitiv faoliyat”, uning fikriga ko‘ra, bilim olishga intilishning doimiy namoyon bo‘lishi bilan yuzaga keladi. Shaxs darajasida kognitiv faoliyatni shakllantirish muammosi asosan kognitiv faoliyatning motivatsiyasini va maktabgacha yoshdagi bolalarning bilim qiziqishlarini shakllantirish usullarini ko‘rib chiqish bilan bog‘liq. Maktabgacha ta’lim yoshidagi bolalarga kognitiv faoliyatni rivojlantirishning engsamarali tomonlari matematik tasavvurlarni shakllantirish jarayonlarida namoyon bo‘ladi va matematika o‘qitish metodikasida asosiy o‘rinni metodik usullar sifatida beriladigan savollar egallaydi. Ular reproduktiv-mnemik, reproduktiv-bilish, produktiv-bilish bo‘lishi mumkin. Bunda savollar aniq va ixcham bo‘lishi lozim. O‘qitish jarayonida bolalar yoshi va o‘rganiladigan materialga bog‘liq

[40] M.Vohidov ‘Bolalar psixologiyasi”

holda reproduktiv va produktiv savollar birligi bo‘lishi kerak.Savollar bolalar fikrlishini rivojlantirishni ta’minlaydi.

Elementar matematik tasavvurlarni shakllantirishda asosan oddiydan boshlab, predmetlarning aniq belgilarini, xossalarini, amaliy harakat natijalarini yoritishga yo‘naltirilgan, bog‘lanishlarni, munosabatlarni, aloqalarni, ularni tushuntirish va asoslashni, oddiy isbotlashdan foydalanishni talab etuvchi murakkabroq savollardanko‘prok foydalaniladi. Ko‘proq bunday savollar tarbiyachi tomonidan namunani namoyish etgandan keyin yoki bola topshiriqni bajargandan keyin beriladi. Masalan, bolalar qog‘oz to‘g‘riburchakni ikkita teng qismga bo‘lganida, ulardan so‘raladi: “Sen nima qilding? Bu qism qanday nomlanadi? Maktabgacha yoshdagi bolalarning bilim faolligini shakllantirish jarayonida bir qator omillarning mavjudligi barcha tadqiqotlar uchun umumiy hisoblanadi. Ular orasida ichki omil, ya’ni kognitiv harakatlarning sub’ektiv xarakteristikasi mavjud. Kognitiv faoliyatning tashuvchisi bilimning yaxlit sub’ekti – shaxsdir.

Pedagogikada bolalarning savollar va javoblar tizimi suhbat deyiladi. Suhbat usuli atroflicha o‘ylangan savollar yordamida tarbiyachi bilan bolalar orasidagi suhbatni ko‘zda tutib, ularning mustaqil fikrlashini yangi tushunchalarni egallashga olib keladi. Uni qo‘llashda savollarni qo‘yish, bolalarning javob va mulohazalarini muhokama qilish,xulosalarni shakllantirish, javoblarni tuzatish usullaridan foydalaniladi.

Amaliy usullarda vazifa (maqsad)ni qo‘yish, uni bajarish usulini rejalashtirish, bajarish jarayonini boshqarish, tahlil qilish, kamchiliklar sababini aniqlash, maqsadga to‘liq erishish uchun o‘quv mashg‘uloti jarayoniga tuzatish va o‘zgartirishlar kiritish ishlari amalga oshiriladi. Amaliy mashqlarni bajarishda bolalar bo‘lajak hatti-harakatlarini faol mushohada qiladi, o‘ziga-o‘zi eshittirib gapiradi hamda bo‘lajak voqeani sharhlaydi. Erkin fikrlash usuli illyustrativ rasmlar, fotolavhalar kabilar va ularning muhokamalariga bag‘ishlanadi. Bu mashg‘ulotdan ko‘zda tutilgan maqsad bolalarning bilim doirasini, dunyoqarashini kengaytirish, ularni rasmlar, fotolavhalar, kitoblar bilan tanishtirish orqali, ularning bilim olish va qiziqishlarini orttirish, avval o‘zlashtirgan bilim, ko‘nikma va malakalarini yangi vaziyatlarda qo‘llash orqali yangi bilimlarni egallashlariga erishishdir.

Xulosa qilib aytganda maktabgacha yosh davridagi bolalar bilish faolligini nazariy jihatdan o‘rganganimizda shunga amin bo‘ldikki, bu yo‘nalishda juda ko‘p tadqiqotlar olib borilgan. Ma’lum metodikalar ishlab chiqilganligiga amin bo‘ldik. Lekin shunga qaramasdan mazkur mavzuni xali o‘rganishi lozim bo‘lgan, o‘z echimini kutayotgan muammolari ham mavjud ekan. Shu nuqtai nazardan biz ham o‘z mavzuimiz chegarasida maktabgacha yosh davri bolalarining bilish faolligini rivojlantirish usullarini amaliy taxlil kilish uchun nazariy ma’lumotlarni chuqur o‘rganib, kerakli xulosalarni oldik. Bilish faolligi o‘z mazmun mohiyatiga ko‘ra

barcha yosh davrlarida rivojlantirishni taqozo etadiki, bevosita xar bir yosh davrining intelekktual salohiyati, bilish darajasi va psixologik xususiyatlarini shakllanganligiga qarab tadqiqot ishlarini tashkil etish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Shavkat Mirziyoyev 15-iyun kuni Toshkentda bo‘lib o‘tgan "Ijtimoiy barqarorlikni ta’minlash, muqaddas dinimizning sofligini asrash – davr talabi" mavzuidagi anjumanda so‘zlagan nutqida yosh avlod tarbiyasi haqidagi nutqidan. https://www.standart.uz/ru/news/view?id=963
2. 2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi
3. Abu Nasr Forobiy. Baxt-saodatga erishuv haqida. Risolaiar. -T.: ≪Fan≫, 1975,76-bet.
4. Abdulla Avloniy. Tanlangan asarlar. -T.: ≪Ma'naviyab>, 1998. 36-bet
5. M.Vohidov ‘Bolalar psixologiyasi”

СУДДА ВОЯГА ЕТМАГАНЛАРНИНГ ЖИНОЯТЛАРИ ҲАҚИДАГИ ИШЛАРНИ КЎРИШНИНГ ПРОЦЕССУАЛ ТАРТИБИ

Нарзуллаева Муштарийбегим Собир қизи
Мустақил изланувчи
https://doi.org/10.5281/zenodo.7235674

Аннотация: Мазкур илмий мақолада суд жараёнида вояга етмаганларнинг жиноятлари тўғрисидаги ишларни кўришнинг процессуал тартиби масаласи илгари сурилади. Унга кўра, вояга етмаганлар жиноятларининг иш юритуви қай тарзда кўриб чиқилиши, кимлар қатнашиши лозимлиги қайд этиб ўтилган. Шу билан бирга, вояга етмаганлар иш юритувини енгиллаштирадан ҳолатлар ҳам келтириб ўтилган бўлиб, чет эл мамлакатлар қонунчилигидан ҳам асос баён этилган.

Калит сўзлар: Суд, вояга етмаганлар, прокурор, адвокат, қонуний вакил, жамоатчилик, иш юритув, тергов, гувоҳ, педагог, психолог, психиатр.

Суд вояга етмаганлар жиноятлари ҳақидаги ишни ўз юритувига қабул қилаётганида, ЖПКнинг 396-моддасида белгиланган умумий масалаларни кўриб чиққиш ва ҳал қилиш билан бирга иш юзасидан айбланувчининг шахсига, яшаш ва тарбияланиш шароитларига оид маълумотлар, жиноят мотивлари, унинг содир этилишига олиб келган сабаб ва шарт-шароитлар аниқланганлигига, шунингдек ўсмирни жиноят содир этишга жалб этган катта ёшдаги иштирокчилар ва шахслар топилганлигига алоҳида эътибор қаратади. Дастлабки терговнинг тулиқ эмаслиги, агар буни суд мажлисида бартараф этиб бўлмаса, ишни қўшимча терговга қайтариш учун асос бўлади.

Ўзбекистон Республикасининг ЖПК 395 - моддасида жиноят ишини судда кўриш учун тайинлашнинг ягона процессуал тартиби белгиланган. Бунга кўра судья жиноят ишини ўрганиб чиқиб, етти сутка давомида ё ишни судда кўриш учун тайинлаш ёки жиноят ишини юритишни тўхтатиш ёхуд тугатиш тўғрисида қарор чиқариши керак.

ЖПК 214-моддасига мувофиқ, суд бошқарув мажлисда шахслар ва ташкилотлардан ишда иштирок этишга рухсат бериш ҳақидаги, ишнинг тўхтатилиши ҳақидаги қўшимча далилларни талаб қилиб олиш, эҳтиёт чорасини ўзгартириш, фуқаровий даъво ва уни таъминлаш чоралари тўғрисидаги мавжуд бўлган илтимос ва аризаларни кўриб чиқишга мажбур бўлган. Вояга етмаганлар ишлари бўйича илтимос ва арз қилган шахслар қаторида вояга етмаган айбланувчининг қонуний вакиллари ҳам иштирок этишга йўл қўйилган. Илтимосни қаноатлантиришни рад қилиш суд томонидан

асослантирилиши, рад қилиш устидан шикоят келтириш, мазкур илтимос суд мажлисида эътиборга олиш мумкинлиги қонунда белгилаб қўйилган.

Шу билан бирга, вояга етмаганларни судга бериш бошқарув мажлисида албатта кўрилиши ва унда ихтисослашган прокурорнинг иштирок этиши тўғрисидаги қоидани ўрнатиш мақсадга мувофиқ бўлар эди. Вояга етмаганлар ишлари бўйича бошқарув мажлисида иштирок этаётган суд таркиби ва прокурорнинг ихтисослашуви, улар томонидан иш материалларини яхши билишини, суд муҳокамасига пухта тайёргарлик кўришини таъминлайди, халқ маслаҳатчиларининг фаоллигини оширади.

Ўзбекистон Республикаси ЖПКнинг 397-моддасига мувофиқ, суд муҳокамасида давлат айбловчисининг иштироки ишни судда кўриш учун тайинлаш тўғрисидаги қарорда кўрсатилиши лозимлиги белгиланган. Модомики, бу ҳолат чунки Кодекснинг 409-моддасига кўра прокурор барча ишлар бўйича суд муҳокамасида иштирок этиши шартлилигида кўрсатилган. Бу масалани суд ишни кўришга тайинлаш чоғида муҳокама қилишига замин яратмайди.

Бундан кўриниб турибдики, жиноят-процессуал кодекси вояга етмаганлар ишлари бўйича суд мажлисига алоҳида ҳолларда манфаатдор шахсларни таклиф қилиш имкониятини беради (ЖПК 549-554-моддалари). Вояга етмаганларнинг ишлари бўйича ўтказилиши тавсия қилинаётган бошқарув мажлисида ҳимоячининг иштироки мажбурийлиги таъкидланган. Бошқарув мажлисида бундан ташқари, қонуний вакиллар ва жамоат вакиллари иштирокини ҳам суд зарур, деб топиши мумкин.

Ўзбекистон Республикаси “Адвокатура тўғрисида”ги қонунининг 6-моддасига кўра, ҳимоячи барча давлат ва жамоат ташкилотларида юридик ҳимоя сўраб мурожаат қилган шахсларнинг ҳуқуқлари ва қонуний манфаатларини ҳимоя қила олади. У юридик ҳимоя учун юридик маслаҳатхона орқали маълумотномалар, тавсифномалар ва бошқа ҳужжатларни кўрсатиш талаб этилганда бу ҳужжатларни ёки уларнинг нусхаларини давлат ва жамоат ташкилотларидан олишга ҳақли.[41]

Вояга етмаганларнинг ишлари бўйича суд муҳокамасида судья вояга етмаган судланувчининг ҳимоячиси, қонуний вакили, шунингдек прокурорнинг фикрини эшитиб, вояга етмаган шахсга салбий таъсир этиши мумкин бўлган ҳолатлар текширилаётганда суд ўз ажрими билан уни суд залидан чиқариб туришга ҳақли. Жиноят процессуал кодексининг 551-562 моддаларига мувофиқ, суд вояга етмаганлар томонидан содир қилинган жиноят ишлари кўриладиган вақт ва жой ҳақида уларнинг ота-онасини, ота-она ўрнини босувчи шахсларни васийлик ёки ҳомийлик органи вакилларини вояга етмаганлар

[41] Ўзбекистон Республикаси “Адвокатура тўғрисида”ги Қонуни (1996 йил 27 декабр.)

ўқиган ёки ишлаган корхона муассаса ташкилотни вояга етмаганларнинг ишлари бўйича шуғулланувчи комиссияни фуқароларнинг ўзини ўзи бошқариш органлар вакилларини, алоҳида ҳолларда бошқа ташкилотларни ҳам хабардор қилади[42].

Қайд этилган меъёрий ҳужжатлар таҳлили вояга етмаганлар жиноятлари тўғрисидаги ишлари бўйича ҳимоячи иштироки нафақат дастлабки тергов босқичида ва суд муҳокамасида, балки ишни суд мажлисига тайинлаш босқичида ҳам таъминланиши лозимлигини инкор этмайди. Бу талабни рад этиш айбланувчининг ҳимояланиш ҳуқуқи билан таъминлаш принципини қўллашда зиддиятни келтириб чиқаради.

Ўзбекистон Республикасининг ЖПК 549-моддасида қонуний вакил ва гувоҳ функцияларининг бирлаштирилиши мумкинлигини назарда тутган бўлсада, амалиёт шуни кўрсатадики, қонуний вакилларнинг процессуал манфаати айрим ҳолларда унинг гувоҳлик кўрсатувларига баҳо беришда салбий таъсир кўрсатиши мумкин, чунки улар кўп ҳолларда холис бўлмайдилар.

Ўзбекистон Республикаси Конституциясида айбланувчининг ҳимоя қилиш ҳуқуқи билан таъминлаш кенг эътироф этилганлигини ҳисобга олиб, вояга етмаган шахснинг қонуний вакилининг жиноят-процессуал ҳуқуқини такомиллаштириш мақсадга мувофиқ бўлади.

“Вояга етмаганларнинг жиноятлари ҳақидаги ишлар бўйича суд амалиёти тўғрисида”ги Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленуми қарорида қонуний вакилни чақириш тўғрисидаги масалани ҳал қилишни судларга юклаб, бу орқали процесснинг мустақил иштирокчиси эканлигини таъкидлайди. Шунингдек, бу йўналишда келгуси қадам вояга етмаган шахснинг қонуний вакилини суд бошқарув мажлисида иштирок этиши мажбурийлиги кўрсатилиши кераклиги англашилган. Алоҳида ҳолларда ишни судда кўришга тайинлаш чоғида ўсмирнинг ақлан ривожланмаганлиги, руҳий асабий ўзгаришлар ва бошқалар мавжудлигини кўрсатувчи белгиларни аниқлаш учун психиатрнинг чақирилиши Ўзбекистон Республикаси ЖПК 567, 568-моддаларига зид бўлмайди. Ўз ўринда врач-психиатр суд мажлисида эксперт вазифасини ўтамайди, балки мутахассис сифатида судга вояга етмаганнинг руҳиятини тушунишга ёрдам беради. Бу орқали мутахассислар ЖПК 395, 548, 556, 564-моддалари талаблари доирасида кўрилаётган масалалар бажарилишига ўз ҳиссаларини қўшади.

Психиатрнинг муайян ёрдами айбланувчининг руҳий ҳолати, суд-психиатрия экспертизаси тайинлаш зарурати, тўпланган материалларнинг тўлалиги ва булар ҳақида гувоҳлик берувчи ишда мавжуд бўлган тергов

[42] Ўзбекистон Республикаси Олий судининг 2000 йил 15 сентябрдаги пленум қарорлари, Тошкент, 2000 йил, 16-18 бетлар.

материаллар тўлалигини аниқлашдан иборат бўлиши мумкин.

Ўзбекистон Республикасининг ЖПК 551-моддасига мувофиқ, суд ўсмирнинг иш ёки ўқиш жойига суд мажлиси вақти ва ўрнини маълум қилиши шарт. Бу вояга етмаганлар ишлари бўйича суд муҳокамаси тарбиявий таъсирини ошириш учун ва жиноят сабаблари ва уни содир этишига имкон берган шарт-шароитларни аниқлаш учун зарурдир. Ўқув-тарбия муассасалари, жамоат ташкилотлари, вояга етмаганлар ишлари бўйича комиссиялар, ҳомийлик ва васийлик органлари вакиллари суд мажлисида судланувчи ва унинг ота-онаси ҳақида, огоҳлантирув характеридаги кўрилган чоралар ва жиноят содир этилишига имкон берган бошқа шарт-шароитлар ҳақида ўз фикрларини баён этишга ҳақлидирлар.

Вояга етмаганларнинг жиноят ишларини кўришга жамоатчилик органларини жалб этиб, суд бу билан умумий профилактикани кўзда тутган ҳолда тарбия фаолияти соҳасини кенгайтиради.

Вояга етмаган судланувчини жиноят иши материалларини судга тайёрлашда тўпланган далиллар етарлилигини ва вояга етмаганни жиноий жавобгарликка тортиш учун асослар борлигини тергов материаллари воситасида аниқланади. Бу масалаларни ҳал этишда суд Ўзбекистон Республикаси Конституциясининг айбсизлик презумпциясига риоя қилиш тўғрисидаги талабига қатъий амал қилиб, ўсмир ҳаракатларига тўғри баҳо берилгани, уларнинг тавсифи тўғри эканлигини текширади.

Ишнинг муайян ҳолатларига қараб ва вояга етмаганларнинг турмуш шароити ҳақидаги маълумотларни ҳисобга олиб, суд Жиноят процессуал кодексининг 556-моддаси асосида эҳтиёт чораси сифатида уни ота-оналари, васийлари ва ҳомийлари назоратига, агар болалар муассасида тарбияланаётган бўлса, ушбу муассаса маъмурияти назоратига топшириши мумкин.

Жиноят ишини судда кўриш учун тайинлашда судья вояга етмаган ҳуқуқбузарнинг оилада, мактабда, ишлаб чиқаришда аҳлоқи ва турмуш шароитидаги салбий ҳолатларни характерловчи материаллар мавжудлигини текширади, вояга етмаган шахснинг ишини судда кўриш учун етарли асослар мавжудлигига ишонч ҳосил қилгач, судья ишни суд мажлисида кўриб чиқиш билан боғлиқ масалаларнинг ҳал қилишга киришади (ЖПК 395-моддаси).

Вояга етмаганларнинг ишлари бўйича суд муҳокамаси - одил судлов органлари фаолиятининг асосий кўринишидир. Мустақил Ўзбекистон Республикасида демократик давлатнинг суд муассасалари олдига қонунларни бир хилда ва тўғри қўллашни таъминлаш, фуқароларнинг ҳуқуқ ва эркинликларини, корхоналар, муассасалар ва ташкилотларнинг ҳуқуқларини ҳимоя қилиш вазифаси қўйилган.

Суд муҳокамаси вояга етмаганларга энг катта тарбиявий таъсирни

кўрсатади. Бироқ бу таъсирга эришиш учун суд мажлиси тўғри ташкил этилган бўлиши лозим. Вояга етмаганларнинг жиноятлари бўйича иш юритишнинг ташкилий, ҳуқуқий шакллари иложи борича одил судловнинг умумий вазифаларига, жиноят процесси мақсадларига мувофиқ келиши ва шу билан бирга бу турдаги жиноят ишларини кўриб чиқишнинг ўзига хос хусусиятларини ҳисобга олиши лозим.

Вояга етмаганлар ишлари бўйича суд муҳокамасининг ташкилий-ҳуқуқий масалалари бу турдаги ишларни судда кўриб чиқишда юзага келувчи бир қатор ахлоқий муаммолар билан чамбарчас боғлиқ. Маълумки, ҳозирги вақтда суд этикаси муаммолари тадқиқотчиларнинг алоҳида эътиборини тортмоқда. Бироқ, мавжуд тадқиқотлар асосан жиноят ишларининг айрим турлари бўйича иш юритишнинг ўзига хослигини акс эттира олмайдиган умумий характердаги ишлардир.

Вояга етмаганлар ишлари бўйича суд жараёнлари сифати самарасини ошириш ўзининг долзарблиги билан кун тартибига мазкур турдаги жиноят ишлари бўйича судьяларнинг ихтисослашуви масаласи қўйилмоқда.

Умуман олганда, судда жиноятларни, айниқса вояга етмаган ҳуқуқбузарларнинг ишларини муҳокама қилиш, тўртта ўзаро боғлиқ муаммоларини комплекс ўрганишни назарда тутади: жиноятнинг сабаблари, жиноий хулқ-атворнинг шаклланиш жараёни, индивидуал хулқ-атвор моҳияти, мажбурлов ва огоҳлантирув чораларининг таъсири самараси. Бу эса судьяларни ихтисослашуви тамойилини фаол амалга оширишни тақозо этади. Кўпчилик муаллифларнинг фикрича, бундай ихтисослашув судлов иш юритиш сифатини оширишга, амалиётнинг бирлиги ва барқарорлигига, тарбиявий профилактик ишларни максимал кенгайтириш ва мувофиқлаштиришга ёрдам беради.

Дарҳақиқат, вояга етмаганлар ишлари бўйича иш юритишда умумий талаб жиноят сабаблари ва уни содир этишга имкон берган шарт-шароитларни аниқлаш мажбурияти ҳисобланади. Шу туфайли суд мажлисида иштирок этиш учун ўсмирнинг турмуш ва тарбия шароитларини яхши билган шахсларни жалб этиш лозим. Улар орасида албатта ўқув-тарбия муассасалари, жамоат бирлашмалари, васийлик ва ҳомийлик органлари вакиллари бўлишлари лозим.

Айнан улар судланувчи ва унинг ота-оналари тўғрисида, мажбурлов ва тарбиявий характердаги чоралар ҳамда жиноят сабаблари ва унинг шарт-шароитларини аниқлаш ва бартараф этиш билан боғлиқ бошқа ҳолатлар тўғрисидаги маълумотларни судга малакали тарзда баён этишлари лозим. Амалиёт кўрсатганидек, мазкур вакилларни суд муҳокамасига чақиртириш ва иштирок эттириш судланувчи ишлаган ёки тарбияланган жамоа ўртасида тарбиявий ишларнинг яхшиланишига ёрдам беради.

Вояга етмаганлар ишлари бўйича суд жараёнларида ташкилий ва ахлоқий

жиҳатлар алоҳида аҳамиятга эгалигини ҳисобга олган ҳолда Польша Республикаси тажрибасини қўллаб, шу турдаги жиноят ишлари бўйича суд мажлисида юқорида келтирилган мансабдор шахс иштирокини таъминлаш зарур. Жумладан, суд мажлиси залида жамоатчилик вакилларининг доимий навбатчилигини ташкил этиш ҳам мумкин. Бироқ масалани бундай ҳал этиш унга пухта тайёргарлик кўришни талаб этади.

Фикри ожизимча, Польша Республикасининг вояга етмаганлар ишларини судда кўришнинг айрим жиҳатлари бўйича тажрибасини ўрганиш ва фойдаланиш ижобий натижаларга олиб келади.

Бундан ташқари, далилларга баҳо беришда вояга етмаганлар кўрсатувларининг ишончлигини аниқлаш керак ҳисобланади. Мазкур ҳолатларда вояга етмаганларнинг интеллектуал, психологик ҳолатига алоҳида эътибор бериш керак ҳисобланади. Бу ўзига хослик кўрсатувларда - туйғуга берилувчанлик, қўрқиш оқибатида мавжуд ҳолатни бўртириб кўрсатишга ҳаракат қилишда намоён бўлади. Мавжуд ҳолатни тасвирлаш ҳам ўзига хос ҳисобланади.

Сўроқ қилишда: ҳодисаларнинг алоҳида белгилари бўйича чекланган ҳолда идрок қилиш, ягона тизим доирасида қабул қилишнинг жузъий фрагментларини нисбатан мантиқий синтез қила олиш, катта ёшлилардан фарқ қилувчи вақт ва маконни ўзига хос идрок қилиш алоҳида инобатга олиниши керак ҳисобланади.

Амалиёт шуни кўрсатадики, вояга етмаган шахс ҳаққоний кўрсатувлар беришга қарор қилган бўлсада, айнан қайта тасвирлаш босқичида кўпинча ахборотнинг қисман йўқотилиши ёки бузилишига олиб келувчи мураккабликлар юзага келади. Чунки боланинг ёшлиги сабабли хаёлчанлиги, тассаввурининг хаёлий бўлиши мумкинлигидир. Шу нуқтаи назардан кўрсатувларнинг ишончлилигига баҳо беришда қуйидаги омилларни ҳисобга олиш лозим:

- вояга етмаган шахс кўпгина ҳолатларда асосий, муҳим воқеаларни батафсилроқ тасвирлашга ҳаракат қилади лекин бошқа ҳолатлар кўпинча эславй олмайди, бу эса ўз навбатида айрим қийинчиликларга сабаб бўлиши мумкин;

- вояга етмаган шахснинг ўз онгида ўзаро объектив ички алоқадорликда бўлган айрим фактларни боғлашга уриниш;

- олинган маълумотлар кўрилган ҳолатни тизимлаштириш қобилиятининг нисбатан пастлиги.

Вояга етмаганларни сўроқ қилишда Ўзбекистон Республикаси ЖПКнинг 553-моддасига биноан, ҳимоячи, терговчининг рухсати билан унинг қонуний вакили, педогог ёки психолог ҳам иштирок этиши мумкин ҳисобланади. Чунки

улар жиноят ишини кўрилишини осонлаштиради ва тўғри йўналишда боришини таъминлайди. Терговчи вояга етмаганларнинг шахсини, қайси тилда кўрсатма бера олишини аниқлаши, процессуал ҳуқуқ ва мажбуриятларини тушунтириб, унга қандай жиноят содир этишда гумон қилинаётганилигини эълон қилади. Гумон қилинувчига ишда айбланувчи тариқасида иштирок этишга жалб қилинганлиги тўғрисидаги қарорни тақдим қилади ва унга қўйилаётган айбловнинг моҳиятини тушунтириб беради. Бундан ташқари, биринчи марта сўроқ қилишдан олдин терговчи вояга етмаганнинг ўзини айбли деб ҳисоблаш ёки ҳисобламаслиги, ўз айбини тўла ёки қисман рад этиши ёки этмаслигини аниқлаши шарт. Вояга етмаган гумон қилинувчи ёки айбланувчини умумий сўроқ қилиш вақти олти соатдан ошмаслиги керак.

Шу билан бирга таъкидлаш лозимки, вояга етмаган шахснинг ҳодисаларни идрок этиш, эслаб қолиш ва қайта тасвирлашнинг моҳиятига таъсир қилувчи объектив омилларни ҳисобга олиш ҳам унинг кўрсатувларига ишончлилик нуқтаи назаридан баҳо тўғри бўлишини кафолатламайди. Ҳақиқатни атайлаб яширишга интилиш эҳтимоллилиги билан ҳам ҳисоблашиш зарур.

Вояга етмаган шахснинг сўроғида педагог иштироки ижобий аҳамиятга эга ҳисобланади. Чунки педагог вояга етмаган шахснинг психологиясини яхши тушунади ва иш ҳолати бўйича унинг терговда ҳаяжонланмаслиги ва ўзини тегишли равишда тутишига ёрдам беради. Шунга кўра, ҳозирги вақтда Молдова Республикаси ЖПК (132-м); Эстония Республикаси ЖПК (126-м) ва кўпчилик МДҲ давлатларининг ЖПКларида кўзда тутилганидек, вояга етмаган шахсни сўроқ қилишда педагог иштирокининг мажбурийлиги мақсадга мувофиқдир.

Вояга етмаган шахс кўрсатувларининг мақбуллиги қонунга ва процессуал шаклга, биринчи навбатда, жиноят-процессуал қонунининг барча талабларига риоя этиш билан боғлиқ. Вояга етмаганлар кўрсатувларига баҳо беришда эса уларнинг таъсирчанликлари, тазйиқдан кам ҳимояланганликлари ва бошқа руҳий омилларни эътиборга олиш лозим. Вояга етмаганни сўроқ қилишда жиноят-процессуал қонунчиликнинг ҳар қандай бузилиши далил сифатида қаралиши жиноят процессида вояга етмаганларнинг ҳуқуқларини муҳофаза қилишнинг муҳим кафолати ҳисобланади[43].

Мазкур ҳолатда вояга етмаган судланувчидан ҳақиқатга мос кўрсатувлар олиш учун қуйидагиларга эътибор бериш лозим:

а) вояга етмаган шахснинг суд мажлиси залидаги шароитдан таъсирланиш оқибатларини олдиндан билиш, бунинг учун зарур маълумотларни жиноят иши материалларидан, шунингдек, вояга етмаган судланувчининг руҳий хусусиятлари тўғрисида отаоналар ва ҳомийлар билан суҳбатлардан фойдаланиш мумкин;

[43] Ўразалиев М“Вояга етмаганлар жиноятчилигини олдини олиш чоралари” – “Ҳуқуқ ва бурч” 2010 й 4-сон

б) айбловчи ва ҳимоячи билан ўсмирни сўроқ қилишнинг мақсадга мувофиқ услуби ҳақидаги масалани унинг руҳий ҳолатидаги ўзига хосликларни ҳисобга олган ҳолда муҳокама қилиш;

в) судьяларни касбий маҳоратини ошириш дастурига процессда вояга етмаган иштирокчиларнинг руҳий ҳолати, уларни сўроқ қилиш услуби, тактикаси ва кўрсатувларига баҳо бериш масалаларини киритиш.

Судьяларни касбий тайёрлаш давомида ҳар бир вояга етмаган шахснинг жиноят содир этишда гуруҳдаги ўрнини аниқ белгилаш, жавобгарликни индивидуаллаштириш зарурлигига эътибор қаратиш лозим. Гуруҳ ишлари бўйича айбловнинг кўп учрайдиган камчиллиги ҳар бир судланувчи ролининг аниқланмаслигидадир.

Жиноят процессуал кодекси жиноят ишларини тергов қилиш ва кўриб чиқишда вояга етмаганлар билан процессуал муносабатларда бўлишнинг ўзига хос хусусиятларини белгилайди. Қонунга биноан иш ҳолатлари тўғрисида тўла, ҳаққоний ва ишончли маълумотларни тўплаш вояга етмаган шахснинг кўрсатувларига тўғри баҳо бериш учун исбот қилиш жараёнининг руҳий жиҳатларини билиш, хотира, тафаккур ва нутқнинг турли объектив ва субъектив омиллари, шунингдек, руҳиятдаги бошқа жараёнларнинг таъсирини, болалар психикаси хусусиятларини ҳисобга олиш зарур. Руҳий жараёнларга кўплаб субъектив ва объектив омиллар, шу жумладан ёш ҳам ўз таъсирини ўтказади.

Сўнгги вақтларда жиноят судлов ишларини юритишда суд психологик экспертизаси маълумотларидан фойдаланиш мумкинлиги ва рухсат этилиши тўғрисидаги масала ўта долзарб ва кескинлик касб этмоқда. Экспертизани вояга етмаганлар томонидан содир этилган жиноятлар бўйича тергов жараёнида ўтказиш зарурлигини алоҳида таъкидлаш лозим. Ҳозирги вақтда муаммо ўзининг мунозарали табиатини йўқотди, лекин суд психологик экспертизаси маълумотларидан жиноят процессида фойдаланиш мақбуллиги таъкидланди. Бунда вояга етмаганнинг ақлий ривожланишининг унинг ёшидан қанчалик даражада орқада қолганлиги, ақли заифлиги қай даражада эканлиги ҳақидаги саволларга жавоб бериш шарт қилиб қўйилиши керак», дейилади.[44]

Суд экспертизаларининг ўтказиш уч йўналишдаги вазифаларни бажаришга қаратилган.

1) далиллар, асосан вояга етмаганлар кўрсатувларининг ишончлилигига баҳо бериш билан боғлиқдир. Иш учун аҳамиятли бўлган ҳолатларни вояга етмаганлар онгида тўғри идрок қилиш ва мос таъсир этиш имконияти аниқланмоғи даркор. Аёнки, бунда бир томондан шахснинг турғун, доимий бўлган хусусиятларини аниқлаш, бошқа томондан аффект, стресс, фрустрация

[44] Ўзбекистон Республикаси Олий суди Пленумининг 2000 йил 15 сентябрдаги қарорлари. Т.2012, 38 бет.

ва психиканинг бошқа ҳолатларини аниқлашга тўғри келади. Амалиёт бир қатор ҳолларда судпсихологик экспертиза маълумотлари вояга етмаган шахснинг кўрсатувларига баҳо беришни объективлаштиришнинг ўзгармас воситаси бўлиб қолишини кўрсатмоқда. Айниқса, ўзига ўзи туҳмат қилишга сабаб бўлган руҳий шароитларни аниқлашда бундай экспертиза жуда самарали натижа беради.

2) энг яхши таъсир чорасини танлаш мақсадида жиноий хулқнинг сабаб ва мотивларини аниқлаш учун аҳамиятга эга бўлган шахснинг айрим руҳий сифатларини баҳолаш билан боғлиқ. Гап қизиққонлик, тажовузкорлик, сексуаллик каби хусусиятлар ҳақида кетмоқда. Шу ўринда вояга етмаган шахснинг зарурий мудофаа ҳолатида бўлганлиги ва буни қанчалик тушунганлигига алоҳида аҳамият берилади. Шундай ҳодисаларни ўсмир жиноий қилмишни қалтис вазиятдан қутилишнинг ягона йўли деган хато фикр таъсирида содир этган бўлиши мумкин.

3) ақлий ривожланишда ортда қолганлик белгилари бўлган вояга етмаган шахснинг характерини ва уларни бошқариш қобилиятини тўла аниқлашда судпсихологик экспертизасининг алоҳида роли билан боғлиқ. Бу ҳолда судпсихологик экспертиза маълумотлари жиддий далилий аҳамиятга эга бўлади. Шу сабабли, ЖПК 548моддасида кўрсатилган ҳолатларни аниқлаш учун ҳар сафар бундай экспертизани ўтказиш мажбурий деб ҳисоблаш мақсадга мувофиқдир.

